“TEXNIKA VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING AMALIYOTDA QO‘LLANILISHI VA ULARNING INNOVATSION YECHIMLARI”

XALQARO ILMIY-TEXNIK KONFERENSIYA

MATERIALLARI

II qism

(I va II sho‘balar)

FARG‘ONA
4-5-may 2023 yil

ПРАКТИЧЕСКОЕ ПРИМЕНЕНИЕ ТЕХНИЧЕСКИХ И ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ИХ ИННОВАЦИОННЫЕ РЕШЕНИЯ

PRACTICAL APPLICATION OF TECHNOLOGY AND DIGITAL TECHNOLOGIES AND THEIR INNOVATIVE SOLUTIONS

AUEZOV UNIVERSITY 1943

FERRIS STATE UNIVERSITY

KONFERENSIYA TASHKILIY QO'MITASINING T A R K I B I:

Muxtarov F.M. – Tashkiliy qo'mita raisi, TATU Farg'ona filiali direktori;

Polvonov B.Z. – Rais o'rinbosari, TATU Farg'ona filiali ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha direktor o'rinbosari, PhD, dotsent;

A'zolar:

Kadirov A.M. – Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, PhD, dotsent;

Abdullaev T.M. – TATU Farg'ona filiali O'quv va tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, PhD;

Usmonov A.A. – TATU Farg'ona filiali direktor maslahatchisi;

Abduraxmonov X.I. – TATU Farg'ona filiali Ishlar boshqarmasi boshlig'i;

Otaqulov O.X. – TATU Farg'ona filiali Kompyuter injiniringi fakulteti dekani, PhD, dotsent;

Daliev B.S. – TATU Farg'ona filiali Telekommunikatsiya injiniringi va kasb ta'limi fakulteti dekani, PhD;

Ibroximov N.I. – TATU Farg'ona filiali Dasturiy injiniring va raqamli iqtisodiyot fakulteti dekani, PhD;

Norinov M.U. – TATU Farg'ona filiali Sirtqi bo'lim boshlig'i;

Nurdinova R.A. – TATU Farg'ona filiali Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, PhD, dotsent;

Umarov Sh.A. – TATU Farg'ona filiali O'quv uslubiy bo'lim boshlig'i;

Teshaboev M.M. – TATU Farg'ona filiali Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i, PhD

Kaxxarov I.A. – TATU Farg'ona filiali Korrupsiyaga qarshi kurashish "komplaens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi boshlig'i;

Nurmatov M.M. – TATU Farg'ona filiali Bosh buxgalter;

Rustamov I.A. – TATU Farg'ona filiali Kasaba uyushmasi raisi;

Bilolov I.O‘. – TATU Farg‘ona filiali Axborot ta’lim texnologiyalari kafedrasi mudiri, p.f.n, dotsent;

Rayimjonova O.S. – TATU Farg‘ona filiali Telekommunikatsiya injiniringi kafedrasi mudiri, PhD, dotsent;

Jo‘raev N.M. – TATU Farg‘ona filiali Dasturiy injiniring kafedrasi mudiri, dotsent;

Sabirov S.S. – TATU Farg‘ona filiali Tabiiy fanlar kafedrasi mudiri, f-m.f.n, dotsent;

Zokirov S.I. – TATU Farg‘ona filiali Kompyuter tizimlari kafedrasi mudiri, PhD;

To‘xtasinov D.F. – TATU Farg‘ona filiali Axborot xavfsizligi kafedrasi mudiri, PhD;

Obidova G.K. – TATU Farg‘ona filiali Xorijiy tillar kafedrasi mudiri, PhD;

Qo‘chqarova G.D. – TATU Farg‘ona filiali O‘zbek tili va gumanitar fanlar kafedrasi mudiri, PhD;

Toshpo‘latov Sh.M. – TATU Farg‘ona filiali Xalqaro aloqalar bo‘limi boshlig‘i;

Abdulxamidov A.A. – TATU Farg‘ona filiali Iqtidorli talabalar ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo’limi boshlig‘i;

Salmonov A. – TATU Farg‘ona filiali Media markazi boshlig‘i;

Nosirov M.A. – TATU Farg‘ona filiali Telekommunikatsiya kafedrasi katta o‘qituvchisi;

Mamadaliev N.A. – Axborot texnologiyalari kafedrasi katta o‘qituvchisi;

DASTURIY QO‘MITA TARKIBI:

Maxkamov B.Sh.	–	Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti rektori;
Gafurov Yu.I.	–	O‘zbekiston Respublikasi raqamli texnologiyalar vazirligi Farg‘ona viloyati hududiy boshqarmasi boshlig‘i;
Kamilov M.M.	–	akademik, O‘zR FA;
Zaynobiddinov S.Z.	–	akademik, AndDU;
Mamadolimov A.T.	–	akademik, O‘zMU;
Mo‘minov R.A.	–	akademik, O‘zR FA;
Sultanov D.B.	–	TATU O‘quv ishlari bo‘yicha prorektori;
Tashev K.A.	–	TATU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori;
Muxtarov F.M.	–	TATU Farg‘ona filiali direktori;
Rasulov A.M.	–	professor,TATU Farg‘ona filiali;
Shipulin Yu.G.	–	professor, TDTU;
Salomov O‘.R.	–	dotsent,FarPI rektori;
Shermuhammadov B.Sh.	–	professor, FarDU rektori;
Utamuratova Sh.B.	–	professor, YAO‘FME ITI direktori;
Yuldashev N.X.	–	professor, FarPI;
Rasulov R.Ya.	–	professor, FarDU;
Onorqulov K.E.	–	professor, FarDU;
Ergashev S.F.	–	professor, FarPI;
Isaev R.I.	–	professor, TATU;
Zayniddinov X.N.	–	professor, TATU;
Iminov T.K.	–	professor, TATU;
Kasimaxunova A.M.	–	professor, FarPI;
Otajonov S.	–	professor, FarDU;
Xalmuxamedov A.R.	–	professor, FarDU;
Mamadalieva L.K.	–	professor, FarPI;
Bo‘taboev M.T.	–	professor, TATU FF;
Abdullaev A.	–	professor, TATU FF;

I SHO‘BA
AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA ZAMONAVIY DASTURIY MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQARISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

ЎЗБЕКИСТОНДАГИ ИССИҚЛИК ЭЛЕКТРО СТАНЦИЯЛАРИНИ АВТОМАТЛАШТИРИШ ТИЗИМНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ.

Х.И.Сотволдиев
ТАТУ Фарғона филиали

Ўзбекистонда энергетикани ривожлантиришнинг ҳолати ва кўлами миллий иқтисодий ривожланишининг характерли хусусиятларидан биридир. Шу билан бирга экологик муаммоларни ҳал қилиш учун талабларни кучайтириш муаммолар ва энергия ва ресурсларни тежашни жорий этиш автоматлаштирилган технологияларни жорий этиш лозим.

Янада ривожланган тизим тузилмаларини ишлаб чиқиш имкониятлари кўриб чиқилади. ИЭСнинг технологик жараёнларини бошқариш, техникни автоматлаштириш масалаларилўриб чиқилади.

“Иссиқлик электр станциялари” АЖ мамлакатимизда электр ва иссиқлик энергияси ишлаб чиқарувчи асосий генератсия тизими ҳисобланади. Юртимизда жами ишлаб чиқарилаётган электр энергиясининг 80 фоизи корхона зиммасига тўғри келади. Айни кунларда корхона ўзининг 2022-йилдаги фаолияти юзасидан дастлабки маълумотларни эълон қилди. 2022-йилда ишлаб чиқарилган электр ва иссиқлик энергияси ҳажми 17,9 трлн. сўмни ташкил этиб, режа кўрсаткичи 103,8 фоизни ташкил қилди. Бунда, ўтган йил натижаларига кўра 55,5 млрд. кВт.соат электр энергияси ва 5,35 млн. Гкалл иссиқлик энергияси ишлаб чақарилиб ягона энерготизимга узатилди.

Шунга кўра, истеъмолчиларга барқарор энергия ресурсларини етказиб бериш, электр ва иссиқлик энергияси нархининг ошишига йўл қўймаслик мақсадида, ёқилғи сарфини камайтириш, операцион самарадорликни таъминлаш, юқори ривожланган ҳамда энергосамарадор технологияларни жорий этиш натижасида 2022-йилда ишлаб чиқарилган маҳсулот таннархи 1,36 трлн. сўмга пасайтирилди. Бунда белгиланган режа 118,3 фоизга бажарилди.

“Иссиқлик электр станциялари” АЖ инвестиция лойиҳаларини самарали амалга ошириш бўйича, бугунги кунда АҚШнинг “General Electric”, Япониянинг “Mitsubishi Corporation”, “Itochu”, Жанубий Кореянинг “Hyundai”, Испаниянинг “Intecsa Ingeniera Industrial S.A.”, Италиянинг “AC Boilers S.p.A”, Россиянинг «Силовые машины», «Красный котельщик», «Калужский турбинный завод», «Таганрогский котелостроительный завод», «Ленинградский металлический завод», Туркиянинг “Çalik Enerji” компаниялари ҳамда ЙТТБ, ОТБ, Япониянинг “JICA”, Хитойнинг давлат тараққиёт банки билан самарали ҳамкорлик ишлари олиб борилмоқда.

Таъмирлаш ишларида зарур бўладиган ускуналар, деталлар ва жиҳозларни ишлаб чиқиш, валютанинг четга чиқиб кетишининг олдини олиш мақсадида санўат кооперацияси ва маҳаллийлаштириш асосида ишлаб чиқариш янада кенгайтирилди. Натижада 2022-йилда 26,1 млрд.сўмлик маҳсулотлар ишлаб чиқарилиб, режа кўрсаткичи 119,0 фоизга бажарилишига эришилди. Шу тариқа импорт ҳажми 16,2 млн.долларга қисқарди.

Жорий йилда Ўзбекистонда 7 та электр станцияси ишга туширилиши режалаштирилмоқда. Сирдарё, Навоий, Сурхондарё, Самарқанд ва Жиззахда 1 та ИЕС, 1 та шамол, 3 та қуёш ва 2 та ГЭС ишга туширилиб, ягона электр тармоғига уланади.

“Иссиқлик электр станциялари” томонидан 2023-йилнинг 1-чораги давомида 14,6 млрд кВт.соат электр энергияси ва 2 млн Гкалл иссиқлик энергияси ишлаб чиқарилиб ягона энерготизимга узатилди.

ИЭСда ишлатиладиган ёқилғи иссиқлик энергиясининг фақат 30% гина фойдали электр энергиясига айлантирилади, яъни ИЕС нинг фойдали иш коэффициенти 30% га тенгдир. Фойдали иш коэффициенти қийматини ошириш мақсадида қозондаги буғ босими иложи борича юқори қилинади ва турбина парракларидан ўтиб, иш бажариб бўлган буғнинг ҳаммаси совиткичлар воситасида совитилиб, қайта сувга айлантирилади (конденсатланади) ва қозон тизимига юборилади. Бундай ИЭСни конденсацией электр станциялари (КЭС) дейилади ва уларда фойдали иш коеффитсиенти қиймати h=30—35% гача кўтсарилади ҳамда сув берк тизимда айланиши сабабли қувурлар батареяларидан иборат қозонни таъмирлаш ишлари кескин қисқаради. ИЭСлар, одатда, қаттиқ, суюқ ёки газ ҳолатдаги арзон ёқилғи кони яқинида қурилади. Станция генераторларидан олинган электр энергиясининг асосий қисми бир неча 100 км масофадаги истеъмолчиларга кучайтирувчи трансформатор ва юқори волтли электр узатиш линиялари воситасида етказилади, қолган қисми эса станциянинг ўз генератор кучланишида ёки пасайтирувчи трансформатор орқали берилади.

Адабиётлар рўйҳати

1. М.А.Дуэль Автоматизация технологических процессов и ее влияние на эффективность энергопроизводства ТЭС И АЭС. Восточно-Европейский журнал передовых технологий 5/8 (53) 2011 г.
2. Автоматизированные системы комплексной технической диагностики (АСКТД) для энергоблоков АЭС с реакторами ВВЭР-1000.–Харьков.: ЗАО «Техностандарт», 2004.– 215 с.
3. «Халқ сўзи» газетаси № 35 21.03.2023 й.

ФОРМИРОВАНИЕ ОСНОВНЫХ ПРИНЦИПОВ И ТРЕБОВАНИЙ, ПРЕДЪЯВЛЯЕМЫХ БЕСПЕРЕБОЙНОЙ ФУНКЦИОНИРОВАНИ МОБИЛЬНЫХ УСТРОЙСТВ ТЕЛЕКОММУНИКАЦИОННЫХ СЕТЕЙ СВЯЗИ

Киямов Рахматулло Рузиевич.
Касби озик-овкат саноати техникуми

raxmatullo.kiyamov@mail.ru тел:90 720 05 34

Мобильный Интернет, так же как и мобильная связь, имеет все шансы стать одним из главных способов решения проблемы «цифрового неравенства» [3].Образующим элементом соты является базовая станция – BSS (Base Station Subsystem), конструктивно состоящая из большого металлического контейнера с телекоммуникационной аппаратурой (рис. 3) и нескольких антенн, расположенных на вышке или на крыше здания с секторными диаграммами направленности, образующими сплошную зону покрытия для радиосигнала.



Рис. 3. Традиционная базовая станция

На первом этапе развития сотовых сетей внутри металлического контейнера, установленного в кондиционированном помещении (аппаратной) либо произведённого в уличном исполнении (outdoor), находились базовый блок – BBU (Baseband Unit) и радиомодули – RRU (Remote Radio Unit), осуществляющие формирование радиочастотного тракта, усиление и фильтрацию сигнала. Для подключения к антеннам

использовались радиочастотные (RF) кабели (рис. 3). Радиомодули расположены рядом с антеннами сотовой связи, а с базовым блоком BBU они соединены оптоволоконным кабелем (рис. 4).



Рис. 4. Распределённая базовая станция

Следующим логическим шагом развития архитектуры построения базовых станций стала концепция облачных BBU (Cloud BBU), предусматривающая перенос части функциональности локальных BBU на виртуализированные ресурсы мощных серверов, размещаемых в центрах обработки данных (ЦОД). Эта концепция за счёт централизации ресурсов и эффекта масштаба позволяет повысить надёжность и ёмкость базовых станций, одновременно снизив затраты на их эксплуатацию. Однако внедрение данной концепции идёт медленно из-за высоких требований к пропускной способности каналов связи между ЦОД и базовыми станциями [4, 5, 6].

Активное охлаждение с использованием холодильных агрегатов: при таком виде охлаждения герметичность шкафа сохраняется и попадание воды и пыли внутрь него исключено. Подобные решения включают термоэлектрические охладители и кондиционеры для outdoor-шкафов. Выбор решения принципиально зависит от того, в каком климате необходимо эксплуатировать базовые станции сотовой связи. Если

максимально допустимая температура внутри шкафа выше температуры окружающей среды, то оптимальным решением будет установка шкафа с пассивным охлаждением или вентиляция наружным воздухом. Если максимально допустимая температура внутри шкафа стабильно ниже температуры окружающей среды, то необходим шкаф с активным охлаждением.

Шкафы с активным охлаждением и экранированием от солнца надёжно защищают оборудование от воздействий окружающей среды в виде солнечной радиации и температурных экстремумов, а также от попадания пыли [6].Для обеспечение полной бесперебойной работы мобильной базовой станции кроме выше сказанных, ещё требуется организовать альтернативного варианта электропитании. Существуют несколько вариантов альтернативного питания базовой станции.

1.Установка аккумуляторных батарей

При отключение основного электропитание осуществляется автоматическая переключение и базовая станция получает питанию от аккумуляторной батареи.

2. Установка дизельного генератора

При отключение основного электропитание осуществляется автоматическая переключение и базовая станция получает питанию от Дизельного генератора.

3.В последнее время большинство операторы стали пользоваться от солнечных панелей, которые отвечают на множества требований.

4.Энергия ветра. Ветрогенераторы ветроэнергетический комплекс "Бриз Лидер" начал обеспечивать электроэнергией базовую станцию сотовой связи (БССС) №10-406 ОАО "Мобильные ТелеСистемы". Удаленность объекта от основных линий электропередач не позволяла решить проблему энергообеспечения традиционным способом.

Именно технические показатели ветрогенератора "Бриз" смогли полностью удовлетворить достаточно жесткие требования сотовой компании.

Солнечная батарея, используемая для питания базовой станции сотовой связи.

5. Гибридные

Состоит из ветроэлектрогенератора и солнечной батареи, которые заряжали батарею аккумуляторов. А батарея аккумуляторов, в свою очередь, питает базовую станцию, когда нет ни ветра, ни солнца.

Литература

1. Кобылко А.А. Оператор связи как социально-экономическая система // Экономический анализ: теория и практика. – 2015 . – Т. 14, вып. 38.
2. Кобылко А.А. Анализ взаимосвязей элементов макроэкономической системы рынка телекоммуникационных услуг // Terra Economicus. – 2017. – Т. 15, № 4.
3. Как преодолеть «цифровое неравенство» [Электронный ресурс] // Режим доступа : http://www.cnews.ru/reviews/free/gov2011/articles/article27.shtml .
4. Сеть радиодоступа 5G, часть 1 [Электронный ресурс] // Режим доступа : https://itechinfo.ru/node/188.
5. Распределённая базовая станция [Электронный ресурс] // Режим доступа : http://celnet.ru/rasprbs.php.
6. Перспективы развития систем сотовой мобильной связи [Электронный ресурс] // Режим доступа : http://afu.com.ua/gsm10.

AXBOTOR TEXNOLOGIYALARINI KASBIY FAOLIYATDA QO‘LLASH FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY DASTURIY VOSITALARDAN FOYDALANISH

Xudayberdiyev Abdumadjid Abdujalilovich
Guliston dasvlat pedagogika instituti “Aniq va tabiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

XX asrning 70-yillarida mikroprotsessor texnologiyasini kashf etilishi va shaxsiy kompyuterlarning hayotimizga keng kirib kelishi, yangi axborot inqilobini vujudga keltirdi. Bu inqilob yangi soha hisoblanmish, ya’ni bilimlarni ishlab chiqish uchun yangi texnologiyalar, uslublar, kompyuter vositalarini ishlab chiqarish bilan bog‘liq axborot sanoatini rivojlanishini ilgari surmoqda.

Bizga ma’lumki, informatika va axborot texnologiyalari fani ta’lim tizimida talaba-yoshlarning bilim doirasi, dunyoqarashini, tasavvurlash qobiliyatini shakllantirishda alohida o‘rin tutadi. Chunki informatika va axborot texnologiyalari fani boshqa ko‘plab fanlarlarni o‘rganishda, yangi texnika va texnologiyalarni, axborot vositalarini o‘zlashtirishda keng qo‘llaniladi.

Hozirgi vaqtda informatika va axborot texnologiyalari darslarida dasturiy vosita va matematik paketlarning o‘rni va roli ancha sezilarli va samaraliroqdir. Talaba-yoshlarda Excel, Scratch va Python dasturlari yordamida murakkab matematik masalalarni yechishni osonlashtirish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish orqali masalalalarni echishga o‘rgatishning qiziqarli va juda oddiy jarayoniga aylantirish mumkin.

Excel, Scratch va Python dasturida oddiy hisoblashlardan tortib murakkab hisoblashlarni bajarish, oddiy ifodalarni qiymatlarini hisoblash, tarmoqlanuvchi va takrorlanuvchi jarayonlarga doir masalalarni echish, funksiyalarning qiymatlar jadvali va grafigini hosil qilish, tenglama va tenglamalar sistemasini sonli va grafik usullarda echish, tekisliklar va fazoviy sirtlarni hosil qilish kabi ko‘plab imkoniyatlarni yaratadi.

Multimedia - bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida axborotning an’anaviy va original turlari asosida o‘quv materiallarini

o‘quvchilarga yetkazib berishning mujassamlashgan holdagi ko‘rinishidir. Multimedia hozirda juda tez gurkirab rivojlanayotgan zamonaviy axborot texnologiyasi bo‘lib, u quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

an’anaviy axborot turlari, ya’ni matn, jadval, turli xil bezaklar va original axborot turlari, ya’ni nutq, musiqa, videofilmlardan parchalar, telekadrlar, animatsiya (ob’ektlarning fazodagi harakati) ko‘rinishidagi axborot turlarini bir dasturiy mahsulotda mujassamlashtirilganligi;

video va audio axborotlarini kompyuterda qayta ishlash va aks ettirish uning markaziy protsessor tez harakatchanligi, ma’lumotlarni uzatish shinasining o‘tkazish qobiliyati, operativ va video-xotira, katta hajmli tashqi xotira, hajm va kompyuter kirish-chiqish kanallari buyicha almashuvi tezligini taxminan ikki baravar oshirilishi talab etiladi;

Informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda dasturiy vositalar asosida integrallashgan darslarni tashkil etishning samaradorlik darajasini aniqlashda quyidagilar inobatga olinishi lozim:

- talaba-yoshlarning o‘quv jarayonida kompyuterlardan foydalanishda mustaqil qarorlar qabul qilish va har bir harakatga ijodiy yondoshish yo‘llari;

- integrallashgan dars jarayonida namoyish etilayotgan o‘quv ma’lumotlarni talaba-yoshlar tomonidan qabul qilinish darajasi va ularni mustaqil ish va ijodiy faoliyatlarda tadbiq etish qobiliyatlari;

- ma’lumotlarni bayon qilish, tekshirish va modellashtirishda virtual muhitlardan foydalanish imkoniyati va zaruriyati;

- integrasiyallashgan darslarda ma’lumotlarning etarliligi, ishonchliligi va ko‘rgazmaliligi;

- informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitish jarayonida integrasiyallashgan usullarni qo‘llash uchun uslubiy ko‘rsatmalar, qo‘llanmalar va tavsiyanomalar yaratish.

Ta’limni axborotlashtirish esa quyidagilarga imkon beradi:

Ta’lim tizimini avtomatlashtirilgan ma’lumotlar bazalari yordamida boshqarish, axborot vositalari va texnologiyalari bilan ta’minlash;

ta’lim va tarbiyaning mazmuni, metodlari va mazmuniy shakllarini tanlash metodologiyasini takominlashtirish;

ta’lim oluvchilarni aqliy rivojlantirishga, ularda mustaqil axborot izlash, tajribalar o‘tkazish, tadqiqotlar olib borish qobilyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan metodikalarni yaratish;

Xulosa qilib aytish mumkin, ta’lim jarayonidagi eng muhim vositalar yuqorida ta’rif berilgan kompyuter vositalari hisoblanadi. Bu vositalar dars jarayonini ko‘rgazmali qilishga, o‘quv materialining o‘zlashtirilishini yengillashtirishga va ta’lim oluvchilarning motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi. “Yuz marta gapirgandan ko‘ra, bir marta ko‘rgan afzal” degan xalq iborasi bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Ko‘rgazmalilik, tushunarlilik va misol-namunalardan foydalanish kabi didaktik tamoyillar bu iboraga javob beradi. Talaba-yoshlar dars jarayonida dasturiy vositalardan foydalangan holda kompyuterdan samarali foydalanilsa darsni yaxshi o‘zlashtiradi va ular to‘grisida aniq tasavvur hosil qilishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Abduqodirov A.A, Toshtemirov D.E “Ta’lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish metodikasi”. Monografiya. Guliston:Universitet, 2019 yil

2. D.E.Toshtemirov, M.B.Niyozov, J.D.Saidov “Ta’limda axborot texnologiyalari” o‘quv qo‘llanma: Toshkent-2020 yil

3. Internet ma’lumotlar.

THE CONCEPT AND ESSENCE OF INFORMATION SECURITY

K.Z.Muminov
Master's degree The Ferghana Branch Tashkent university of information technologies named Mukhammad al-Horazmy

Kmominov6999@gmail.com

Introduction. The process of development of social processes and society as a whole directly depends on the quality of information resource management. AT modern structure of the social environment, the use of information in managerial issues is no longer a privilege exclusively corporate structure. Implementation of new software technologies, including algorithms information processing and advanced communications are far from being the only means of promoting the development of variations use of information in society. Constant change in perception the level of significance of information resources among those who create and consuming this resource is an incentive for the progress of development area under study. This fact determines the significance of the corresponding implementation of the concept information security. The concept of information security is document, the significance of which is fixed and regulated by at the state level in almost all existing countries of the world. Lack of a definite idea of information security in general, the policy of its implementation and the boundaries of its implementation can cause an inefficient choice of measures to ensure the necessary the level of protection of information resources from possible threats. Based on this, it can be assumed that implementation of integrated information security support is identified with the very definition of information security. Many experts define the essence of information security as the absence of any possibility for the threat source to exert a negative impact on the object of information protection, which may also cause damage also to its functional activity or to the properties themselves object of protection.

II. Main part. Information Security (sometimes known as InfoSec) covers companies' methods and techniques to safeguard information. This often consists of various tools that organizations use to protect data by setting policies that stop unofficial people from gaining access to business or confidential information. Information Security is a vast and developing technology that includes a broad

range of fields, from network and system security to checking and inspection. Therefore, information security can be considered as a foundation whose goal is to build security tools, policies and ensure the safety of confidential data (like cognitive data, financial details, etc.).

Data classification is a major constituent of setting up an InfoSec strategy. One may ask what is data classification in information security? It's the categorization of data based on its level of vulnerability, and the effect on the organization should that data be disclosed, changed, or diminished without authorization. Data classification aids in choosing the suitable baseline security procedures to secure that data. Authorities and private enterprises usually provide their work by such information security systems, characteristics which cannot ensure information security in full size, because, based on what is stated in the Doctrine of information security definition, security status refers to the most significant aspects of public administration and social life. AT such a definition shows a deviation from the existing essence information security, as the subject of regulation is the formation of social relations, which in itself represents a new approach to determining the state of security.

It should be noted that the very characteristic of the state security in relation to the object in the field of information security cannot be classified as a way to control every units of stored and processed information on each device with taking into account any possibility of negative impact. Provide similar the structure of the information security system is extremely complex and excessively financially costly even for representatives of some structures of state power, without taking into account most of the public interests. To safety personal data, in turn, can be attributed to the security of personal information, then the definition of critical infrastructure follows expand to critical interests. Based on the above, it should be understood that the protection of personal data should reasonably be identify with the protection of confidential information and represent from itself a social value. In this vein, information security is realized largely through prevention unauthorized access to information. In addition, analysis objects of protection demonstrate an insufficient assessment of the significance of such object of protection, as normal conditions for the use of information fourteen security,

which, subject to stable implementation, could significantly reduce the negative impact on the objects of protection.

It should be noted that the development of social processes presupposes the development of the culture of the country. Therefore, the scope of passive protection information resources should involve the interests of freedom circulation of information of all industries that are not at the level critical importance. Critical interests, in turn, determine the use of administrative and technical information security methods, which, unlike interests that are not of critical importance are interconnected with certain restrictions and restrictions.

The area of social development is more the priority of the direction of the policy of allowing, which includes financial support for the development of information security with side of society. Considering the mechanism for providing information security, an insufficient list of powers can be noted regional and municipal authorities in the field of development and provision information security at the level of the region and a certain municipality in particular. These levels of authority can provide more rational structure of the development of society and implement the mechanisms passive protection, bearing the preventive nature of providing information security of society.

Based on the foregoing, it can be concluded that the information security can be defined as the development and implementation of active protection in relation to interests that have critical significance level, as well as the implementation of passive protection, involving the formation of conditions for the normal development social processes and the economic sector. The analysis showed that in these areas there is a variability of ways and means of achieving effective security of information resources. In relation to economic and social development involved permissive policy, as well as predominantly means, encouraging the development of the economy and society from the perspective of information security. With regard to critical interests representing the highest priority in active protection, mainly involved administrative methods and dominated by the use of funds technical protection of information data. Therefore, the essence of information security can be defined as such a state of an object in which the state information environment in which he is, provides him preservation

of the ability and ability to accept and implement decisions in accordance with their goals, aimed at progressive development. The state of information security can be ensured both in the technical ability of the object of protection counteract unauthorized influence from outside, and the result of activities aimed at maintaining safe state of the information environment.

Conclusion The need to optimize the activities of territorial tax bodies is due not only to a large number of employee's enterprises, but also by inefficient distribution of the resource of working time. The information security system has been improved by eliminating vulnerabilities, introducing additional regulations, reducing the impact of the human factor and labor auto motion. Efficiency in preventing information security threats directly depends on an integrated approach to solving the problem under study. Problems. Ensuring the required level of information security resources of the enterprise requires regular system upgrades information security, including improvements in the regulatory framework, the introduction of new software products and training events for employees. The main sources of threats to information security were studied, which may have a negative impact on the work of territorial tax authorities. This part of the study has a fundamental significance, since the timely identification and classification of threats information security is necessary to effectively ensure protection of information resources.

List of used sources

1. GOST R 50922-96 "Information security. Basic terms and definitions"
2. Streltsov A.A. The content of the concept of "providing information security" // Information Society No. 4. P.12 2015
3. Doctrine of information security of the Russian Federation (approved by Decree of the President of the Russian Federation on December 5, 2016 No. 646) [Electronic resource]// ATP "Consultant Plus". URL: http//www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_28679/ (date of access 03/12/2020);
4. Federal Law "On Personal Data" dated July 27, 2006 Year No. 152 (adopted on June 27, 2006, current edition);
5. Federal law "On information, information technologies and information protection" dated July 27, 2006 No. 149 (adopted July 27, 2006, current edition);

DAVLATLARARO MUNOSABATLARNING VIRTUAL KOMMUNIKATIV AXBOROT MAKONLARINI YARATISH

Jo`rayev Jahongir Nurmaxamadovich
TATU Farg'ona filiali magistri

"Axborot va kommunikatsiya makoni" tushunchasi - axborot jamiyatining nazariyasini va jamiyatning har bir a'zosi tomonidan kuzatilayotgan globallashuv jarayonlarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Har qanday faoliyat turi atrofida avtomatik ravishda yuzaga keladigan axborot-kommunikativ makon qarshi emas, balki yaxshi faoliyat yuritishi, konstruktiv bo'lishi uchun har xil axborot va kommunikatsiya sub'ektlari o'rtasidagi aloqalar yuqori samaradorlik bilan amalga oshiriladigan quyi nazorat modelining yaratilishi muhimdir.

Axborotni tahlil qilishning axborot-yordamchi tabiati, bu axborotni boshqa axborot infratuzilmalari, axborot-yordamchi xizmatlari, axborot makonini an'anaviy tartibga solish, to'plangan axborot resurslarini saqlashni ta'minlovchi axborot oqimlari harakatini optimallashtiruvchi va yo'naltiruvchi bilan bog'laydi, ma'lumotlarni o'zgartirish bo'yicha tayanch, muhim vazifalar bajarilishiga imkon beradi: ma'lumotlarning tarqalishi, ma'lumotlar bazalari va banklar shaklida yirik axborot massivlarini birlashtirish va ularni tuzilmaviy tartibga keltiradi.

Axborot mahsulotlari va xizmatlari bilan faol ish yuritgan holda, axborot tahlillari asosan ilmiy (yangi bilimlarni ishlab chiqarish) va boshqaruv (echimlar variantlarini va ssenariylarini ishlab chiqish) faoliyatidan funksional ravishda kesishib, axborotni sifatli-tarkibiy axborot almashinuv vazifasini bajaradi.

Germenevtik usullarga asoslanganaxborotni tahlil qilish, ya'ni keng ma'noda - matnlarni talqin qilishda, agar ular umumlashtirilgan bo'lsa, - hujjat, matn, ma'lumot, hodisalar haqida xabarlar va boshqa ma'lumotlar sifatida, shuningdek ilm-fan tarmoqlari, ilmiy vazifalar turlari eksperimental vositalar orqali emas, balki mavjud nazariyalarni tahlil va talqin qilish, faktlarni tavsiflovchi haqiqatni axborot modellashtirish yo'li bilan qo'lga kiritilganda ob'ektiv tabiiylik va tendensiyalarni aniqlash, ularni harakatga keltiruvchi mexanizmlari, sababva ta'sir munosabatlarini aniqlashga asoslangan.

Axborot tizimlarini makonda qurish qonunlari bilan bir qatorda axborotni makonda tashkillashtirish – informologiyani o‘rganish ob’ekti - umumilmiy, nazariy yo‘nalish, zamonaviy nuqtai nazardan «makon - uyushgan muhit» va «ma’lumot –bu makonning holati»hisoblanadi.Bunday yondashuv, kamida, axborot va kommunikatsiya haqiqatining shartlariga muvofiq axborotni qabul qilish va tarqatish uchun modellashtirilayotgan makonning rivojlanishini belgilovchi axborot vakolatlarini nazarda tutadi.

O‘z navbatida, informologik layoqatning muhim tarkibiy qismi axborot-kommunikatsiya layoqati hisoblanadi, uni "mustaqil izlash, zarur axborotni tanlash, tahlil qilish, tashkil etish, taqdim etish, yetkazish uchun kompleks qobiliyat; ob’ektlar va jarayonlarni modellashtirish va loyihalash, loyihalarni amalga oshirish, shu jumladan, individual va guruh faoliyatida ishtirok etish" kabi ko‘rib chiqish mumkin.Shu bilan birga, informologik layoqat chuqur tushuncha bo‘lib, modda, energiya, makon va vaqt bilan bir qatorda, turkum maqomidagi axborotning bir necha mazmundagi konsepsiyasini aks ettiradi va dunyodagi shaxsiy axborotning tasvirini - axborot va kommunikatsiya haqiqatining dunyoni intellektual egallashni shakllantirishda namoyon bo‘ladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, xususan Internet global tarmog‘i norasmiy (hayotiy) va rasmiy munosabatning ajralmas atributiga aylanib, virtual makonda faoliyat yuritishini inobatga olgan holda ham axborot, ham kommunikativ sifatida makonning modellashtirish yondashuvlari ko‘rib chiqilishiga majburlaydi.

Kommunikatsiyani amalga oshirish har qanday muhim boshqaruv harakati uchun zarur bo‘lgan bog‘lovchi jarayondir.Qabul qiluvchilarning asl ob’ektga o‘xshash g‘oyaga ega bo‘lishi uchun, ekstensional va intensional yondashuvni, qabul qilingan xabarni talqin qilish texnologiyasini, shuningdek ma’lumotlarning aniq xususiyatlarini (semantik, semiotik, aksiologik), tezaurusni shakllantirish uchun qo‘llanish kerak. Garchi ushbu yondashuvlar tizimni tuzishdagi muvaffaqiyatga kafolat bermasa ham.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joyida joriy etish va keng qo‘llanish industrialdan postindustrial (axborot) jamiyatga juda muhim qadam

sifatida qaraladi. Biroq, texnologiyalarni rivojlantirish asosida amalga oshirilayotgan bunday o‘tish jarayoni jamiyat uchun iz qoldirmasdan tez o‘ta olmaydi. Bu jahon tarixining uch bosqichli modelini taqdim etgan M.Maklyuen tomonidan bayon etilgan bo‘lib, bu yerda uchinchi davr sifatidashaxsning intellektual qobiliyatlarini va ijodiy xususiyatlarini kuchaytiradigan elektron (audiovizual) aloqa qobiliyatini yuzaga keltirish sharoiti tushuniladi.

M.Maklyuen yangi vositalar va texnologiyalarni antiseptiklarga to‘liq e’tibor bermaydigan ijtimoiy tanada amalga oshirilgan ulkan kollektiv jarrohlik amaliyoti bilan taqqoslaydi. Yangi texnologiya bilan jamiyatni operatsiya qilishda butun tizim uning ta’siri ostida bo‘ladi. Radiolarning ta’siri vizual, fotosuratlarning ta’siri esa tovushli hisoblanadi. Har bir yangi bosim barcha hislar orasidagi nisbatlarda o‘zgarishga sabab bo‘ladi.

"Biz bugungi kunda izlayotgan narsa - bu o‘zgarishlarni aqliy va ijtimoiy dunyoqarash hissiyotlari bilan solishtirish yoki umuman, bu o‘zgarishlarning oldini olish vositasidir. Shu munosabat bilan global va mahalliy tajribani tahlil qilishga asoslangan virtuallashtirilgan jamiyat sharoitida ma’muriy boshqaruv shakllari va texnologiyalarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Dastlabki bosqichda elektron texnologiyalar (kosmik aloqalar, portativ video tasmalar) ijtimoiy terapiyavazifasini bajargan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. F.M. Muxtarov. Davlatlararo munosabatlarda axborot xavfsizligi. – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2020,168 bet.
2. Popov V.D. Informatsiologiya i informatsionnaya politika. – M.: RAGS, 2005. -s 120.
3. Voronov K.V. Globalnaya intersistema: Evolyusiya, struktura, perspektivы / K. V. Voronov // Mirovaya ekonomika i mejdunarodnыe otnosheniya. - 2007. -№ 1. - s 18-19.
4. Busыgina I.M. Politicheskaya regionologiya / I.M. Busыgina - M., 2006.–s 46-49.
5. Axmetyanova A.I., Kuznesova A.R. Problemы obespecheniya informatsionnoy bezopasnosti v Rossii i yee regionax // Fundamentalnыe issledovaniya. – 2016. – № 8-1. – s 82-86;

CHIGITLI PAXTANI MAYDA IFLOSLIKLARDAN TOZALASH USKUNALARINING KAMCHILILARI VA ULARNI BARTARAF ETISH USULLARI

Usmankulov Alisher Kadirkulovich, Egamberdiyev Fazliddin Otaqulovich, Xolmuratov Oybek Yarkinovich
Jizzax Politexnika instituti

Chigitli paxta tarkibidagi mayda iflos aralashmalarni ajratish uchun paxta tozalash korxonalarida 1XK va 6A-12M [1,2] kabi mayda ifloslikdan tozalash uskunalaridan foydalaniladi. Chigitli paxtadan mayda iflosliklarni ajratuvchi barcha tozalagichlar bir xil usulda ishlaydi. Paxta qoziqchali-plankali barabanlarda titkilanib to‘rli yuzali sirtlari orqali harakatlantiriladi. Bu jarayon bir necha marotalab takrorlanadi va chigitli paxta mayda iflosliklardan tozalanadi. Tozalanish samaradorligi qoziqchali-plankali barabanlar aylanish tezligiga, uning konstruksiyasiga, to‘rli yuzasiga va chigitli paxtaning sifat ko‘rsatkichlariga bog‘liqdir.

1XK markali tozalash qurilmasi ta’minlovchi valiklar, qoziqchali-plankali barabanlar, to‘rli yuza, ifloslik bunkeri va novdan iborat. Mashinaga paxta yuklash shaxtasi orqali ta’minlovchi valiklar ga uzatiladi. Ta’minlovchi valiklar qoziqchali-plankali barabanlarga paxtani bir meyorda ta’minlash vazifasini o‘taydi. Qoziqchali barabanlarga paxta tushadi va qoziqchalar bilan titlib to‘rli yuzaga uriladi. Natijada paxta xomashyosi mayda iflosliklardan tozalanadi. To‘rli yuza orqali ajralib chiqqan iflosliklar ifloslik bunkerlarga tushib, yig‘uvchi shnek yordamida tashqariga chiqib ketadi. Tozalangan paxta keyingi jarayonga o‘tadi. Ushbu qurilmaning asosiy kamchiligi to‘rli yuzasi xajmining kamligi va tozalash samaradorligining pastligidadir. Bundan tashqari mayda iflosliklar paxtani tozalash jarayonida qoziqchalar tomonidan beriladigan zarba kuchi natijasida chigit shikastlanishi xosil bo‘ladi.

SCH-02 qoziqli barabanli tozalagich (1-rasm) o‘rta tolali va ingichka tolali paxta xom-ashyosidan mayda iflosliklarni ajratib olishda ishlatiladi. Bu mashina tozalash bo‘limlarida 6A-12M mashinasi o‘rnida ishlatiladi [3].

SCH-02 mashinasining asosiy ishchi organi qoziqli baraban hisoblanadi. Ifloslik o‘tkazuvchi yuza sifatida kolosnikli va to‘rli to‘siqlar ishlatiladi. Qayta ishlanayotgan paxta xom-ashyosining naviga bog‘liq holda variatorning richagi yordamida mashinaning ishlab chiqarish unumdorligi aniqlanadi. 1-3 navli paxta xom-ashyosi uchun 6000 kg/soat, 4-navli va past navlilar uchun esa 4500 kg/soatga to‘g‘ri keladi.



1-rasm. SCH-02 mayda ifloslikdardan tozalagich sxemasi

1-texnologik kollektor, 2-qoziqli-plankali baraban, 3-uzatuvchi baraban, 4-chiqaruvchi baraban, 5-kolosnik panjara, 6-vakuum-klapan, 7-qoziqli-plankali baraban.

Tadqiqotchi F.Sirojiddinov [4] ilmiy ishida qoziqchali-plankali barabanni ishchi zonasini 210^0 gacha (2-(b) rasm) o‘zgartirib zigzag usulda tozalaydigan yangi uskuna konstruksiyasini taklif etgan.

Paxtaning tuzilishi xususiyatlarini qayta ishlash ob’ekti sifatida A.P.Pappiev [5] va A.E. Lugachevlap [6] tomonidan tadqiq etilgan. Ular tomonidan paxtaning erkin uyumdagi miqdori, g‘ovakligi, ekvivalent diametri, bir chigitli paxta bo‘lakchalari orasidagi bog‘lanishi, tabiiy uyulish burchagi, siljishga qarshiligi, yonlama bosim, titilganlik darajasi va boshqa xusussiyatlari tadqiq etilgan.



a) b)

2-rasm. a) Mavjud hamda b) taklif etilgan uskunaning asosiy ishchi qismlari sxemasi

Paxtani mayda iflos aralashmalardan tozalovchi mashinalaridagi asosiy kamchiliklardan biri, bu po‘latdan yasalgan qoziqchali-plankali barabanlarning xomashyoga takroriy ta’siri natijasida paxtaning sifat ko‘rsatkichlari yomonlashmoqda.

I.O.Radjabov [7] ilmiy ishida 3–rasmda tolali materiallarni iflos aralashmalardan tozalovchi mashina qoziqli barabanining sxemasi keltirilgan.



3 – rasm. Tolali material tozalagichining qoziqli barabani sxemasi

1-baraban, 2-qoziqchalar, 3-yangi shakldagi qoziqchalar.

Bizga ma’lum bo‘lgan mayda ifloslikdardan tozalash uchun OXB-10 rusumidagi barabanli tozalash uskunasi mavjud. [8] Yuqorida keltirilgan konstruksiyadagi chigitli paxtani mayda ifloslikdardan tozalagichlarning asosiy kamchiliklari shundan iboratki, tozalash samaradorligi past, baraban qoziqchalari

chigitli paxtadagi tolalarni shikastlantiradi. Taklif etilayotgan yangi konstruktsiyadagi qoziqchali barabanning vazifasi quyidagilardan iborat: tozalash samaradorligini oshirish, mashinaning ishonchliligini oshirish va chigitli paxta tarkibidagi tolaning shikastlanishini kamaytirish. Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, paxtani mayda iflosliklardan tozalash uskunasini tozalash samaradorligini oshirish va paxta tarkibidagi chigit va tolani mexanik shikastlanishini kamaytirish maqsadida qoziqli baraban konstruksiyasini takomillashtirish bo‘yicha texnik yechim ishlab chiqish zarurdir. Texnik yechimning mohiyati quyidagi 4-rasmda ko‘rsatilgan.



4-rasm. Taklif etilayotgan qoziqli baraban sxemasi. 1-qoziqlar, 2-rezinali qistirma

4-rasmda ko‘rsatilgan texnik yechimga ko‘ra, paxta tozalagichning qoziqli barabanida tekis uchli qoziqchalar o‘rniga yoysimon holga keltirilib tayyorlangan qoziqlar 1 qo‘llanilib, bu qoziqlar tozalanayotgan paxtani ichiga yumshoq kirib, undan oson chiqib ketadi. Tozalanayotgan paxtaga zarba qoziqlarning yoysimon uchlari tomonidan beriladi va natijada paxta tarkibidagi chigit va tolalarni shikastlanishini kamayishi nazarda tutulgan. Qoziqli baraban bo‘g‘inlarida rezina qistirma 2 o‘rnatilishi ko‘zda tutilgan bo‘lib, rezinali qistirmalarning to‘rli yuza

bilan orasidagi masofa 1÷2 mm ni tashkil qilishi to‘rli yuzada paxta bo‘lakchalari va iflosliklar bilan tiqilishini oldini oladi va natijada tozalash samaradorligini oshishi kutilmoqda. Bundan tashqari qoziqli barabanlar tezligi jufti bilan ketma-ket oshirilib borishini ham o‘rganish rejalashtirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Makhsudjon Ochilov and Oybek Kholmuratov Experimental Determination of Cotton Raw Materials Separation in Improved Delivery Structure -INTERAGROMASH 2022: XV International Scientific Conference “INTERAGROMASH 2022” pp 2119–2125.
2. X.Ulug‘muradov, I.Abbazov, R.Muradov. Paxta tarkibidan mayda iflosliklarni ajratib oluvchi yangi uskuna konstruksiyasini tahlili. Texnika fanlari jurnali 2020. -B.60-66.
3. Paxtasanoat ilmiy markazi AJ. Paxtani dastlabki qayta ishlash. O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2019.
4. F.N.Sirojiddinov Paxta xom ashyosini tozalash texnologik jarayonlarini modellashtirish asosida takomillashtirish.Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertasiyasi. Toshkent 2020 yil.

УМУМТАЪЛИМ МАКТАБЛАРДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ДАСТУРЛАШ ТИЛЛАРИДАН ОЛГАН БИЛИМ ВА КЎНИКМАЛАРИНИ АНИҚЛАШ УЧУН YANDEX.CONTEST ПЛАТФОРМАСИНИНГ ИМКОНИЯТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИБ ТАНЛОВ ЯРАТИШ ВА ЎТКАЗИШ

Алламуратова Венера Зиуатдиновна
Қорақалпоғистон Республикаси Мактабгача ва мактаб таълим вазирлиги хузуридаги Республика таълим маркази

Таълим сифатини ривожлантиришга бевосита таъсир кўрсатадиган ҳар қандай факторни яъни, рақамли технологияларга асосланган замановий таълим муҳитини яратиш ва дастурлаш бўйича ўқувчиларнинг қобилиятлари, мотивлари, билим ва кўникмаларини оширишда таълим платформадан фойдаланиши мумкиндир.

Таълим платформаси, аслида ўқув материалларини жойлаштирадиган ва ўқитувчи ва ўқувчилар ўртасида алоқа ўрнатадиган сайтдир. Бу ҳам алоқа канали, ҳам маълумотлар омбори, ҳам ўрганиш воситаси, балки олинган билимларни синаб кўриш усулидир.[1] Шундай платформаларнинг бири

Yandex.Contest - бу масалаларини дастурлаш учун мўлжалланган, шахсий ва жамоавий танловларда қатнашиш имконини берадиган ва архив файлларда сақланган масалаларни ечиб ўз билимларини синаб кўриш имкониятига эга платформа бўлиб хисобланади. Бу платформада ўқувчилар дунёнинг исталган жойидан туриб масалаларни бажаришлари мумкин. Бунда ечимлар автоматик равишда текширилади ва масалалар муаллифлар томонидан тизимга киритилади. Ўқувчилар ўз ечимларини тест тизимига юборадилар ва ўз натижасини кўриб утириш имкониятига эга бўлади [4]

Танлов яратиш

1. Танлов бўлимига ўтинг ва "Танлов яратиш" тугмасини босинг.

2. Танловга ном беринг ва яратишни босинг. Танловнинг номи интерфейсида кўрсатилади.

Одатий танлов стандарт созламалар тўплами билан яратилган бўлиб, уларни ўзгартиршингиз мумкин бўлади.



Танлов яратиш ойнаси

Танлов яратиш

Танлов кўринишида сиз қўшилган ва қўшган вазифалар ҳақида батафсил маълумотни кўришингиз мумкин бўлади. Барча маълумотлар фақат кўриш учун мавжуд бўлади. [3]

Вазифа созламаларига ўтиш учун танловнинг ҳаволасини босиш кифоя: https://contest.yandex.ru/contest/35905/enter

1-мисол А ва В яхлит сонларнинг ийғиндисини ҳисобловчи дастур тузинг. (Бир қаторда икки яхлит А ва В сонларни киритинг (-10^9<=A,B<=10^9). А ва В сонларнин ийғиндисини ҳисобланг.

Ечилиши:

```
a,b=map(int,input().split())
print(a+b)#
```

Вазифалар ойнаси

Вазифани тизимга киритиш ойнаси

Максимал уринишлар

Танлов давомида иштирокчи бир ҳил танловнинг ечимини бир неча марта тақдим этиши мумкинлигини кўрсатиш керак. Агар баъзи тизим қарорлари фойдаланувчи уринишларини истеъмол қилмаслигини истасангиз, уларни “Ҳукмларни истисно қилиш” майдонига киритиш мумкин бўлади. [4]

Уринишлар ойнаси

2-мисол. Уч хонали N натурал сон берилган. Унинг рақамларин тескари тартибда ёзишдан фойда бўлган рақамни аниқловчи дастур тузинг. N натурал рақамни киритинг (100<=N<=999) киритилган натурал рақамни тескари тартибда чиқаринг.

Ечилиши:

```
n=int(input())
c1=n//100
c2=n%100//10
c3=n%10
print(c3*100+c2*10+c1)
```

Хулоса

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, ахборот технология нуқтаи назаридан рақамли платформа махсус тоифадаги автоматлаштирилган ахборот тизимдир. Рақамли технологиялар ва платформаларни таълимда қўллаш ўқувчиларнинг қизиқишларини оширишга ва ижобий мотивациясин шакллантиришга ёрдам бериши ва ўқув жараёнини режалаштириш ва ташкил этиш учун қулай ва самарали восита бўлиб хизмат қилиши, унда хар бир ўқувчи вақтдан унумли фойдаланиши ва таълим мақсадларига еришиш натижалари хақида тезкор фикир-мулохазаларини олиши мумкиндир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Шаронин Ю.В. Цифровые технологии в высшем и профессиональном образовании: от личностно ориентированной Smart-дидактики к блокчейну в целевой подготовке специалистов // Современные проблемы науки и образования. – 2019. – №1.
2. Агибова И.М. Условия и факторы организации эффективной самостоятельной работы студентов с использованием информационных и коммуникационных технологий.
3. https://yandex.ru/support/contest-management/contest/main.html
4. https://yandex.ru/support/contest-management/contest/main.html

ADOBE PDF KUTUBXONASI IMKONIYATLARI

Rashid Turgunbaev
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Adobe PDF kutubxonasi dasturiy vositalarni yaratish interfeysini taqdim etuvchi obyektga ixtisoslashtirilgan amallar to’plami bo’lib amaliy dasturlar uchun sahifalarni tavsiflash tili yordamida PostScript yoki PDF fayllarni yaratish imkoniyatini beradi.

Adobe tomonidan PDF fayllarini yaratish va ularga xizmat ko’rsatish uchun dasturiy protseduralar kutubxonasi yaratilgan. Mazkur kutubxona dasturchilarga dastur bajarilganidan so’ng distillash jarayonidan o’tmasdan to’g’ridan to’g’ri PDF ko’rinishidagi chiquvchi ma’lumotlarni yaratuvchi dasturlani yaratish imkoniyatini beradi. Adobe PDF kutubxonasi yordamida PDF yoki PostScript

fayllarini yaratish mumkin. Adobe PDF kutubxonasi yordamida yaratilgan PDF faylining ko'rinishi original dastur tomonidan yaratilgan fayldan farq qilmaydi. Bundan tashqari sahifaning PostScrip ko'rinishi ushbu sahifani PDF ko'rinishida yaratilganidan farq qilmaydi. Kutubxona aniq belgilangan dasturiy vositalaning yaratish interfeysiga ega bo'lib turli dasturlash muhitlarida to'g'ridan to'g'ri qo'llanilishi mumkin.

PDF fayllarini yaratishning asosan uchta usullari mavjud:

1. Distillash
2. O'girish
3. Chiqish mudullari yoki emitterlar

Adobe PDF kutubxonasi foydalanuvchining dasturi ichida asl Adobe PDF faylini yaratish imkonini beruvchi to'rtinchi usulni taklif qiladi. Adobe Acrobat Distiller va Adobe Normalizer tomonidan yaratilgan fayllar singari kutubxona yordamida yaratilgan fayllar to'liq funksiyali bo'lib barcha xususiyatlarni qo'llab quvvatlash imkoniyatiga ega. Xususiy modul ko'rinishidagi PDF generatsiya jarayoni dastur doirasida amalga oshadi va keyingi qo'shimcha amallarni talab etmaydi. Kutubxona Adobe va Datalogics tomonidan boshqariladi va PDF standartlari bilan uyg'unlashtirilib boriladi. Bundan tashqari kutubxona yordamida mavjud PDF hujjatlarini o'qish, hujjat qismlarini ekstraksiya qilish yoki o'zgartirish mumkin. Hujjatlarni birlashtirish, imtiyozlarni boshqarish, siqilmagan hujjatlarni siqish yoki linearizatsiyalash hamda mavjud hujjatni PostScript ko'rinishiga o'girish uchun zarur bo'lgan amallar kutubxonada mavjud.

Adobe PDF kutubxonasi turli sohalar uchun PostScript va PDF hujjatlarini yaratishning foydali vositasi xisoblanadi. PDF hujjatlari kompozitsiya vaqtida yoki eski chop etish oqimlarini o'zgartirish orqali yaratilishi mumkin. Bu o'z navbatida foydalanuvchilarga PostScript yoki PDF hujjatlarini ilova yordamida yaratish yoki oldin yaratilgan chiqarish kanalini olib PDF ko'rinishiga o'zgartirish imkoniyatini yaratadi.

Adobe PDF kutubxonasi yordamida sodda PDF hujjatini yaratish uchun quyidagi amallarni bajarish kerak bo'ladi:

1. Ilovaga xos bo'lgan shrift uchun xotira ajratiladi va uning joyi belgilanadi
2. Kutubxona ishga tushiriladi
3. Hujjat yaratiladi
4. Sahifa uchun kontent obyekti yaratiladi
5. Matn yaratiladi
6. Matn sahifaga qo'yiladi
7. Matn elementi qo'yib yuboriladi
8. Sahifaga boshqa PDF hujjatini grafik sifatida qo'shish
9. Sahifaga rasm qo'shish
10. Sahifani hujjatga qo'shish
11. Sahifa uchun kontent obyekti qo'yib yuboriladi
12. Zaruratga qarab yuqoridagi amallar qaytariladi
13. Hujjat chiqarish kanali orqali o'tkaziladi
14. Hujjat elementi qo'yib yuboriladi
15. Kutubxona to'xtatiladi
16. Band qilingan xotira bo'shatiladi

Kutubxona hujjatning tarkibiy qismi sifatida belgilangan obyektning holatini aks ettiruvchi PDF yoki PostScript formatidagi sahifalar to'plamini yaratishi mimkin. Bitta hujjat linearizatsiyalashgan PDF, normal PDF va PostScript kabi turli formatlarda chiqarilishi mumkin. Kutubxona nafaqat PDF va PostScript hujjatlarini yaratish balki sahifalarni qayta tartiblashsiz qayta tashkil etish va tartiblash imkoniyatini ham beradi.

Adobe PDF kutubxonasi bilan ishlovchi dasturlarida ko'p qo'llaniladigan ob'yektlarga quyidagilar kiradi:

- hujjat obyekti hujjatni kirish ma'lumoti sifatida yaratadi yoki o'qib oladi va chiqish ma'lumoti sifatida PDF yoki PostScript ko'rinishida yozadi;
- sahifa obyekti bitta sahifani bildiradi;

- konteyner obyekti tarkibiy guruhlash imkoniyatini beradi;

- grafik obyektlari sahifada aks ettiriluvchi obyektlarni bildiradi (matn, chiziqlar, ranglar va rasmlar);

- yo'l obyekti ixtiyoriy chiziq chizish imkoniyatini beradi;

- rasm obyekti grafik ma'lumotlarni aks ettiradi;

- forma obyekti sahifada joylashtirish va ixtiyoriy o'zgartirish mumkin bo'lgan grafik operatorlar to'plami;

- xatcho'p obyekti mundarija vazifasini bajarishi mumkin bolgan element;

- ketma-ketlik obyekti hujjat ichida qo'shni bo'lmagan elementlarni birlashtirish imkonini beradi;

- shrift obyekti matnni tasvirlash uchun kerak bo'lgan shrift va kodirovkani belgilaydi;

- eskiz obyekti sahifaning kichik ko'rinishi aks ettiradi.

Adobe PDF kutubxonasining interfeyslari quyidagi amallarni bajarish uchun xizmat qiladi:

- ish interfeysi kutubxona uchun ish maydonini belgilash, yaratish va tugatish amallarini belgilaydi;

- hujjat interfeysi hujjat fayli, ketma-ketlik, xatcho'p, sahifa rejimi va hujjat ma'lumotlari kabi xususiyatlarni o'z ichiga oluvchi amallarni belgilaydi;

- sahifa interfeysi sahifalarni yaratish, ularga murojaat qilish va o'chirish amallarini belgilaydi;

- grafik interfeysi matn, chiziq, fon va rasmlarni yaratish va boshqarish amallarini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Padova, T. (2008). Adobe acrobat 9 PDF bible (Vol. 536). John Wiley & Sons.
2. Van der Knijff, J. (2009). Adobe portable document format. Inventory of long-term preservation risks, v0, 2, 20-56.
3. Turgunbaev, Rashid. (2022). Портатив ҳужжат форматида ҳужжат тузилиши.
4. Turgunbaev, Rashid. (2022). Портатив ҳужжат форматида объектлар ва уларнинг хусусиятлари.

МЕТОДЫ ЗАПОЛНЕНИЯ ДАННЫХ С ПОДБОРОМ

Хужакулов Т.А., Гаипназаров Р.Т., Тошпулатов Ж., Абдуллаев М, Маматкулов М
ТАТУ

Реализованным в большом числе алгоритмов, является подход с заполнением пропусков. Наряду с очевидными преимуществами данного подхода ему присущи недостатки: «Опасность этого подхода в том, что он не позволяет отличать ситуации, где задача не очень трудна и может быть корректно решена таким способом, от ситуаций, где обычные оценки по реальным и подставленным данным сильно смещены».

Выделяют следующие два принципиальных недостатка данного подхода.

1. Как правило, параметры для алгоритма заполнения пропусков вычисляются по присутствующим данным, что вносит зависимость между наблюдениями. Конечно, такой искусственной зависимости не возникает, если проводится заполнение константой или случайными значениями, не зависящими от присутствующих наблюдений в выборке, или методом подстановки без подбора. Но на практике эти методы представляют малую ценность. Зависимости можно также избежать, разделяя исходную выборку на две под выборки и вычисляя подстановки (например, средне выборочные значения) для анализируемой под выборки по значениям наблюдений во второй под выборке. При таком подходе приходится жертвовать частью информации, чтобы заполнить пропущенные значения.

2. Распределение данных после заполнения будет отличаться от истинного, даже если пренебречь зависимостью, указанной выше. Этот факт особенно нагляден для простых методов заполнения (средне выборочных, по регрессии и т.п.). Различные варианты данных методов заполнения приведут к смеси истинного и вырожденных распределений с вырождением на гиперплоскостях, на которых располагаются предсказываемые значения. Отметим, что анализ подобных полных данных стандартными методами

неправомерен и приводит к таким недостаткам, как несостоятельность и смещенность оценок параметров. Однако методы данной группы широко применяются. Приведем особенности наиболее известных методов глобального заполнения (то есть заполнения с использованием данных всей выборки). Заполнение средними (средним по всей выборке или средними по группам) - применение имеет смысл только в случае следования данных условию MAR, данная группа методов легко реализуема; недостатки - искажение распределения данных, уменьшение дисперсии.

Методы заполнения с подбором - подобны методам заполнения средними, легко реализуемы, кроме того, при применении данных методов больше разброс дисперсии предсказанных значений пропусков, не искажается распределение. Недостаток - выявление распределения обрабатываемой генеральной совокупности данных по полученной выборке комплектных данных. Заполнение по регрессии. В основу данной группы методов положены хорошо известные алгоритмы регрессионного анализа. Из условий применения данного метода можно выделить требование о следовании данных условию MAR (хотя для частных случаев возможно применение более слабых требований) и требования, относящиеся к выполнению предпосылок регрессионного анализа. Недостатки подобных методов очевидны: качество предсказания (восстановления пропусков) напрямую зависит от успешного выбора взятой за основу регрессионной модели. Метод сплайн-интерполяции - обоснованный математически метод интерполяции, показывающий хорошие результаты. Для успешного применения необходимо, чтобы данные следовали условию MAR. Недостатки метода следуют из самой его идеи. Например, в случае восстановления группы пропусков, следующих подряд друг за другом, результат аппроксимации сплайном данной группы не всегда может дать оценки, приближающиеся с достаточной точностью к значениям, которые могли бы быть на месте пропусков. Методы многократного заполнения.

Основное их преимущество в том, что они преодолевают недостаток методов однократного заполнения в смысле большего разброса дисперсии оценки; посылки применимости данного метода полностью определяются используемыми методами формирования, множества вариантов восстановления пропуска.

МП-оценивание (ЕМ-алгоритм) - относится к категории методов моделирования. Особенность данных методов - построение модели порождения пропусков с последующим получением выводов на основании функции правдоподобия, построенной при условии справедливости данной модели, с оцениванием параметров методами типа максимального правдоподобия. Отметим, что если другие методы восстановления пропусков требуют, чтобы данные отвечали условию MAR (или MCAR как более жесткому), то для данных методов возможно построение моделей, учитывающих конкретную специфику области, как следствие, возможна постановка более слабых условий к данным.

Недостаток - необходимость построения модели порождения пропусков. Использование методов факторного анализа. Особенности метода: отсутствие требования априорного заполнения пропусков, необходимость в предварительной нормировке данных, наличие требований факторного анализа. В случае использования нелинейных моделей данных метод имеет очевидное преимущество по сравнению с регрессионными методами. В связи с большим количеством шагов алгоритма данному методу присуща некоторая трудоемкость реализации.

Использование методов кластерного анализа. Особенность метода - его применение не опирается на какую-либо вероятностную модель, но при этом оценить его свойства в статистических терминах не представляется возможным. Однако данный метод обладает существенным достоинством, а именно, он позволяет указать предпочтительный порядок восстановления

данных и выявить случаи, когда пропуски не могут быть восстановлены по имеющимся данным.

Литература

1. Т.А. Хужакулов, Бурева М, Турсуналиев Ж. Очистка сточных вод промышленных предприятий моделированием полианилиновых сорбционных материалов. “Colloquium-journal” № 3 (55). Warszawa, Polska. 2020. – P. 113-117
2. С. Осуга, “Обработка знаний”, М. “Мир”. 2020 г.
3. С. Осуга, “Приобретение знаний”, М. “Мир”. 2020 г.
4. Дж. Хаббард, Автоматизированное проектирование баз данных. М. “Мир”.
5. В.М. Лачинов, А.О. Поляков, Собственные теории информатики. Избранные лекции по обоснованию информодинамики. СПб: Издательство СПбГТУ.
6. Г. Хансен., Д. Хансен. Базы данных. Разработка и управление. Москва, ЗАО “Издательство БИНОМ”.

KIYIMLARNI 3D MAX DASTURLARIDA DIZAYN LOYIHALASHNI AFZALLIKLARI

G‘ofurova Sojida Sayfullayevna
Jizzax politexnika instituti

Kiyim dizaynining shakli va badiiy-konstruktiv yechim xususiyatlari eskiz, texnik chizma, og'zaki tavsiflash shaklida taqdim etilishi mumkin. Kiyimlarning eskiz, texnik chizmalarining planar va hajmli modellashtirishning o‘zaro bog‘liqlik jihatlari va ustuvorlik muammosi zamonaviylik bilan bir qatorda tarixiy jihatidan ham dolzarbligini yo‘qotmaydi. Ma'lumki, kostyum shakllarini yaratishning dastlabki usullari gavdaga matoni qadash (MULYAJ) usullari bilan bog'liq, ya'ni inson gavdasi yoki maneken shaklida berilgan asl yuzada murakkab fazoviy dizayn konfiguratsiyasini xajmli yaratish usuli orqali amalga oshirilgan. Shuningdek tarixiy faktlar shuni ko'rsatadiki, qadimgi tikuvchilarda ma'lum bir tarixiy davr kostyumini bichish uchun qoliplar ko'rinishidagi tayyorlangan andazalari mavjud bo‘lgan.

Shundan kelib chiqib, biz kostyumning uch o‘lchovli shaklini yaratishda ikkita muqobil yondashuv planar va uch o‘lchovli dasturning birgalikda qo‘llanilishi haqidagi faktni aytishimiz mumkin. Chunki Mulyaj usulining atomatlashtirilgan ko‘rinish bu 3d dasturidir.

So'nggi yillarda Respublikamizda dizayn yo‘nalishi institutlari uch o‘lchamli texnologiyasi bilan ishlash bo‘yicha o'z tajribalarini oshirdi. Chunki kostyum shakllarini uch o‘lchovli modellashtirishning bir qator afzalliklarga ega bo‘lib axborot texnologiyalarining hayotga jadal kirib borishi unga bo‘lgan talabni oshishiga sabab bo‘ldi. Unda ishlab chiqilgan mahsulotning badiiy va konstruktiv echimlarini to‘g‘ridan to‘g‘ri aniqlash, o‘zgartirish, shuningdek to‘qimachilik materiallarining egiluvchanligi va tuzilishi bir xil emasligi bilan bog‘liq xususiyatlarini hisobga olishga imkoni mavjud. Ko'plab taniqli kostyum dizaynerlar tomonidan qo'lda loyihalash usullaridan foydalanib, kompozitsion yechimning mukammalligi va uyg'unligi, shaklning plastikligi bilan kishini hayratga soladigan eksklyuziv kiyim modellarini yaratilgan. Bu usul murakkab bo‘lib, uzoq uzoq vaqt va dizaynerdan maxsus malaka talab qiladi. Biroq, kiyim-kechakni dizayn loyihalash sohasidagi mutaxassislar ko‘pincha kolleksiyaning eksklyuziv va original modellarini yaratish jarayonida ushbu usuldan foydalanadilar. Kiyim konstruksiyalarini tekislikda modellashtirish jarayoni asl ko‘rinishni o'zgartirish bilan bog'liq bo'lib, uning eng keng tarqalgan usullari bu dizayn holatiga keltirish uchun dastlabki konstruktiv ayrim chiziqlarni cho‘zish, siljitish, burishdan iborat. Konstruksiyadan asl dizayn namunasini yaratish jarayonining bunday usulining algoritmlari yetarlicha ishlab chiqilgan va kiyimni qo'lda tekislikda modellashtirish amaliyotida sinovdan o'tgan. Biroq bunda dizayn loyihalash ko‘rsatgichlarini tanlashda dizayner turli xil xususiyatlarga ega bo‘lgan to‘qimachilik materiallaridan kiyimning turli shakllari bilan ishlashning professional mahoratiga ega bo‘lishi kerak.

Bugungi kunga kelib, kompyuter texnologiyalari bozorida kiyim-kechak konstruksiyasini tekislikda qurishning turli tamoyillarini amalga oshirish, yangi

kiyim modellari uchun loyiha hujjatlarini ishlab chiqish va ularni keyinchalik o'zgartirishga mo‘ljallangan ko'plab (LAT kiyimlari) kompyuter loyihalash tizimlari taqdim etilmoqda. Kiyim dizaynni avtomatlashtirish ko‘proq, loyihalashtirilgan mahsulotlarning ma’lum bir sifatini ta’minlay olmaydigan dizayn operatsiyalarini bajarishning an’anaviy shakllari va usullarini rad etishni o‘z ichiga oladi. Ko'p jihatdan, bu vazifalar uch o‘lchamli LAT tizimlarida yuqori darajada hal qilinadi. 3D kompyuter dizayni texnologiyalarining rivojlanishi ob’ektni virtual uch o‘lchovli muhitga o‘tkazish va monitor ekranida modelning fazoviy tasvirini yaratish, uning tafsilotlarini manikenda ko‘rish jarayonlarini maxsus vositalar yordamida osonlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, kiyimning uch o'lchovli tasviri bilan ishlash asosiy jarayonga aylanadi va uch o'lchamli shaklni hosil qilish dizaynerning bevosita ishtirokini talab qilmaydi. Dizayn jarayoniga kompleks yondashuvni amalga oshirish sharti bilan muhandislik, ergonomik va badiiy dizayn elementlarini birlashtirish mumkin. 3D dasturlarida ishlash mahsulotning birlamchi ko‘rinishi butun sirtini, shuningdek uning qismlarini vizual idrok etish, modelning bo'linish chiziqlari va dekorativ va konstruktiv elementlarini ishlab chiqish imkoniyati bilan dizayn ishlarini amalga oshirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadi. Buning natijasida esa proyeksiyalangan sirtni qog'ozda qayta tasvirlashga xojat qolmaydi va bu chizmalarni ishlab chiqarishda tushunish oson bo‘ladi. Kiyimning uch o'lchovli kompyuter dizaynining yaratish usuli kiyimning konstruktiv yechimga ega bo‘lgan geometrik shaklini va bo'linish chiziqlarining fazoviy holatini aniq belgilashni ta'minlashi kerak.

Hozirgi vaqtda murakkab ob'ektlarni kompyuterda modellashtirish dasturlari yuqori darajasida rivojlangan, bu bizga ilmiy tadqiqot maqsadidan kelib chiqib amaliy muammolarni amalga oshirish uchun mavjud paketlarni belgilab, moslarini to‘g‘ri tanlash imkonini beradi. Libosni dizayn loyihalash jarayoni tanlangan mavjud paketlar yoridamida libosdagi o'zgarishlar ketma-ketligi asosida ifodalanadi.

Dizayner g`oyasi → 2D oyna tekisligida bichilmalarni hosil qilish va tikish → 3d oynada kiyim proektsiyalarini hosil qilish → yaratilgan modelni sinab ko`rish va baholash.

Ko'rib chiqilgan yondashuvning afzalligi shundaki, u yaratilgan dizayn yechimi haqida eng to'liq g'oyani yetkazish imkonini beradi, libosni estetik va ergonomik talablarga mosligini uch o'lchovli proektsiyalarda tasvirlash sinab ko'rish va skanerlashni oson amalga oshirish va dizayn vaqtini qisqartirish imkonini beradi.

Adabiyotlar

1. Фаритова Л.Х. Исследование и разработка метода трехмерного проектирования одежды//Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. - 2016. - № 08, часть I – С.86-88.
2. Ineke Siersema. The influence of 3D simulation technology on the fashion design process and the consequences for higher education Conference: Seoul Digital Fashion Conference 2015. Pages 1-9.

TAQSIMLANGAN BULUTLI MALUMOTLARNING MARKAZI ARXITEKTURASI VA USULLARNING TAXLILI

Maxmudov Isroil Abdullayevich, Komilov Davron Rashidjon o'g'li
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filiali Telekommunikatsiya kafedrasi

Qodirov Murodjon
Andijon axborot texnologiyalari texnikum maxsus fan o`qituvchisi:

"Bulut" so'zi axborot texnologiyalar tarafidan ishlatilganda xizmatlarni internet orqali taqdim etuvchi texnologiya, infratuzilma tushuniladi. Ma'lumotni bir kompyuterdan boshqa joyda, boshqa mamlakatda joylashgan kompyuterga yuborilganda, u ma'lumot etib borishi uchun juda ko'p tarmoqlarni bosib o'tadi. Bunda ma'lumot yuboruvchining kompyuteridan chiqib uning provayderi tomon, provayderdan uning tarmoqlari bo'ylab boshqa tarmoqlardan o'tib ulkan internet tarmog'i bo'ylab yo'l bosib o'tadi va mo'ljallangan kompyuterga etib boradi.

Bulut infratuzilmasi bir-biri bilan ulangan juda ko'p, har xil tarmoqlar qurilmalaridan, kommututorlar, marshrutizatorlar, serverlar va boshqa har xil

qurilmalardan tashkil topgan bo'ladi. Mana shu butun boshli infratuzilmani umumiylashtirib bulut deb ataladi. Bulutdan faqatgina ma'lumot yuborish uchun foydalanilmaydi, balki ma'lumot almashinuvi bulutdan foydalanish imkoniyatlaridan biri xolos. Bundan tashqari bulutda, ya'ni infratuzilmada joylashgan serverlarda ishlovchi maxsus dasturlar bo'ladi. Ular bulutda joylashgan dastur xizmatlarini taklif etadi. Bulutli servislarning eng keng tarqalgani bu Dropbox – fayllarni saqlash xizmati, GoogleDocs – ofis ilovalari, SalesForce – CRM hamda ERP tizimlaridir. Bulutli servislardan foydalanish uchun ko'p hollarda foydalanuvchida internet tarmog'i va brauzer bo'lsa bas, ba'zida esa foydalanuvchi qurilmasiga ushbu servisni ishlatishda qulay bo'lishi uchun maxsus dastur ilovalar o'rnatiladi. Masalan, Word, Excel dasturlarida qilinadigan ishlarni GoogleDocs orqali bemalol bajarish mumkin, buning uchun kompyuterda ofis ilovalari bo'lishi shart emas.

Bulut infrastrukturasi taqdim etadigan xizmatlardan yana biri bu ma'lumotni saqlash xizmati. Bunday xizmatlarga Dropbox, Microsoftning Skydrive va Google drive xizmatlari yorqin misol bo'la oladi. Bu xizmatlardan tashqari masalan biron bir murakkab jarayonni bajarish uchun kompyuterning resurslari kamlik qilishi mumkin. Bunday holatda bulutdan foydalanish mumkin. Murakkab jarayonlar bulut resurslaridan foydalangan holatda bulutda bajarilish imkoniyati ham mavjud.

Bugungi kunda, bulut xizmatlarini taqdim etish bo'yicha dunyo etakchilari, axborot-kommunikatsiya sohasidagi kabi Google (GoogleDrive), Yandex (Yandex disk), Microsoft (OneDrive), Apple (iCloud), DropboxInc, Cisco, Oracle va boshqalardir.

Bizning respublikada ham asosiy e'tibor bulutli hostingni rivojlantirishga qaratilgan, misol uchun UZDisk ni keltirish mumkin. UZDisk - bu o'zimizning Dropbox analogimizdir. UZDisk TAS-IX xududida joylashgan fayllarni saqlash bulutli xizmati hisoblanadi. Bu xizmat uchun trafik butunlay bepul ekanligi muhim faktordir. Xuddi shunga o'xshash TAS-IX xududida joylashgan bulutli

xizmatlardan yana biri bu filecloud.uz. Bu bulutli xizmat turida ma’lumotlarni saqlash hamda office dasturlarida ishlash imkoniyati ham mavjud.

Shuningdek, ushbu xizmat turlarini ma’lum vaqt davomida bu turdagi xizmatlarni ko’rsatadigan firmalar ham mavjud; Ulardan VDS xosting, VPS xosting, virtual xosting va bulutli xosting kabi xizmatlarni taqdim etuvchi “AtiveCloud” TM, hamda, VDS xosting, VPS xosting, virtual xosting, bulutli xosting va tsollotsation xizmatlarini taqdim kiluvchi “SHARKTELECOM” MChJ .

Bulutli xizmatlar va platformalarning bozordagi ulushi muntazam ravishda o’sib bormoqda, chunki bulut foydalanuvchilar va tashkilotlar uchun bir qator afzalliklarga ega bo’lib, ular orasida birinchi navbatda quyidagilarni sanash mumkin: ma’lumotlarni qayta ishlashda tizimda mavjud barcha resurslardan eng optimalini tanlaydi; ma’lumotlarni izlash va qayta ishlash tezligi yuqori, chunki hamma narsa bitta platformada joylashgan; Bulut tizimlarida protsessorlar soni, operativ xotira hajmi va disk maydoni nazariy jixatdan cheksizdir; foydalanuvchilarga dasturiy ta’minotni o’rnatish va sozlash kerak emas; bulut xizmatlariga kirish uchun oddiy veb brauzer etarli; tizimni tarqatish vaqtini hisobga olgan holda, tashkilotlarga texnik yordam ko’rsatish va tanlangan tizimlarni modernizatsiya qilish harajatlari, shuningdek, yuqori tezlikda amalga oshirish; treningga bo’lgan ehtiyoj sezilarli - foydalanuvchilarning ko’pchiligi allaqachon veb-brauzer va Internet xizmatlaridan xizmat sinflari sifatida foydalanishni bilishadi; odatda bulutli tizimlar yuqori malakali mutaxassislar tomonidan ta’minlanadi, bu esa dasturiy ta’minotni saqlashning yuqori sifatini ta’minlaydi. Va eng muhimi, provayder qo’lida mavjud bo’lgan barcha ma’lumotlarni g’arazli maqsadlarda o’chirib tashlab bo’lmaydi.

Yuqoridagilardan ma’lumki, bulutli hisoblash texnologiyasini qo’llagan holda hisoblash tizimlarini o’rganish ilmiy va texnologik faoliyatni rivojlantirish va bulutga yaqinlashuvida katta ahamiyat kasb etadi. Yuqorida aytilgan barcha

ma’lumotlardan kelib chiqib, ushbu yo’nalish eng dolzarb yo’nalishlardan biri hisoblanadi, demak, bulutli texnologiyalarning o’sish sur’ati faqatgina oshadi [6].

Bulutli texnologiyalarni yuzaga kelish jarayoni.

Bulutli texnologiyalar - bu model iste’molchiga ATni servis sifatida internet orqali namoyon qiladi. Bulutli hisoblashlarning yuzaga kelishida «virtualizatsiya» texnologiyalarining ahamiyati juda katta hisoblanadi. Birinchi bo’lib 1960 yilda virtualizatsiya texnologiyalari IBM taklif qilingan ammo qimmat meynfreym kompyuter texnologiyalarini arzon x86 protsesorli kompyuter serverlariga o’tgandan so’ng virtualizatsiya termini ancha vaqtgacha esdan chiqarildi. 2000 yildan boshlanib holat o’zgara boshladi, shu yillarga qadar WMware x86 razryadli virtualizatsiyada monopoliyani qo’lga kiritdi. 2005 yilda WMware kompaniyasi virtual mashinalarni DTdan foydalangan holda bepul tadbiq qildi. 2006 yilda Microsoft kompaniyasi «Microsoft virtual PC» Windows versiyasini ishga tushirildi…” 2006 yilda Amazon kompaniyasi o’z qurilmalarida virtual serverlarni kengaytirish orqali «Amazon Elastic Compute Cloud» yuzaga keldi buning yana asosiy sabablaridan biri virtual serverlarni boshqa qurilmalarga (iste’molchilarga) ijaraga berish orqali bulutli texnologiyalarni kelib chiqishiga turtki bo’ldi.

Bulut - AT-infratuzilma tashkilotlarining innovatsion modeli (konseptsiya) hisoblanib, u alohida ajratilgan va taqsimlangan konfiguratsiyalangan apparat va tarmoq resurslaridan, dasturiy taminotdan tashkil topgan va ular masofadagi provayderlarni ma’lumotlar markazida yotadi.

Bulutli hisoblash Internetda serverlar, saqlash, ma’lumotlar bazalari va keng ko’lamli dasturiy ta’minot xizmatlariga oson kirish imkonini beradi. Amazon Web Services kabi bulutli xizmatlar platformalari tarmoqqa ulangan uskunalarga ega bo’lib, bunday dasturiy ta’minot xizmatlaridan zarur bo’lgan texnik xizmatni amalga oshirayotganda, Internet resurslaridan zaruriy resurslarni tarqatish va ishlatishda foydalaniladi.

Bulutli hisoblash (inglizcha cloud computing) - ma’lumotlarni taqsimlangan holda hisoblash texnologiyasi bo’lib, bunda kompyuter resurslari foydalanuvchiga internet xizmati tarzida taqdim etiladi.

Bulutli hisoblash tizimlari avvalo mijoz-server tartibida ishlaydi: mijoz tarmoqdagi bir guruh serverlarning resurslari - protsessor vaqti, operativ xotira, disk maydoni, tarmoq kanallari, ixtisoslashgan kontrollerlar, dasturiy ta’minot va hokazolardan foydalanadi. Ammo, bu guruh mijoz uchun yagona virtual server shaklida ko’rinadi. Foydalanuvchi o’z ehtiyojlariga mos ravishda iste’mol qilinayotgan resurslar hajmini o’zgartirib borish imkoniyatiga ega. Masalan, ma’lum bir haq evaziga o’zi egallab turgan disk maydonini kengaytirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bitner V.I. Yangi avlod NGN tarmoqlari: universitetlar uchun darslik / V.I. Bitner, Ts.Ts. Mixaylov. - M .: Ishonch telefoni-Telekom, 2011 yil.
2. Kucheryavy A.E, Tsuprikov A.L. Keyingi avlod aloqa tarmoqlari. – M .: FSUE TsNIIS. 2006 yil, 278 b.
3. Kozyrev D.V. Yuqori ishonchli telekommunikatsiya tizimlarining ehtimollik-vaqtinchalik xususiyatlarini tahlil qilish, Moskva, 2013 y.
4. Vygovskiy L.S. Integratsiyalashgan kompyuter tarmoqlarining ishonchliligini ta’minlash usuli, metodologiyasi va usullari, Sankt-Peterburg, 2011 y.
5. Rayimjonova O. S., Makhmudov I. A., Tillaboyev M. G. Model and Method of Intellectualization of the Processes of Providing Resources and Services of the Multiservice Network //Eurasian Research Bulletin. – 2022. – T. 15. – C. 196-200.
6. U.U. Iskandarov. (2022). The Aspects of Solar and Geothermal Energy Conversion. Eurasian Research Bulletin, 15, 185–189. Retrieved from.
7. O.H. Kuldashov, A.O. Komilov, & M.A. Nosirov. (2022). Development of Simulation Model of Power Installations for power Supply for Agricultural Consumers. Eurasian Research Bulletin, 15, 190–195. Retrieved from.
8. Rayimjonova O. S. Investigation of cluster-type inhomogeneity in semiconductors //American Journal of Applied Science and Technology. – 2022. – T. 2. – №. 06. – C. 94-97.

ANTI-COUNTERFEIT METHOD -GUARANTEE OF YOUR SAFETY

Sh. T. Tursunov
Ass. Prof., PhD (in Technics), Fergana Polytechnic Institute, Faculty of Mechanical Engineering, Mechanical Engineering & Automation Dpt.,

Sh. A. Toshtemirov
Fergana Polytechnic Institute, Faculty of Mechanical Engineering, Mechanical Engineering & Automation Dpt., 1st year student

As you know, the primary market (OEM) sells components intended for the production of cars on the assembly line of the plant, while the secondary market (aftermarket auto parts) is intended for the sale of auto parts in auto shops and car services.

In modern conditions, when the principles of free movement of goods and services are increasingly applied, along with positive aspects, there are also negative phenomena, one of which is an attempt to place counterfeit and counterfeit products on the market.

Counterfeit and falsified products contribute to:

• formation of the shadow sector of the economy;

• discredits the authority of well-known companies;

• undermines consumer confidence in the goods market;

• causes material and moral damage to producers (OEM) and consumers.

In order to prevent counterfeit products from entering the secondary auto parts market, as well as to identify and withdraw products already placed on the market, various ways and methods are used. In [1], the features and applied methods of combating counterfeit products are considered using the example of Avtooyna LLC, the only plant in Central Asia that produces OEM components for the UzAuto Motors assembly line.

Under the threat of this process are entire industries that specialize in the production of high-demand and consumer products. The buyer is misled or "played" on his well-being. Some consumers, who cannot afford to buy brand

name products, simply purchase an inexpensive counterfeit (the main thing is the trademark or trade name).

But the consequences have a negative effect not only on consumers, but also on producers. Manufacturers engaged in counterfeiting provide themselves with better sales of products, while original manufacturers suffer huge losses: not only the volume of income suffers, but also the reputation, as poor quality forms a negative consumer attitude towards the trademark that marks the fake.

Original automotive glass is produced under the OEM mark and meets all the standards of the automaker for which it is produced. Currently, Uzbekistan has standards that regulate the quality of safety automotive glass, such as GMW3136, State standards -GOST 111-2014, GOST 32997-2014, GOST 32565-2013 and O'z DSt 35.43:2011 (UNECE Regulation N 43 "Uniform provisions concerning the approval of safity glazing materials and their on vehicles").

Automotive glass is produced from tested materials and in compliance with the technology, and they are also tested in accordance with the requirements of certifying organizations. In the event of quality problems, it immediately eliminates in order to prevent the ingress of low-quality products to the consumer [2, 3]. The original brand is a specific supplier who works with the manufacturer under a contract.

Non-original glass ARG (Automotive *Replacement* Glass) - an attempt to imitate the original OEM. The cost of such glass is lower, so this option seems preferable for car owners. But it is important to understand that in this case the manufacturer does not obey the strict standards and requirements of auto concerns, which means that it can deviate from the technology and use low-quality cheap raw materials.

In order to conduct an analysis of compliance with quality standards, Avtooyna LLC carried out test purchases of counterfeit products that imitated the original. In the course of the tests carried out in the accredited laboratory of the

enterprise, the following discrepancies were identified in terms of the points of the standards:

Anti-counterfeiting technologies include the use of special means of protecting products from counterfeiting, for example, holograms, watermarks, special reliefs and labels.

In connection with the increasing number of counterfeit product sales, Avtooyna LLC decided to launch a fight against counterfeit products and launched the production of glass with special protective stickers. Each product is assigned a unique verification code.

Fig. 1. Special sticker is glued to the inner side of automotive glass.

The principle of operation of the system is as follows. A special sticker is glued to the safety glass of the car (Fig. 1.). The sticker has two important features - the presence of a variable code for each sticker and the presence of a scratch layer, i.e. an erasable security band that hides this variable code (a unique code is generated by a special program by selecting random numbers). When purchasing protected products in this way, the buyer needs to erase the scratch layer by scraping it off, for example, with a coin, thus gaining access to the secret code. This system is the most reliable for verifying the authenticity of the goods - when the correct code is entered, the buyer receives confirmation. The system does not

require special equipment, special skills and knowledge and has a very high degree of reliability, thanks to which any consumer without special knowledge or programs can verify the authenticity of the purchased product in 2-3 steps.

REFERENCES

1. Sh. T. Tursunov, B. X. Sayfiev “Protection Against Counterfeit Products - An Important Guarantee of Your Safety”. Eurasian Scientific Herald, Volume 8, pp. 181-187, 2022.
2. 2. R. K. Tadjibaev, Sh.T. Tursunov. Research and Elimination of the Causes of Self-Destruction Automotive Rear Windows Glasses. IJARSET Vol. 8, Issue 3 , March 2021, p. 17019-17024
3. 3. R. K. Tadjibaev, A. A. Gaynazarov, and Sh. T. Tursunov. Causes of Formation of Small (Point) Optical Distortions on Windshields and Method for Their Elimination. CAJOTAS, Volume 2, Number 11, pp. 168-177.

SIGNALLAR VA ULARNI QAYTA ISHLASH USULI

Kaxorov Azamat Abdulloyevich
TATU

Yodgorova Dilbara Mustafoyevna
O‘zR FA FTI

Qalandarov Jamil Jalolovich
TATU

Axborot – bu har xil fizik jarayonlar, jismlar, tarixiy va kundalik hodisalar to‘g‘risidagi ma’lumotdir. Axborotni uzatish uchun uni ma’lum bir shaklga keltirish lozim (matn, jadval, grafik, rasm, harakatdagi tasvir va boshqalar). Bunday shakllanish natijasida axborot xabarga aylanadi. Xabarni fazoning muayyan bir nuqtasidan ikkinchi nuqtasiga uzatish uchun biror bir fizik jarayonga yuklashimiz, ya’ni uni signal ko‘rinishiga o‘tkazishimiz mumkin.

Signal deb biror bir fizik jarayonning bir yoki bir nechta parametrini xabarga mos ravishda o‘zgarishiga aytiladi.

Elektr signali deb – elektr jarayonining bir yoki bir nechta parametrini xabarga mos ravishda o‘zgarishiga aytiladi.

Signalga eng katta ta’sir qiluvchi omil shovqin deyiladi va u ham xuddi signalga o‘xshab vaqt bo‘yicha o‘zgaruvchi jarayon. Shovqin hech qanday axborotga ega bo‘lmaydi va signaldagi xabarni o‘zgartirishi mumkin.

Signallarni turlari mavjud. Bular: uzluksiz signal *(1a)*, diskret signal *(1b)*, kvantlangan signal *(1c)*, vaqt va sath bo‘yicha diskret signal *(1d)*.



1-rasm. Signal turlari

Signallar parametrlari.

Har qanday signal ma’lum bir T_s vaqt davomiyligida uzatiladi (2-rasm). Signal T_s vaqt oralig‘ida o‘zining eng kichik oniy qiymati U_{min} bilan eng kata oniy qiymati U_{max} oralig‘ida o‘zgaradi. Signal eng katta qiymati U_{max} ning uning eng kichik qiymati U_{min} ga nisbati, ya’ni $U_{max}/U_{min} = D_s$ signal ***dinamik diapazoni*** deb ataladi. Signal T_s vaqt davomida o‘zining U_{max} qiymatidan U_{min} qiymati oralig‘ida tez va sekin o‘zgaradi. Signalning o‘zgarish tezligi uning spektri kengligi F_s ga bog‘liq, ya’ni keng spektrli signal tor spektrli signalga nisbatan tez o‘zgaradi va aksincha.

Shunday qilib signal asosan uchta ko‘rsatkichi bilan baholanadi:

T_s – signal davomiyligi;

D_s – signal dinamik diapazoni;

F_s – signal spektri kengligi.



2-rasm. Uzluksiz signal.

$$V_s = T_s * D_s * F_s \qquad (1)$$

Signalning asosiy uch ko‘rsatkichini ko‘paytmasi ***signal hajmi*** deb yuritiladi.

Real aloqa kanallarida signallarga xalaqitlar ta’sir qiladi. Bunda xalaqit foydali signalga qo‘shilib xatolik bilan aks ettiradi. Agar xalaqit signal bilan qo‘shilsa, bu aditiv xalaqit bo‘ladi. Bunday xalaqitlarga atmosfera shovqinlari, atmosfera razryadlari, industrial xalaqitlar va boshqa aloqa tizimlarini ishlashidan kelib chiqqan xalaqitlar kiradi. Agar xalaqit va signal matematik ifoda bilan aks ettirilsa, multiplikativ xalaqit bo‘ladi. Bu turdagi xalaqitlar aloqa kanallarining parametrlarini tasodifiy o‘zgarishlaridan hosil bo‘ladi.

Xalaqitlar ikki katta sinfga bo‘linadi:

1. Aditiv xalaqitlar: $Z(t)=S_i(t) + n(t)$ (2)
2. Multiplikativ xalaqit: $Z(t)=S_i(t) * \mu(t)$ (3)

Bunda $\mu(t)$ – multiplikativ xalaqit emas, balki xalaqit ta’sirida foydali signal sathi o‘zgarishini ko‘rsatuvchi koeffitsiyent bo‘lib, xalaqit yo‘q bo‘lganda bu koeffitsiyent birga teng bo‘ladi ($\mu = 1$). Umuman μ = (0:1) oralig‘ida

o‘zgarishi, signal sathining keskin o‘zgarishiga olib kelishi mumkin. Agar μ – foydali signal $S_i(t)$ ga nisbatan asta-sekin o‘zgarsa, bu hodisa so‘nish deb ataladi.

Texnikada signal deganda fizik tizim holatini aks ettiruvchi qandaydir miqdor tushuniladi. Radiotexnikada signal deb kuchlanish (ko‘pincha) yoki tok o‘zgarishini ifodalovchi vaqt funksiyasi $S(t)$ ga aytiladi.

Signallarni o‘zgartirish ularni qayta ishlovchi tizimlarda amalga oshiriladi. Signallarni o‘zgartirish qayta ishlov beruvchi qurilmalarda yoki kompyuterda dasturlar yordamida bajariladi.

Kompyuterda signalga sun’iy shovqin qo‘shish (xavfsizlik ta’minlash maqsadida) yoki uni shovqindan tozalash, shifrlash, deshifrlash kabi amallarni bajarish mumkin. Kompyuterlar signallarni odamlarga o‘xshab qayta ishlamasligi sababli, bu signallarni qurilmadan foydalanayotgan odam ularni tushunishi uchun qayta ishlash kerak. Misol uchun, nutqni aniqlash texnologiyasida signalni qayta ishlash mashinalarga odam aytayotgan gaplarni matnga ko‘chirish uchun izohlashda yordam beradi yoki aksincha matnlarni ovozli shaklga o‘tkazishda audio shaklga aylantiradi. Kompyuterda signal diskret (raqamli) ko‘rinishda bo‘ladi va unga oldindan yozilgan maxsus dasturlar orqali ishlov beriladi. Dasturga kiritilgan algoritm to‘g‘riligi xabarni aslicha o‘qish yoxud ko‘rish imkonini yaratadi. Signallarni tahlil qilishda ularni funksional qatorlar yoyilmasi shaklida ifodalash juda muhim hisoblanadi. Funksional qatorlar fizika, matematika hamda matnni ovozli shaklda o‘tkazish masalalarini yechishda foydalanish mumkin. Ayniqsa trigonometrik, garmonik qatorlar va Furye qatorlari alohida o‘rin egallashadi. Jumladan, Furye qatorlariga yoyish ovoz chastota va amplitudalarini qayta ishlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.A. Tulyaganov, A.M. Nazarov, A.A. Abduazizov, I.R. Faziljanov, A.A. Yarmuhamedov, Ya.T. Yusupov “Signallarni uzatish nazariyasi”-2018.
2. Kaxorov A.A, Yodgorova Д.M., Xo‘jakulov T.A., Bozorova Z.S. “Tabiiy tilni qayta ishlash model va algoritmlari”- Muhammad al-Xorazmiy avlodlari, №3(21), sentyabr 2022.

RAQAMLI AUDIO SIGNALNI QAYTA ISHLASH

Kaxorov Azamat Abdulloyevich
TATU

Qalandarov Jamil Jalolovich
TATU

1807 yilda fransuz matematigi va fizigi Jan-Batist Jozef Furye har qanday uzluksiz davriy signal to‘g‘ri tanlangan sinus to‘lqinlar yig‘indisida ifodalanishi mumkin degan g‘oyani ilgari surgan. Uning bu nazariyasi deyarli to‘g‘ri desak ham bo‘ladi ammo, sinusoidal yig‘indi bilan signalning burchakli cho‘qqilariga yaqin natijaga erishish mumkin. Buning o‘zi ham signalni qayta ishlash uchun yaxshigina qiymatlarni olish hisoblanadi.

Raqamli audio signalni qayta ishlashda bunday parchalanishning alohida holati ya’ni diskret Furye transformatsiyasi (DFT yoki inglizcha FFT - Fast Furier transformatsion) ko‘proq ahamiyatga ega. chunki uzluksiz (analog) signal bilan emas, balki diskret signal bilan ishlash, raqamli namunalar to‘plami bo‘lib, ma’lum bir namuna olish chastotali diskretizatsiya orqali kuzatiladi.

DFTning kirishiga signal beriladi, bu bir xil qisqa vaqt oralig‘ida N ta ketma-ket amplitudalar ketma-ketligidir. DFTning chiqishi ketma-ket sinus chastotalarining N/2+1 amplitudalari va ketma-ket kosinus chastotalarining N/2+1 amplitudalari ketma-ketligidir. Odatda kirish signali vaqt sohasida, har ikkala chiqish signali esa chastota sohasida (yoki chastota domenida) deb yuritiladi.

Vaqt domenining signallari kichik harflar bilan belgilanadi: x[], y[] va boshqalar. Chastota domenining signallari vaqt domenining signaliga mos keladigan bosh harflar bilan belgilanadi. Masalan, vaqt sohasi signali x[] chastota sohasi signaliga X[], y[] signali Y[] signaliga mos keladi. Chastota domeni signali X[]-uzunligida N/2+1 bo‘lgan ikkita namunadan iborat. Ular ReX[] bilan belgilanadigan X[] ning haqiqiy qismi va ImX[] bilan belgilangan X[] ning hayoliy qismi deb ataladi. ReX[] qiymatlari kosinus to‘lqinlarining amplitudalari, ImX[] qiymatlari sinus to‘lqinlarining amplitudalari. Vaqt sohasi signallari x[0]

dan x[N-1] gacha raqamlanadigan bo‘lsa, chastota domenining signallari Re[0] dan Re[N/2] gacha va Im[0] dan Im [N/2] gacha raqamlanadi.

DFTda ishlatiladigan sinus va kosinus to‘lqinlari DFT bazis funksiyalari deb ataladi. Bazis funksiyalari amplitudasi birga teng bo‘lgan sinus va kosinus to‘lqinlar to‘plamidir. DFT chiqishida ma’lum bir bazaviy funksiyaga - kosinus yoki sinus to‘lqinga qo‘llashimiz kerak bo‘lgan amplitudalar to‘plamini olamiz va natijada kengaytiriladigan kosinus va sinus to‘lqinlarni olamiz, ular qo‘shilganda vaqt signalini beradi.

Bazis funksiyalari uchun tenglamalar quyidagicha:

Kosinus to‘lqini uchun ck[i]=cos(2πki/N),

Sinus to‘lqini uchun sk[i]=sin(2πki/N)

Vaqt sohasi i nuqtalari uchun 0 dan N-1 gacha, chastotalar sohasi k nuqtalari uchun 0 dan N/2 gacha. Bu yerda chastota zonasidagi k nuqta 2πki/N chastotasiga to‘g‘ri keladi. Shunday qilib, diskret Furye konvertatsiyasi shunday X[i] nuqtalarni topishdan iborat.

$$x[i]=\sum_{k=0}^{N/2} ReX[i]\cos(2\pi ki/N)+\sum_{k=0}^{N/2} ImX[i]\sin(2\pi ki/N)$$

Yuqoridagi formula ***teskari Furye almashtirish*** deyiladi. X[i] koeffitsientlarining o‘zlarini topish uchun ***to‘g‘ri Furye almashtirish*** formulasi qo‘llaniladi:

$$ReX[k]=\sum_{i=0}^{N-1} x[i]\cos(2\pi ki/N)$$

$$ImX[k]=\sum_{i=0}^{N-1} x[i]\sin(2\pi ki/N)$$

Yoki umumiy ko‘rinishda:

$$X[k]=\sum_{i=0}^{N-1} x[i]\cos(2\pi ki/N) + j\sum_{i=0}^{N-1} x[i]\sin(2\pi ki/N)$$

Bu yerda j-hayoliy birlik.

Eyler formulasi $e^{jx}=\cos x+j\sin x$

Bundan DFTni murakkab ko‘rinishini olamiz:

$$X[k]=\sum_{i-0}^{N-1} x[i]e^{-j2\pi\, ki/N} \qquad (1)$$

Teskari DFT quyidagicha yoziladi:

$$x[i]=\sum_{i-0}^{N-1} X[k]e^{-j2\pi\, ki/N} \qquad (2)$$

Shundan to‘g‘ri Furye almashtirish:

$$X[k]=\sum_{i-0}^{N-1} x[i]W_N^{k} \qquad (3)$$

Agar siz Furye konvertatsiyasining koeffitsientlarini “hayoliy” hisoblasangiz, ya’ni ko‘rsatkichlar qiymatlari va burilish omillari darajasini ko‘paytirsangiz va natijada olingan mahsulotlarni qo‘shsangiz, hisoblash juda sekin amalga oshadi. Bunday holda, diskret Furye transformatsiya deb ataladigan algoritmlar mavjud hamda ular operatsiyalar sonini va hisoblash vaqtini sezilarli darajada qisqartirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.A. Tulyaganov, A.M. Nazarov, A.A. Abduazizov, I.R. Faziljanov, A.A. Yarmuhamedov, Ya.T. Yusupov “Signallarni uzatish nazariyasi”-2018.
2. Kaxorov A.A, Yodgorova Д.M., Xo‘jakulov T.A., Bozorova Z.S. “Tabiiy tilni qayta ishlash model va algoritmlari”- Muhammad al-Xorazmiy avlodlari, №3(21), sentyabr 2022.

$W_N^{k}=\exp\{-j2\pi k/N\}$ burilish omili deyiladi.

ПАХТАНИ МАЙДА ИФЛОСЛИКЛАРДАН ТОЗАЛАШДА ҚОЗИҚЛИ БАРАБАНЛАР КОНСТРУКЦИЯСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Қ.Ж.Жуманиязов, Ф.О. Эгамбердиев, О.Я.Холмуратов, Д.Н.Муродқобилова
Жиззах политехника институти

Республикамизда қийин тозаланадиган пахта навларни чиқиндилардан тозалашни амалга оширишда тўпланган тажрибалар ва маълумотлар ҳозирда фойдаланиб келинаётган 1ХК русумидаги тозалагичларни қатор камчиликларини кўрсатади. Жумладан, қозиқли барабанларни ишлаш тартиби, айланишлар сони бир хил, пахта нави, пахта сорти, намлиги, бошланғич ифлослиги мутлақо инобатга олинмайди, технологик жараён бўйича пахта ўртача 14-20 та қозиқли барабандан ўтади, аммо бундай барабанларни конструкциялари бир хил, ваҳоланки ишда қозиқли барабанларни ҳар қандай сонида тозалаш самарадорлиги 50% дан ортмаслигига кўрсатиб ўтилган[1].

Жаҳон амалиётида ҳам пахтани майда ифлосликлардан тозалашда, асосан қозиқли барабанлардан фойдаланилади, фақат уларни конструкциялари, ўлчамлари ва ишлаш тартибларида фарқ бўлиши мумкин.

Хорижий мутахассисларни тадқиқотлари натижаларига кўра, қозиқли барабанларни ишлатиш сони чигитли пахтани қайта ишлаш технологик жараёнида олинадиган тола синфи ва ташқи кўринишига катта таъсир қилади. Қозиқли барабанлар сони 1 дан 7 гача ошганда тола синфи ва ташқи кўриниши кескин ошади, 7 дан 20 гача ошганда эса нисбатан секинроқ ортади, аммо 20 дан ортиқ қозиқли барабан шлатилишида тола сифати ва ташқи кўринишини яхшиланиши кузатилмайди.

Шу билан бир қаторда, қозиқли барабанларни қўлланилиш сони ортиши толани механик шикастланишини оширади. Мутахассислар қозиқли барабанларни муқобил сонини 13 та деб белгилашган. Технологик жараёнда кўплаб ишчи органларни қўллаш билан бирга уларни пахта сифатига салбий таъсирини максимал тарзда камайтиришга ҳаракат қилинади [2].

1ХК тозалагичининг асосий камчиликларига пахта бўлакларини барабанлар ва тўрли юза орасида тиқилишлар ҳосил бўлиши ва пахта таркибидаги тола ва чигитни механик шикастланишининг ошиши киради. 1ХК тозалагичининг барабанлари ва тўрли юза орасида тиқилишлар ҳосил бўлишининг сабабларидан бири олдиндан титилмаган пахта хомашёсида етарлича зич бўлган бўлакчалар мавжуд бўлиб, уларнинг ўлчамлари тўрли юзаларнинг ўлчамларидан катта бўлганлиги сабабли тўрли юза тешиклари беркилиб қолади. Бир неча пахта бўлакларини тешикка тиқилиб қолиши, айниқса намлиги юқори бўлган чиқиндилар тўрли юзаларда ёпишиб, қаватлар ҳосил қилиши барабанинг секинлашишига баъзан эса, барабаннинг тўхтаб қолишига ҳам олиб келиши мумкин [3].

Тўрли юзаларни пахта бўлаклари ва ифлослик билан беркилиб қолиши пахта тозалагичининг тозалаш самарадорлигини камайишига олиб келади. Бундан ташқари барабан қозиқларининг конструкцияси пахта таркибидаги чигит ва толани шикастланишини ортишига олиб келаётгани ҳам маълум.

Юқоридагиларни инобатга олган ҳолда ушбу тадқиқотимизни вазифаси этиб пахта хомашёсини чиқиндилардан тозалашда қозиқли барабанлар сонини оширмаган ҳолда, қўшимча тозалаш имкониятларини яратиш ва пахта таркибидаги чигит ва толанинг механик шикастланишини камайтириш белгиланди. Қўйилган вазифани бажариши учун пахта тозалаш корхоналарида ишлатилаётган 1ХК тозалагичларини қозиқли барабанлари конструкцияси ва ишлаш тамойили таҳлил қилинди ва кейинги илмий тадқиқот ишлари учун техник ечим таклиф этилди.

1-расмда кўрсатилган техник ечимга кўра, пахта тозалагичнинг қозиқли барабанида текис учли қозиқчалар ўрнига ёйсимон ҳолга келтирилиб тайёрланган қозиқлар 1 қўлланилиб, бу қозиқлар тозаланаётган пахтани ичига юмшоқ кириб, ундан осон чиқиб кетади. Тозаланаётган пахтага зарба қозиқларнинг ёйсимон учлари томонидан берилади ва натижада пахта таркибидаги чигит ва толаларни шикастланишини камайиши кутилмоқда.



1-қозиқлар, 2-резинали қистирма

1-расм. Таклиф этилаётган қозиқли барабан схемаси

Қозиқли барабан бўғинларида резина қистирма 2 ўрнатилиши кўзда тутилган бўлиб, резинали қистирмаларнинг тўрли юза билан орасидаги масофа 1÷2 мм ни ташкил қилиши тўрли юзада пахта бўлакчалари ва ифлосликлар билан тиқилишини олдини олади ва натижада тозалаш самарадорлигини ошиши кутилмокда.

Бундан ташқари қозиқли барабанлар тезлиги жуфти билан кетма-кет оширилиб боришини ҳам ўрганиш режалаштирилган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Zikriyoyev E. Z. Paxtani daslabki qayta ishlash: O‘quv qo‘llanma:Mexnat.-T.:-2002.408 b.
2. Kornecki T.S. Impact of rye rolling direction and different no-till row cleaners on cotton emergence and yield transactions of the asabe: Transactions of the ASABE.том.: 52, выпуск: 2, mar 2009, 383-391 стр.
3. Шералиев Ш.Э. Пахтани ифлосликлардан тозалаш оқимли технологиясини такомиллаштириш ва параметрларини асослаш. Техника фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси, Тошкент, 2021. 120 б.

ALGORITHM OF INFORMATION EXCHANGE IN DISTRIBUTED MEDICAL INFORMATION SYSTEMS

Bekturdeiv Sanjarbek
3rd year doctoral student of the Tashkent State Technical University named after Islam Karimov.

This paper aims to explore various methods of organizing information exchange in DMIS, highlighting their strengths and limitations. We will examine different models of information exchange, including centralized, peer-to-peer, and hybrid models, and evaluate their suitability for different healthcare settings. Additionally, we will review the latest technologies and standards used in DMIS for information exchange, such as the Health Level Seven (HL7) standards and Fast Healthcare Interoperability Resources (FHIR).

Overall, this paper will provide a comprehensive overview of the methods of organizing information exchange in DMIS, offering insights into how healthcare organizations can effectively leverage these systems to improve patient care and outcomes.

Continuing on the theme of organizing information exchange in DMIS, it is worth noting that the organization of information can have a significant impact on the overall efficiency and effectiveness of the system. For instance, a poorly organized DMIS may result in delays in patient care, increased risk of errors, and higher costs.

One important consideration when organizing information exchange in DMIS is the need to ensure data privacy and security. Healthcare data is highly sensitive, and it is essential to safeguard it against unauthorized access or misuse. Therefore, any method of organizing information exchange must comply with relevant regulations and standards, such as the Health Insurance Portability and Accountability Act (HIPAA) and General Data Protection Regulation (GDPR).

Another key consideration is the need for interoperability between different DMIS systems. Different healthcare organizations may use different DMIS, and ensuring interoperability between these systems is crucial for seamless

information exchange. For instance, a patient's health record from one hospital must be accessible to another hospital if the patient is referred or admitted to the latter.

Organizing information exchange in DMIS is crucial for effective healthcare delivery. The selection of a suitable method should be based on various factors such as data privacy and security, interoperability, and efficiency. Healthcare organizations must stay up-to-date with the latest technologies and standards to ensure their DMIS meets the needs of patients and healthcare providers.

Furthermore, this algorithm can also be used to improve the accuracy and quality of exchanged information. The algorithm can be used to ensure that the exchanged information is up to date, accurate, and consistent. In addition, the algorithm can be used to identify any potential issues with the exchanged information. By addressing any potential issues, the accuracy and quality of the exchanged information can be improved.

Today, writing a complete algorithm for DMIS involves many complex and specialized processes. However, a general description of the steps involved in creating a DMIS system can be provided as follows:

1. ***Gather requirements:*** The first step in developing an algorithm for DMIS is to gather requirements from stakeholders, such as healthcare providers, patients, and IT experts. These requirements should be prioritized based on their importance to the system.

2. ***Design the system***: Based on the requirements, design the DMIS system's architecture, including the type of database, network protocols, security, and other key features.

3. ***Develop the code:*** Using the system design as a guide, write the code for the DMIS system, including the user interface, backend functionality, and data management.

4. ***Test the system:*** Test the DMIS system to ensure that it meets the requirements and functions as intended. This may include testing for scalability, security, and interoperability.

5. ***Deploy the system:*** Once the DMIS system is tested and approved, deploy it to healthcare organizations, including hospitals, clinics, and other healthcare providers.

6. ***Maintain the system:*** Continuously monitor and maintain the DMIS system to ensure that it operates efficiently and effectively. This may include upgrading software, addressing security vulnerabilities, and fixing bugs.

7. ***Provide user support:*** Offer technical support and training to users of the DMIS system, including healthcare providers and patients, to ensure that they can use the system effectively.

In summary, the algorithm for DMIS involves gathering requirements, designing the system, developing the code, testing the system, deploying the system, maintaining the system, and providing user support.

In conclusion, the development and implementation of an effective Distributed Medical Information System (DMIS) is critical for improving patient care and outcomes. Organizing information exchange in DMIS is an essential aspect of the system's design, as it can impact the system's efficiency, security, and interoperability.

Several methods of organizing information exchange in DMIS exist, including centralized, peer-to-peer, and hybrid models. Still, the selection of an appropriate model depends on various factors such as data privacy and security, interoperability, and efficiency. Additionally, the latest technologies and standards used in DMIS, such as the HL7 and FHIR, are continually evolving, and healthcare organizations must stay up-to-date with these advancements to ensure their DMIS meets the needs of patients and healthcare providers.

Overall, developing and implementing an algorithm for DMIS requires a thorough understanding of the system's design, features, and functionality. By

following a comprehensive algorithm, healthcare organizations can develop, test, deploy, and maintain an effective DMIS that meets the needs of patients and healthcare providers while safeguarding patient data privacy and security.

REFERENCES

1. Siddikov I.Kh., Bekturdiev S.Sh., Otabek Ismoilov «Application of big data in medicine and healthcare» 26-28, 2022). Hamburg, Germany: Busse Verlag GmbH, 2022. 1206 p 1049-1055 p.
2. Siddikov I.Kh., Bekturdiev S.Sh., Otabek Ismoilov «Functions and principles of the organization of an integrated electronic medical record.» Hamburg, Germany: Busse Verlag GmbH, 2022. 1206 p 1056-1065 p.
Barabanli quritgichlarga qo‘yiladigan zamonaviy talablarni tahlilidan shuni ko‘rsatadiki, quritish agregatlariga qo‘yilayotgan zamonaviy talablarning eng muhimi materialdagi namlikni minimal darajadagi energiya sarflab suvsizlantirishdir. Funksional qimmatga oid usul shuni ko‘rsatdiki, energiya (70 % dan ortiq) quritish agentini qizdirishga sarflanadi. Bundan ko‘rinadiki, issiq gazlar energiyasidan to‘liqroq foydalanish o‘ta muhim masalalardan biri ekan. Bunga bevosita quritish barabanidagi gaz va qattiq faza orasida issiqlik va massa almashinish jarayonlarini jadallashtirish bilan erishish mumkin.

Ishlab chiqilgan turli variantlar ichida eng muhimi quyidagilardir:

-chetki kuraklar bilan uzatilayotgan quritiluvchi materialni barabanning ko‘ndalang kesimi bo‘yicha bir tekis taqsimlanishini ta’minlash;

-barabanni material bilan to‘lish koeffitsientini orttirish;

-material zarrachalarini quritish xududida bo‘lish vaqtini ko‘paytirish.

Birinchi variantni o‘rganish quyidagi xulosaga olib keldi: quritiluvchi materialni baraban ko‘ndalang kesimi bo‘ylab bir tekisda taqsimlashni ta’minlashga yangi turdagi ichki taqsimlovchi qurilmalardan foydalanib erishish mumkin, chunki mavjud konstruksiyalar bu muammoni to‘laligicha hal qila olmaydi. Mavjud konstruksiyalardan foydalanishda faqatgina uzatilayotgan material sarfi ortadi, lekin ular o‘rtasida baribir “o‘lik” hudud mavjud bo‘lib, bu hududda gaz va zarrachalar o‘rtasida issiqlik va massa almashinuvi bo‘lmaydi.

Masalaning dastlabki tahlili shuni ko‘rsatadiki, mineral o‘g‘itlarni quritish intensivligiga quyidagi omillar ta’sir qiladi:

- granulalarning dastlabki namligi;

- granulalarning kattaligi;

- issiqlik tashuvchining harorati va tezligi;

- quritish barabanining kirish va chiqishidagi quritish agentining haroratlar farqi;

- quritish barabani nasadkasining holati (tozaligi va barabanning ichki qismlariga quritilayotgan materialning yopishmasligi).

Bunda nasadkaning issiqlik almashinish yuzasiga ta’siri hozirda qo‘llanilayotgan nasadkaga nisbatan 2 barobarga ortganligi va jarayonga sarflanayotgan energiya 1,3 barobarga kam sarflanishi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ахунбаев, А. А. Высушивание дисперсных материалов в аппарате с быстро вращающимся ротором / А. А. Ахунбаев, Н. Р. Ражабова // Universum: технические науки. – 2021. – № 7-1(88). – С. 49-52. – DOI 10.32743/UniTech.2021.88.7.12085. – EDN TSYCGQ.
2. Tojiyev, R. Impact on the internal structure of materials to drying process / R. Tojiyev, N. Rajabova // Universum: технические науки. – 2022. – No 10-6(103). – P. 10-18. – EDN SRAMIW.

ISSIQLIK O'TKAZUVChANLIKNI MONOTON REJIMDA O'LChAGIChNI AVTOMATLAShTIRISh

S.Q.Axrorov, J.T.Ro'zimurodov. Sh.P. Mamarasulov
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Samarqand, O'zbekiston

Issiqlik o'tkazuvchanlikni o'lchashni nostasionar metodlarining keng rivojlanishiga qaramay, hozirgi davrda temperaturalarning keng diapazonida turli moddalarning issiqlik o'tkazuvchanligini o'lchash bo'yicha mavjud tajriba materiallari asosan stasionar metodlari yordamida olingan va ular hozircha eng ishonchli hisoblanadi. Biroq bir o'lchamli issiqlik oqimini yaratish murakkab, chunki chetki effektlar hisobiga temperatura maydonlarining maksimal buzilishi aynan stasionar rejimda kuzatiladi. Issiqlik o'tkazuvchanlikni o'lchashda tekis qatlam metodi keng tarqalgan, unda asosiy ishchi qizdirgichdan issiqlik yo'qotishlarni bartaraf etishga eng katta e'tibor beriladi. Buning uchun namunaning qizdirgich bilan sovitgich orasidagi issiqlik kontaktini yaxshilash, hamda asosiy pech va namunaning atrof muhitga issiqlik tarqatishini bartaraf etish bo'yicha choralarni ko'rish kerak. Issiqlik o'tkazuvchanlikni o'lchashning aniqligini oshirish maqsadida, hozirgi davrda temperaturalar farqini o'lchash uchun differensial termojuftliklardan va issiqlik jarayonlarni avtomatik boshqarishdan foydalaniladi. Tekis qatlamlar metodida issiqlik yo'qotishlarni kompensasiyalash uchun qo'llaniladigan avtomatik boshqarish tamoyili quyidagicha: issiqlik oqimidan datchik signali avtomatik boshqarish tizimi orqali saqlovchi pechning quvvatiga shunday ta'sir qilishi lozimki, gradiyent pechdan kelayotgan issiqlik oqimini iloji boricha maksimal aniqlikda kompensasiya qilishi kerak. Qattiq jismlarning issiqlik o'tkazuvchanligini temperaturaga bog'liqligini o'lchash uchun IT-λ-400 markali issiqlik o'tkazuvchanlikni o'lchagich qo'llaniladi. Bunday issiqlik o'tkazuvchanlikni o'lchagich qattiq materiallarning fizikaviy issiqlik xossalarini ko'plab tadqiq qilish uchun mo'ljallangan, shuning uchun uning ishlash tamoyiliga monoton qizdirish maromi asos qilib olingan va birdaniga bir tajribada o'rganilayotgan parametrning temperaturaga bog'liqligini

olishga ham imkon beradi. Ta'minlash manbasi va boshqarish blogi o'lchash yacheykasining yadrosini o'rtacha 0,1 K/s tezlik bilan qizdirishni va temperaturani avtomatik tarzda rostlashni ta'minlaydi. Qizdirish tezligi qizdirgichdagi boshlang'ich kuchlanishning qiymati va uning o'zgarish tezligi bilan belgilanadi. Bu ikkala kattalik ham qattiy o'rnatiladi. Kuchlanishni rostlash manbasi bo'lib elektrodvigatelli va reduktorli laboratoriya avtotransformatori xizmat qiladi. Tajribada uzluksiz qizdirish jarayonida temperaturaning kerakli darajalarida issiqlik o'tkazuvchanlikni aniqlash uchun mikrovoltmetr yordamida namunadagi va issiqlik o'lchash plastinasidagi temperaturalar farqi o'lchanadi. O'lchash yacheykasida past haroratni hosil qilish uchun suyuq azotdan foydalanish ko'zda tutilgan. Issiqlik o'tkazuvchanlikni o'lchagich qattiq jismlarning issiqlik o'tkazuvchanligini ommaviy o'lchashga mo'ljallanganligi uchun, tajriba o'tkazuvchi uchun o'lchagichning barcha ko'rsatishlarini qayd qilish va olingan natijalarni qayta ishlash ancha mehnat sarf qilishni talab qiladi. Bundan tashqari natijalarni qayd qilishda, tajriba o'tkazuvchining malakasiga qarab o'lchashlarda individual xatoliklar ham paydo bo'lishi mumkin. Ammo, temperaturalarni o'lchashni avtomatlashtirish uchun yangi imkoniyatlar paydo bo'lganligi, ma'lumotlarni qayta ishlashning tezkor usullari yaratilganligi va sh.k. issiqlik o'tkazuvchanlikni o'lchash jarayonlarini tubdan o'zgartirishga imkon beradi, ya'ni barcha eskirgan kanallarni qo'lda bajariladigan almashma ulashlarni va ko'zguli mikrovoltnanoampermetrdan ma'lumotlarni qayd qilish, namunani qizdirish tezligini cheklashdan voz kechishga sharoit yaratiladi. Shu sababli issiqlik o'tkazuvchanlikni o'lchashdagi bunday qiyinchiliklarni bartaraf etish maqsadida, o'lchagichni avtomatlashtirish vazifasi qo'yildi. Bunday ishlar boshqa mualliflar tomonidan ham amalga oshirilgan. Masalan [1] da bu maqsadda o'lchagichning butunlay elektr sxemasidan voz kechilib, faqat o'lchash yacheykasidan foydalanilgan. O'lchagichni o'z elektr sxemasini avtomatlashtirishning imkoni yo'q, chunki elektr sxema tajribalarni qo'lda boshqarish uchun mo'ljallangan. O'lchagichni kompyuter bilan bog'lash uchun

KAMAK tizimidan foydalanilgan. Bu esa tajriba natijalarini turli dasturlar bilan qayta ishlash va natijalarni fayl ko'rinishida saqlashga imkon bergan. Biz bu maqsadda ommaviy tarqalgan Arduino platformasidan foydalanishni nazarda tutdik. Buning uchun uchta termojuftliklardan kelayotgan signallar kuchaytirgichlar yordamida kuchaytirilib, analogli-raqamli aylantirgichga(ARA) uzatiladi. Atrof muhit temperaturasini kompensirlovchi termojuftlikning erkin uchi ARAning to'rtinchi kanaliga ulanadi. Aynan shu yerda qarshilikning o'zgarishiga qarab temperatura aniqlanadi. Bunday bog'lanish oldindan tuziladi va graduirovka qilinadi. Shu asosda uchta termojuftlikning temperaturasi aniqlanadi. Shundan so'ng kuchaytirilgan signal kompyuterga beriladi va u yerda qayta ishlanib termojuftliklardagi real temperaturalar aniqlanadi. Kompyuter displeyida termo e.yu.k.ning temperaturaga bog'liqlik grafiklari tuziladi.



O'lchashlarni avtomatlashtirish, tajriba natijalarini qayta ishlashni jiddiy soddalashtiradi, asbobning funksional imkoniyatlarini kengaytiradi, tajriba uchun sarf bo'ladigan vaqtni tejab, o'lchash aniqligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. М.Ю. Абашева, М.А. Костюнина, И.А. Митяева, Использование компьютерной программы для измерителя теплопроводности ИТ – λ – 400, rep.polessu.by›bitstream/123456789/3640/1/78.pdf.

MARKAZDAN QOChMA – INERSIYALI SKRUBBER ISh ChI SUYUQLIKNI PURKOVChI MEXANIZMINI JARAYONGA QO‘LLASh.

Sulaymonov Abduraxmon Maxamadovich
Farg‘ona politexnika instituti assistenti, a.sulaymonov@ferpi.uz

Shonazarov Sherali Furqatovich
Farg‘ona politexnika instituti 22-21 TMJ guruh talabasi

Atrof muhitni himoya qilish ishlarini rivojlantirish maqsadida ilmiy asoslangan yechimlarga tayangan holda talablarga javob bera oladigan sanoat apparatlari ham yaratilgan va muvaffaqiyat bilan ishlatilmoqda.

Hozirda sanoat chiqindilarini ushlash, neytrallash yo‘nalishida ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda, sanoat ishlab chiqarishning har bir sohasi bo‘yicha aniq bir tasniflangan, yuqori samara bilan maqsadga erishish imkonini beruvchi ilmiy jihatdan puxta asoslangan ko‘plab ilmiy yechimlar, tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Sanoatda ikkilamchi gazlarni tozalashning quruq va ho‘l usullari mavjud bo‘lib, bu turdagi qurulmalar kichik gidravlik qarshilik va yuqori ish unumdorligiga ega hisoblanadi.

Ho‘l usulda chang va gazlarni tozalash qurulmalarining konsturksiyalari turlicha bo‘lib, bu qurulmalar ichida eng ko‘p tarqalgani skrubberlardir. Skrubberlarning ho‘l usuldagi boshqa qurulmalarga nisbatan asosiy avfzalligi chiqndi suvining qurulma potrubkalariga tiqilishi va tozalashda hosil bo‘ladigan shlamning qurulma devorlariga yopishib qolishga moyilligi kamroq. Bundan tashqari agressiv, temperaturasi hamda oqim tezligi yuqori bo‘lgan gazlarni tozalashda samaradorligi yuqori hisoblanadi [1].

Shuning uchun chang va ikkilamchi gazlarni suyuqlik tomchilari bilan to‘qnashuv extimolini oshirish uchun yangi effektiv usullarni yaratish, qurilma konstruksiyasini takomillashtirish yoki tashqi energiya ta’sirini qo‘llash kerak bo‘ladi [2].

Sanoatda konstruktiv tuzilishi turlicha bo‘lgan skrubberlar ishlatiladi. Bu turdagi skrubberlar ichidan foydalanish ko‘lami bo‘yicha tarelkali skrubberlar eng keng tarqalagan qurilmalar hisoblanadi.

Tarelkali skrubber qurilmasi bundan oldingi ilmiy tadqiqot ishlarimizda o‘rganilib kelingan. Hozirda skrubber qurilmasi ishchi suyuqlikni purkovchi mehanizmi takomillashtirilib, bu bo‘yicha eksperementlar o‘tkazilmoqda [1].

Yuqorida aytib o‘tilgan suyuqlikni purkovchi mehanizm quyidagicha ishlaydi. Changlangan havo oqimi shnekli ta’minlovchi ventilator (1) orqali changli havo yo‘naltiruvchi quvurga (2) kiradi. Havo yo‘naltiruvchi quvur ichki qismi paralel ravishda suyuqlikni sepib beruvchi maxsus shtuser (3) bilan jihozlangan. Suyuqlik purkovchi mexanizm xavo yo‘naltiruvchi quvurga perpendikulyar ravishda tushirilgan suyuqlik quvuriga(4) biriktirilgan (1-rasm).



1-ventilator; 2-havo yo‘naltiruvchi quvur;3-maxsus shtuser; 4-suyuqlik quvuri; 5- konussimon quvur; 6-shlam tushuvchi patrubka; 7-gaz taqsimlagich; 8-silindrsimon korpus; 9-maxsus tarelka; 10- toza gaz chiquvchi patrubka.

1-rasm. Ho‘l usulda chang ushlovchi va gaz tozalovchi apparatning konstruktiv sxemasi

Shtuser teshigidan tarqalayotgan ishchi suyuqlik changli havo oqimiga α=5°,10°,15° qiyalik burchak ostida markazdan qochma kuch ta'sirida sepib beriladi. Bu esa changli xavo yo'nalishini yo'naltiruvchi quvur ko'ndalang kesimi bo'ylab uyurma holatida harakatlanishiga olib keladi. Natijada, havo yo'naltiruvchi quvurda siyraklanyotgan changli havo oqimi bilan ishchi suyuqlikni samarali kontaktlanishiga sabab bo'ladi. Shtuserlarning aylanma harakatini suyuqlik quvuri (4) orqali bosim bilan harakatlanayotgan ishchi suyuqlik ta'minlaydi. Mehanizm faol rejimda ishlaganda changli gaz va suyuqlikning aralashgan qatlami hosil bo'ladi. Buning oqibatida gaz tarkibidagi dispers qatlam suyuqlikka yutiladi va gaz tozalanadi.

Qurulmaning mavjud skrubberlarga nisbatan asosiy afzalligi shundaki, maxsus shtuser aylanma xarakati gaz oqimining suyuqlik muxitidagi egri chiziqli xarakatini ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida massao'tkazish koefitsientini ko'paytiradi.

Xulosa: Ho'l usulda chang ushlash qurilmalari konstruksiyalarini o'rganish natijasida, qurilmalar ish prinsipi suyuqlik oqimlarini changli gaz oqimiga yo'llashda suyuqlik va changli gaz – parallel, suyuqlik va changli gaz – qarama-qarshi kontakt yuzalarini oshirish orqali yuzaga keladigan hodisalardan foydalanishga asoslangan bo'lib, atrof muhitga chiqarilayotgan zaharli va changli gazlarni ushlab qolishda juda kichik zarrachalarni ham tutib qolish imkoniyati mavjudligi va juda yuqori tozalash darajasiga erishish mumkinligi aniqlandi.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Rasuljon, T., Azizbek, I., & Abdurakhmon, S. (2021). Research of the hydraulic resistance of the inertial scrubber. *Universum: технические науки*, (7-3 (88)), 44-51.
2. Тожиев, Р. Ж., Исомиддинов, А. С., Ахроров, А. А. У., & Сулаймонов, А. М. (2021). Выбор оптимального абсорбента для очистки водородно-фтористого газа в роторно-фильтровальном аппарате и исследование эффективности аппарата. *Universum: технические науки*, (3-4 (84)), 44-51

MATERIALNI QURITISH JARAYONIDA MIKROPROTSESSLARNING MOHIYATIGA KIRIB BORISH

R.J. Tojiev.
t.f.d. prof., Farg'ona politexnika instituti

A.M. Rahmonov
Talaba, Farg'ona politexnika instituti

Quritish jarayonlarini tizimli tahlil qilish uchun fizik-kimyoviy ta'sir va hodisalar ierarxiyasining beshta darajasini ajratib ko'rsatish mumkin, bu jarayonlar o'zaro bog'liqlikni rivojlantiradi va ularning darajasi bilan o'rganadi [1-3].

I-atom – molekular darajasidagi tadqiqotlar;

II-supramolekular va globulyar turidagi tuzilmalarni tadqiq qilish;

III-quritish qurilmalarida yuzaga keladigan fizik va fizik-kimyoviy jarayonlarni xususan, energiya va massa uzatish sohasidagi fazalarni tahlil qilish;

IV-quritish kamerasi bilan chegara qatlam sohalari o'rtasida yuzaga keladigan jarayonlarni o'rganish;

V-qurilmaning umum miqyosda makrogidrodinamik va makroenergetik holatini aniqlaydigan jarayonlar yig'indisini tahlil qilish.

Hozirgi vaqtda quritish jarayonlari va quritish qurilmalarini hisoblash asosan makroskopik darajada bo'lib, III va IV ierarxiya darajasida olib borilmoqda. Lekin, aniq ma'lumotlar va kelajak prognozlari shuni ko'rsatmoqdaki, quritish jarayoni mexanizmiga atom-molekular darajada, ya'ni I-daraja ierarxiyaga o'tish vaqti kelganligini va tadqiqotlarni shu darajada olib borishni taqozo qilmoqda.

Quritish jarayonlarini o'rganishga bunday yondashuv material ichkarisida rivojlanayotgan jarayonlarni tahlil qilishda ijobiy natijalar beradi. Namlikning tananing quruq skeleti bilan o'zaro ta'siri, nam materialga sirt faol moddalarning ta'siri, shuningdek quritish sohalariga turli xil energiyalar yetkazib berishning maxsus usullarini joriy qilishga olib kelganligini ko'rish mumkin .

Elektron mikroskoplar orqali o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, materiallarning tuzilishi ya’ni metallarni ichki kristall zarrachaning tuzilishi to‘g‘ri shakllanmagan bular ekan. Aniq metall kristallik reshyotkasida har xil nuqsonlar bor bo‘lib, ular atomlarni o‘zaro bog‘lanishlariga halaqit berib, metall xossalariga ta’sir qilar ekan. Reshyotkadagi bu nuqsonlar atomlarni reshyotkada noto‘g‘ri joylashganligi natijasidir.



1-rasm. Kristall panjarali atomli nuqsonlar.

a) vakantli; b) oraliq tuguniga atom siljish; v) panjaraga begona atom yoki ionni kiritishni joriy qilish.

1-rasmda atomli nuqsonlarning uch turi keltirilgan. Ular vakantli tugunlar shaklida, oraliq tuguniga atom siljishi hamda panjaraga begona atom yoki ionni kiritishni joriy qilish ko‘rinishida namoyon bo‘lganligi ko‘rsatilgan. Joylashishlari to‘liq mukammallashmagan strukturalar bir-biridan quyidagicha farqlanadi:

Reshyotkadagi nuqsonning uch o‘lchovda ham kichik bo‘lgan $v \approx 3 \cdot 10^{-8} sm$ nuqtali; ikki o‘lchovda ham kichik bo‘lgan chiziqli; bir o‘lchamdagi kichik bo‘lgan tekis (ikki o‘lchovli, yuzali).

Dislokatsiya kristallik panjarasida joylashgan nomukammallikning alohida bir ko‘rinishi bo‘lib, tabiiy holda ular boshqa nuqsonlardan kam farq qiladi. Dislokatsiya u atomlarni alohida o‘ziga xos joylashish shakli. 2-rasmda dislokatsiya izlarining mikrosurati keltirilgan. Hozirgi paytda dislokatsiyani to‘g‘ridan-to‘g‘ri borligi isbotlangan.

2 – rasm. Dislokatsiya izlarining mikrofotografiyasi.

Agarda kristall ichida ulardan biri uziladigan bo‘lsa, uzilgan joyning o‘rnida qirraviy dislokatsiya hosil bo‘ladi. Maksimal yaqin joylashuvda panjaraning buzilishi uning yo‘qolish o‘lchamiga ko‘ra tezda so‘riladi.

Vintli dislokatsiya holatida atomli tekisliklarda kristallning ichida uzilish bo‘lmaydi, lekin atomli tekisliklarning o‘zi vintli zinapoya ko‘rinishdagi tizimni o‘zida aks ettiradi.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Тожиев, Р. Ж., Ахунбаев, А. А., & Миршарипов, Р. Х., Ражабова Н.Р. (2018). Сушка тонкодисперсных материалов в безуносной роторно-барабанном аппарате. Научно-технический журнал ФерПИ,-Фергана,(2), 116-119.
2. Tojiyev, R. Impact on the internal structure of materials to drying process / R. Tojiyev, N. Rajabova // Universum: технические науки. – 2022. – No 10-6(103). – P. 10-18. – EDN SRAMIW.

KRIPTOGRAFIYADA AXBOROTNI UZATISH TIZIMI

Ergashev Otabek Mirzapo‘latovich
TATU Farg‘ona filiali

Elektr aloqa rivojlanish tarixidan. Insoniyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida odamlar orasida muloqat juda taqchil bo‘lgan. Muloqatga, axborotni uzatishga va saqlashga bo‘lgan extiyoj insoniyat jamiyatining rivojlanishi bilan birga rivojlangan.

Axborotlarni uzatish imkoniyatlari xar bir davr ilm-fanining yutuqlari va rivojlanishiga bog‘liq xolda amalga oshirilgan. Primitiv axborot uzatish tizimlaridan (gulxanlar, nog‘oralar gumbirlashi, optik semaforlar va boshqalar), zamonaviy uzatish tizimlarigacha bo‘lgan vaqt mobaynida, aloqa vositalari xam mazmunan, xam texnik va boshqa jixatlar bo‘yicha takomillashdi va o‘zgardi, lekin asosiy vazifa – axborotlarni belgilangan talablarni bajargan xolda uzatish vazifasi saqlanib qoldi.

Olimlardan B.S.Yakobi, S.Morze, D.Yuz, J.Bodo va boshqalar telegraf aloqasining rivojlanishi va shakllanishiga o‘zlarining munosib xissalarini qo‘shdilar.

1866 yil Atlantika okeani orqali suv osti kabeli yotqizilib Amerika va Yevropa qit’alari telegraf aloqasi orqali bog‘landilar.

Telegraf aloqa tizimining rivojlanishi telefon paydo bo‘lishiga turtki bo‘ldi. 1876 yil amerikalik ixtirochi A.G.Bell tovushni (nutqni) masofaga sim orqali uzatish qurilmasini – telefonga patent oldi. 1878yil rus olimi M.Maxalьskiy birinchi ko‘mir kukunli sezgir mikrofon konstruktsiyasini yaratdi, modernizatsiyalashtirilgan variantda bunday mikrofonlar xozirda xam qo‘llanmoqda.

O‘zbekistonda dastlabki telefon aloqasi 1895 yil Xiva shaxrida ishga tushirilgan. Bunda 20 abonentga mo‘ljallangan “Erikson MB” rusumli stantsiya o‘rnatilgan edi.

1880 yildan Turkiston general gubernatorligida telegraf aloqa liniyalari qurila boshlandi. Birinchi yo‘nalish – Toshkent shaxridan Xo‘jand, O‘ra tepa, Xovos, Zomin, Jizzax, so‘ngra CHimkent, To‘qmoq shaxarlari tomon. Ikkinchi yo‘nalish – Buxoro shaxridan Kushka, Kelif, so‘ngra Afg‘oniston va Eron davlatlari chegaralari tomon. Uchinchi yo‘nalish – Krasnovodsk, Ashxobod, Mari, CHorjo‘y shaxarlari, so‘ngra Samarqand, Xovos, Toshkent, Marg‘ilon, Andijon shaxarlari toman telegraf liniyalari qurildi. Bu Markaziy Osiyodagi dastlabki telekommunikatsiya tarmoqlari edi. Xozirda Ashxobod, Toshkent,

CHimkent shaxarlari orqali Trans-Osiyo-Evropa (TAE-VOLS) optik tolali magistral kabelь liniyasi o‘tgan. Bu magistralning O‘zbekiston xududidagi segmenti Respublika telekommunikatsiya tarmoqlarini zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlantirishga asos bo‘ldi.

1970 yilda Amerikaning “Coming Glass Company” firmasi o‘ta toza shisha ishlab chiqardi. Bunday shisha tola optik aloqa kabellarini yaratish va joriy etish imkonini berdi.

Telekommunikatsiya rivojlanish zamonaviy tendentsiyalari. Keyingi yilarda aloqa soxasi xamma turdagi axborotlarni raqamlashtirish asosida uzatish yo‘li bo‘yicha rivojlanmoqda. Bu axborotlarni nafaqat uzatish, balki taqsimlash, saqlash va qayta ishlashda xam tejamkor usullarni ta’minlaydigan bosh yo‘nalish bo‘lib qoldi. IKM-24 dan keyin IKM-30, IKM-120, IKM-1920 uzatish tizimlari, so‘ngra raqamli sinxron ierarxiyali (STSI) uzatish tizimlari paydo bo‘lishdi.

Raqamli uzatish tizimlarining intensiv rivojlanishi analog tizimlarga nisbatan bu tizimlarni katta afzalliklari: yuqori to‘sqinbardoshlik, uzatish sifatining aloqa liniyalari uzunligiga deyarli bog‘liq emasligi, aloqa kanali elektrik parametrlarining barqarorligi, diskret xabarlarni uzatishda aloqa kanali o‘tkazuvchanlik qobiliyatidan samarali foydalanish va boshqalar orqali tushuntiriladi.

Telekommunikatsion texnologiyalar evolyutsiyasining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

- axborotni uzatish tezligini ortishi, u keng polosali liniyalar imkoniyatlarining ortishi hamda optik kanallardan umumiy foydalanish;

- axborot uzatish tarmoqlarining intelektuallashuvi;

- oxirgi vositalarning arzonlashuvi va miniatyurlashishi hamda simsiz aloqa texnikasining ishlatilishi foydalanuvchilar sonining keskin o‘sishiga olib keladi.

Telekommunikatsiyalar rivojlanishiga yaqin orada ta’sir qiladigan texnologiyalarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- optik texnologiyalar (SDN/SONET), tezlikni orttirishni ta’minlaydi, tarmoqdan foydalanishni arzonlashtiradi va demak foydalanuvchilar sonini ko‘paytiradi;

- keng polosali kanallar (B-ISDN), turli xildagi axborotni bitta kanal bo‘yicha uzatish imkonini beradi va natijada tarmoqning tezligi hamda intellektualligini orttiradi;

- mulьtipleksirlash va kommutatsiyaning yagona texnologiyasi (ATM), tarmoqning intellektualligini orttiradi;

- axborotni kodlash va zichlashtirish (qisish), ular kengpolsali tarmoqlar evolyutsiyasida muhim rol o‘ynashi kerak, uzatilayotgan axborot oqimlarini keskin bir necha marotaba (bir necha tartibga) orttirishi va shu bilan mulьtimedia, televizion hamda boshqa axborotlarni yuqori sifatda uzatish imkonini ta’minlaydi;

- kommutatsiyalanadigan lokal hisoblash tarmoqlari (Fast Ethernet, FDDI, FDDII, ATM) tarmoqning mahsuldorligi va intellektualligini orttiradi;

- raqamli simsiz aloqa, foydalanuvchilar sonining o‘sishiga va mobilligiga ko‘maklashadi;

- tarmoqlarning interperabilligi (Java);

- Internet xizmatlaridan foydalanishning universalligi (WWW).

Telekommunikatsiya soxasini, jumladan telekommunikatsiya tarmoqlarining rivojlanish istiqbollarini bilish uchun tarmoqlar tuzilishini, evolyutsiyasini, xususiyatlarini, qo‘llaniladigan texnologiyalarni bilish zarurdir.

Ikkita terminal orasidagi aloqani tashkil qilish uchun alohida trakt (kanal yoki liniya) qismlarini bir – biri bilan bog‘lash kerak.Bu funktsiyani tarqatish tizimi – kommutatsiya bog‘lami (KB) bajaradi.

Telekommunikatsiya tarmog‘i umumiy xolda uzatish tizimi bilan bog‘langan oxirgi terminallarning abonent qurilma – moslamalari (AQM) va kommutatsiya bog‘lami (KB) dan iborat.

Telekommunikatsiya traktining umumiy strukturasi 1-rasmda tasvirlangan.



1-rasm. Telekommunikatsiya trakti (yo‘li)ning umumiy strukturasi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Sobirovich, K. V., Mirzapulotovich, E. O., & Mirzaolimovich, S. M. (2022). Advantages of using LMS as a System for Monitoring, Evaluating and Monitoring Learning Outcomes. *International Journal of Development and Public Policy*, *2*(2), 1-5.
2. Shipulin, Y. G., Khusanov, A. M., Khalilova, P. Y., & Ergashev, O. M. (2020). Intelligent optoelectronic device for measuring and control water flow in open channels. *Chemical Technology, Control and Management*, *2020*(5), 58-63.
3. Шипулин, Ю. Г., Махмудов, М. И., Эргашев, О. М., & Худойбердиев, Э. Ф. (2020). Интеллектуальное микропроцессорное устройство контроля параметров сточных вод. In *Эффективность применения инновационных технологий и техники в сельском и водном хозяйстве* (pp. 421-423).
4. Кадиров, О. Х., Шипулин, Ю. Г., Махмудов, М. И., & Эргашев, О. М. (2019). Синтез многоканальных информационно-управляющих систем контроля технологических процессов очистки сточных вод. *Наука. Образование. Техника*, (3), 5-11.
5. Эргашев, О. М. (2018). Обеспечение информационной безопасности радиотехнических систем. *Теория и практика современной науки*, (6), 689-691.
6. Эргашев, О. М. (2018). Разработка методов защиты информации в волс на основе использования концепции кодового зашумления. *Теория и практика современной науки*, (6), 686-688.
7. Шипулин, Ю. Г., Махмудов, М. И., & Эргашев, О. М. доцент ТИТЛП РУз. *Образование т е х н и к а*, 5.
8. Ergasheva, S. (2021). Relational basics and manipulation of data in the database. *Интернаука*, (5-2), 54-55.
9. Эргашев, О. М., & Эргашева, Ш. М. (2020). Алгоритмы динамической фильтрации с учетом инерции измерительного устройства. *Universum: технические науки*, (2-1 (71)), 24-27.
10. Эргашев, О. М., & Эргашева, Ш. М. (2020). Регулярные алгоритмы коррекции динамической погрешности средств измерений. *Universum: технические науки*, (2-1 (71)), 20-23.

ANALYSIS OF THE PHYSICAL CONDITIONS OF THE SOLIDING PROCESS IN CEMENT PRODUCTION

Mamarizayev Ilhomjon Mahmudjon o‘g‘li
assistant, Fergana Polytechnic Institute

Sadriddinov Fazliddin Muhammadsohib o‘g‘li
student, Fergana Polytechnic Institute

Enter. Increasing the quality of clinker production in cement plants provides an opportunity to improve the cement brand and obtain fast-hardening cement. The birthing process is carried out according to clearly defined technological requirements. For example, in the cement industry, the process of adding clinker and necessary additives involves increasing the contact surface of the material in order to increase its reactive properties. Also, clinker and additives are softened in order to achieve physical and technical properties characterized by a specific surface area of cement. However, the effectiveness of the conception technique is not perfect. Fertilization technology is very low efficiency, and its improvement remains one of the most urgent problems. ~ 20% of the electricity consumed in the technological processes of cement production is used for feeding materials in mills. It can be seen that the study of the laws of perception and the correct selection of technologies lead to a decrease in the consumption of electricity and the cost of cement.

In drum mills, the material is sieved inside a rotating drum with balls and other sieve elements. When the drum rotates, the felt bodies and the felt material inside it first move in a circular motion along with the drum, that is, it rises up along the circumference of the drum. Then it descends along a parabolic trajectory (Fig. 1).



Figure 1. Scheme of movement of balls in the mill

a- drum speed is low, b- drum speed is medium, v- drum speed is high

The material that is close to the axis of rotation of the drum rolls down on this material. In this process, the material is felt as a result of rubbing against each other, impact of the feeling element and being soaked with it. In ball mills, balls made of steel or cast iron of the same and several different diameters are used as a feeding body. Previously, balls were made by casting, casting (hammering) or stamping. Balls are now produced by cross-screw rolling. The productivity of balls prepared in this way is 3-4 times higher, metal consumption is 30% less, and the quality is high. If the felt material cannot be contaminated with iron, balls made of porcelain, cast stone, corundum are used. Lining of the inner surface of raw material and cement mills protects the body (drum) from corrosion and affects the energy mode of grinding balls and their classification according to the length of the mill.

About 0.1-0.15 kg of armor plate is consumed per ton of clinker in the mill. In later times, especially in mills where raw materials are wet milled, more rubber is being coated on its inner surface as armor. For this purpose, rubber is used, which has a high resistance to friction, is extremely flexible and resistant to impact. The surface is serrated, i.e. toothed rubber is less worn and wears less compared to rubber with a flat surface. More and more steel plates and steel

cylinders are used as raw material crushing and grinding bodies; they appear in technical books as silpebs. In addition to balls, steel or cast-iron silpebs (size from 12x12 to 40x40 mm) are also widely used as a bearing medium. Studies have shown that silpebs have great advantages over balls in the first and second grinding. Because selpebs are in surface, line and point contact with the felt material, while spheres are in point contact only. Therefore, it can be expected that the use of selpebs will increase in the future.

Summary

To ensure the efficiency of clinker production, it is first necessary to know where the energy is spent. In order to correctly interpret these situations, it is necessary to study the physical state of the birth process. The crushing process due to any deformation can be explained as follows. An external force causes an accumulation of elastic deformation stresses within the body. As a result of a crack formed in a particle, the energy of elastic deformation is gradually distributed in the body of the particle: part of it is spent on the newly formed surface. It is this energy that feeds the body as useful energy. The rest is dissipated in the case of elastic deformation to compress the body and in the case of heat energy and other energies.

Referances

1. Sadullaev, X., Muydinov, A., Xoshimov, A., & Mamarizaev, I. (2021). Ecological environment and its improvements in the fergana valley. *Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali*, *1*(5), 100-106.
2. Rasuljon, T., Akmaljon, A., & Ilkhomjon, M. (2021). Selection of filter material and analysis of calculation equations of mass exchange process in rotary filter apparatus. *Universum: технические науки*, (5-6 (86)), 22-25.
3. Xursanov, B. J., Mamarizayev, I. M. O., & Akbarov, O. D. O. (2021). Application of constructive and technological relationships in machines. *Scientific progress*, *2*(8), 164-169.

CHIQINDI GAZLARNI HO‘L USULDA TOZALASHDA MASSA ALMASHINISH JARAYONINI TADQIQ ETISH

Alizafarov Bekzod Musajonovich, Karimov Asadbek Umidjon o‘g‘li
Farg‘ona politexnika instituti

Buguni kunda ekologiya va atrof-muhitni saqlash Yer sharining har bir bo‘lagida eng muhim vazifa bo‘lib kelmoqda. Ma’lumki, ekologiya va atrof-muhitni zararlanishiga gazsimon, suyuqlik va qattiq chiqindilarning ta’siri sezilarlidir. Ushbu chiqindilar ichida mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarishda hlosil bo‘ladigan toksik tashlama gazlarning ta’siri ulkandir. Ushbu tadqiqot ishi ham superfosfat ishlab chiqarishda hosil bo‘layotgan va atmosferaga tashlanayotgan gazlarni tozalash va atrof–muhit ifloslanishini kamaytirishga qaratilgan.

Superfosfat ishlab chiqrishda hosil bo‘lgan chiqindi gazlarni tozalash bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar ikki bosqichda olib borildi. Birinchi bosqichda superfosfat mineral o‘g‘iti ishlab chiqrishda hosil bo‘layotgan chiqindi gaz aralashmasi tarkibi, fizik-kimyoviy xossalari o‘rganildi. Bunga ko‘ra, superfosfat ishlab chiqarishda 1m^3 gaz aralashmasida 15000÷4500mg miqdorda vodorod-ftorid va 1900÷2800mg miqdorda chang hosil bo‘lishi aniqlandi [1].

Tadqiqot ikkinchi bosqichda apparatning optimal qiymatini aniqlash maqsadida o‘zgaruvchi omillar sifatida asborbent sarfi, tozalanadigan gaz oqimi tezligi va filtrlovchi teshik diametri tanlandi. Vodorod-ftoridni samarali yutirish uchun optimal deb tanlangan texnik sodaning suvdagi 30% erit asborbent sifatida qo‘llanildi [2].

Rotor-filtrli tajriba apparatida mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarishda hosil bo‘lgan chiqindi gazlarni tozalash uchun quyidagi tenglamalardan foydalanildi [3].

Vodorod-ftoridni komponentining boshlang‘ich gaz aralashmasidagi miqdori quyidagicha aniqlanadi, m^3/soat:

$$V_b = V_{b.ar} \cdot x_{bHF} \qquad (1)$$

bunda $V_{b.ar}$ – apparatga beriladigan gaz aralashmasining miqdori, m^3/soat; x_{bHF} - vodorod-ftoridning gaz aralashmasidagi xajmiy ulushi, %.

Apparatdan chiqayotgan gazdagi vodorod-ftoridning miqdori, m^3/soat:

$$V_{ch} = V_{b.ar} \cdot x_{oxHF} \tag{2}$$

bunda x_{oxHF}–vodorod-ftoridning tozalangan gaz oqimidagi (chiqishdagi) xajmiy ulushi, %.

Vodorod-ftoridning absorbentga yutilgan miqdori, m^3/soat:

$$V_{yut} = V_b - V_{ch} \tag{3}$$

va

$$G_{yut} = \frac{V_{yut} \cdot T_0}{T} \cdot \rho_0 \tag{4}$$

bunda V_{yut} – absorbenta yutilgan gaz miqdori, m^3/soat; T_0 – absolyut harorat, K; T – ishchi harorat, K.

Apparatda kechadigan absorbsiya jarayonini o‘rtacha yurituvchi kuch quyidagicha aniqlanadi.

Rotor-filtrga kirishidagi vodorod-ftorid komponentining parsial bosimi quyidagi tenglamadan aniqlanadi, kPa:

$$P_{b.HF} = P_{ap.} \cdot x_{b.HF} \tag{5}$$

Apparatdan chiqadigan texnik sodadagi vodorod-ftoridning molyar ulushi:

$$x_{m.HF} = \frac{\frac{G_{yut}}{M_{FH}}}{\frac{G_{yut}}{M_{FH}} + \frac{Q_{abs.}}{M_{havo}}} \tag{6}$$

Uch bosqichli aralashtiruvchi reaktorlardan chiqadigan tashlanma gazlar aralashmachi harorati 65^0C ni va ushbu haroratda vodorod ftorid uchun Genri koeffitsienti 1,0 kPa ga teng.

Tajriba qurilmasidagi massa almashinish jarayonini o‘rtacha yurituvchi kuchi quyidagicha aniqlanadi, kPa:

$$\Delta P_{o'rt} = \frac{P^*_{b.HF} - \Delta P_{chiq}}{2{,}3 \lg \frac{P^*_{b.HF}}{\Delta P_{chiq}}} \tag{7}$$

Rotor-filtrli tajriba apparatida vodorod-ftoridning texnik sodani suvdagi eritmasiga yutilishidagi massa o‘tkazish koeffitsientini aniqlash uchun quyidagi tenglmadan foydalanish tavsiya etildi, kg/(m^2·s·kPa):

$$K = \frac{G_{yut}}{\left(6,28 \cdot R_F \cdot L_B - 0,785 \cdot {d_F}^2 \cdot n_{tesh}\right) \cdot \Delta P_{o'rt}} \qquad (8)$$

bunda R_F –baraban radiusi, mm; L_B –baraban uzunligi,mm; d_F –barabanga qoplangan filtrlovchi material teshigining diametri, mm; n_{tesh}– teshiklar soni.

Superfosfat ishlab chiqarishda hosil bo‘ladigan vodorod ftoridni texnik sodaning suvdagi eritmasiga yutilishida quyidagi natijalarga erishildi.



1–tajribaviy qiymatlar; 2–nazariy qiymatlar;

1-rasm. *a*–suyuqlik sarfining massa o‘tkazish koeffitsientiga bog‘liqligi; b–gaz oqimi tezligining massa o‘tkazish koeffitsientiga bog‘liqligi.

1*a*–rasmda absorbsion suyuqlik sarfining o‘zgarish oralig‘i Q_L=0,072÷0,178 m^3/soat va tozalanadigan gaz oqimining tezligi ϑ_G=5m/s bo‘lganda massa o‘tkazish koeffitsienti K ning o‘zgarish oralig‘i berilgan. Unga ko‘ra, suyulik sarfining ekichik qiymati Q_L=0,072m^3/soat va baraban sirtiga qoplangan filtrlovchi teshiklar diametri d_F=2mm; d_F=3mm; d_F=4mm bo‘lganda massa o‘tkazish koeffitsientining qiymati K=0,340 kg/(N/m^2)·m^2·s bo‘lsa, absorbent sarfining eng katta qiymati Q_L=0,178m^3/soat bo‘lganda massa o‘tkazish koeffitsientining qiymati K=0,861kg/(N/m^2)·m^2·s ga ortganligi ma’lum bo‘ldi.

1*b*–rasmda tozalanadigan gaz oqimi tezligining o‘zgarish oralig‘i ϑ_G=5÷30m/s va absorbsion suyuqlik safri esa Q_L=0,178 m^3/soat hamda baraban sirtiga qoplangan filtrlovchi teshiklar diametri d_F=2mm; d_F=3mm; d_F=4mm

bo‘lganda massa o‘tkazish koeffitsientining o‘zgarish oralig‘i berilgan. Unga ko‘ra, gaz tezligi ekichik qiymati ϑ_G=5m/s da massa o‘tkazish koeffitsienti eng kichik qiymatga K=0,475 kg/(N/m^2)·m^2·s erishdi. Shuningdek, gaz tezligi ϑ_G=30m/s ga ortganda massa o‘tkazish koeffitsientining qiymati K=5,550 kg/(N/m^2)·m^2·s ga oshganligi kuzatildi.Nazariy va tajribalar asosida olingan qiymatlarni qayta ishlash natijasida quyidagi xulosalar kelib chiqdi.

Rotor-filtrli tajriba apparatida superfosfat mienral o‘g‘itlari ishlab chiqrishda hosil bo‘ladigan ftor birikmali gazlarni texnik sodaning suvdagi 30% eritmasi bilan tozalash quyidagi natijalar erishildi. Gazlari ho‘l usulda tozalovchi rotor-filtrli apparatdagi absorsitsa jarayonini ifodalovchi massa o‘tkazish koeffitsientini hisoblash tenglmasi tavsiya etildi. Tozalanadigan gaz oqimi tezligining qiymati eng katta va filtrlovchi material teshigi diametrining eng kichik qiymatida hamda absorbentning eng yuqorgi sarfida massa o‘tkazish koeffitsientining eng katta qiymati kuzatilgan bo‘lsa, gaz tezligining kamayishi va filtrlovchi material teshigining diametrining eng katta qiymatida massa o‘tkazish koeffitsientining kamayishi kuzatildi.

Adabiyotlar.

1. Rasuljon, T., Azizbek, I., & Bobojon, O. (2021). Studying the effect of rotor-filter contact element on cleaning efficiency. Universum: технические науки, (6-5 (87)), 28-32.
2. Исомидинов, А. С. (2019). Исследование гидравлического сопротивления роторно-фильтрующего аппарата. Universum: технические науки, (10-1 (67)), 54-58.
3. Тожиев, Р. Ж., Исомиддинов, А. С., Ахроров, А. А. У., & Сулаймонов, А. М. (2021). Выбор оптимального абсорбента для очистки водородно-фтористого газа в роторно-фильтровальном аппарате и исследование эффективности аппарата. Universum: технические науки, (3-4 (84)), 44-51.

INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH KO‘RSATKICHLARINI HISOBLASH UCHUN DASTURIY TA’MINOTNI ISHLAB CHIQISHNING ASOSIY YO‘NALISHI.

G‘oipova Xumora Qobiljon qizi
TATU Farg‘ona filiali2-kurs magistranti

xumora.goipova1996@gmail.com

Bu tezisda, innovatsion faoliyatni boshqarishni baholash uchun ko‘plab indikatorlar haqida gapiriladi va ularni qanday hisoblash algoritmini aniqlashni yuzaga qo‘yish maqsadga olingan.

Bugungi kunda, innovatsion faoliyatni boshqarish muammolari, kompaniyalar va davlatlar uchun katta muammo bo‘lib qolmoqda. Innovatsion jarayonlar o‘z-o‘zini olib borishi va yagona metodlarga bo‘lishi mumkin emas. Bu sababli, innovatsion faoliyatni boshqarishning effektivligini baholashga yo‘l qo‘yish, o‘zida ko‘plab zaxiralari bilan birga keladi. Bu zaxiralar tahlil va hisoblash bo‘limlarida ishlovchi harakatlar va innovatsiyalar markazlarida ishlovchi mutaxassislar tomonidan yaratiladi.

Maqsad Bu tezda, innovatsion faoliyatni boshqarishni baholashning qanday amallari bilan birga, innovatsion jarayonlarni o‘z ichiga olgan innovatsion markazlarida ishlovchi mutaxassislar uchun muhim indikatorlar haqida gapiriladi. Bu indikatorlar o‘zaro bog‘liqdir va innovatsion faoliyatni boshqarishning turli jihatlarini baholashga yo‘l qo‘yishga yordam berishadi.

Metodologiya Bu tez innovatsion faoliyatni boshqarishning baholash indikatorlarini yig‘ishni va yagona o‘zgaruvchilarga qo‘llanishni talab qiladi. Innovatsion jarayonlarni o‘z ichiga olgan markazlarda, innovatsion faoliyatni boshqarishning mohiyati va turli xil jihatlarini baholash uchun, quyidagi muhim indikatorlar ko‘rsatiladi:

1. Innovatsion jarayonlar soni: Katta kompaniyalar uchun, bu indikator jarayonlar miqdorini ko‘rsatish uchun ishlatiladi. Jarayonlar soni, innovatsion faoliyatni o‘tkazishning eng muhim ko‘rsatkichidir.

2. Innovatsion jarayonlarning xarajatlari: Bu indikator innovatsion jarayonlarning bajarilishiga xarajatlar to‘plamidir. Bu xarajatlar, innovatsion jarayonlarning yaratilishidan, loyihalarni amalga oshirish va innovatsion mahsulotlarning ishlab chiqarilishiga qadar bo‘lgan barcha xarajatlarni o‘z ichiga oladi.

3. Innovatsion loyihalar soni: Bu indikator, bir nechta loyihalar yaratish imkonini o‘z ichiga oladi

Innovatsion faoliyatni boshqarishni baholash uchun dasturiy ta’minot yaratish uchun quyidagi qadamlar taklif etiladi:

Innovatsion faoliyatni boshqarishni baholash dasturiy ta’minoti yaratishda birinchi qadam, innovatsion jarayonlarni o‘rganish, baholash va tahlil qilishning zaruriyati bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rsatishdir. Bu tayyorgarlik jarayonlar miqdori, innovatsion loyihalar, xarajatlar va mahsulotlar bo‘yicha ma’lumotlar to‘plamini o‘z ichiga oladi.

1. Baholash dasturining tuzilishi: Baholash dasturiy ta’minoti tuzilishida, innovatsion jarayonlarni baholash uchun muhim indikatorlar belgilanishi kerak. Bu indikatorlar innovatsion loyihalar soni, innovatsion jarayonlar soni, innovatsion jarayonlarning xarajatlari, innovatsion loyihalar va innovatsion mahsulotlarning joriy mahsulot sifati, sotish miqdori, foydalanuvchilar soni va boshqa muhim ko‘rsatkichlardir.

2. Ma’lumotlarni tayyorlash: Baholash dasturiy ta’minoti uchun tayyorlangan muhim indikatorlar uchun ma’lumotlar tayyorlash zarur bo‘ladi. Bu ma’lumotlar innovatsion jarayonlar, innovatsion loyihalar, xarajatlar, mahsulotlar va boshqa ko‘rsatkichlardan to‘plangan ma’lumotlar bo‘lishi mumkin.

3. Dastur yaratish: Innovatsion faoliyatni boshqarishni baholash dasturiy ta’minoti, tayyorlangan ma’lumotlarni, baholash indikatorlarini va ko‘rsatkichlarni qo‘llab-quvvatlaydigan dastur yaratishni talab qiladi. Dastur, innovatsion jarayonlarning turli jihatlarini tahlil qilishi, innovatsion faoliyatni

boshqarishning samaradorligini baholashga yordam berishi, barcha muhim ko‘rsatkichlarni yagona platformada to‘plash va tarqatishga imkon berishi kerak.

4. Dasturni imtihon qilish va taqdim etish: Innovatsion faoliyatni boshqarishni baholash dasturiy ta’minoti yaratilgandan so‘ng, uni imtihon qilish va to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishga tushirish kerak.

Bu texnologiyaviy ta’lim bo‘yicha ko‘p yillardan beri xizmat qilgan bir dastur o‘zgaruvchilari va innovatsion faoliyatni boshqarishni baholash uchun kerakli indikatorlarni hisoblash uchun mo‘ljallangan bo‘lishi mumkin. Dastur bu maqsad uchun innovatsion faoliyatni boshqarish uchun ko‘plab indikatorlarni o‘z ichiga oladi va ularni turli ko‘rinishlarda hisoblashni qo‘llaydi.

Dastur tavsifi: Innovatsion faoliyatni boshqarishning baholash indikatorlarini xisoblash dasturiy ta’minoti, barcha muhim indikatorlarni ko‘rsatadigan va ulardan ma’lumot to‘plash, o‘zgartirish va hisoblash imkonini beradigan bir dastur hisoblanadi. Dastur foydalanuvchilarga, innovatsion faoliyatni boshqarishda muhim hisob-kitob elementlarini ta’minlashda yordam beradi.

Dastur quyidagi imkoniyatlarni ta’minlaydi:

1. Innovatsion jarayonlarni ko‘rsatish va hisoblash imkonini beradi.

2. Innovatsion jarayonlarning miqdorini va xarajatlarini hisoblash imkonini beradi.

3. Innovatsion loyihalar soni va uning bajarilishiga qaranganda xarajatlarni hisoblash imkonini beradi.

4. Innovatsion faoliyatning shu jihatlarini baholash imkonini beradi.

Dastur quyidagi funksiyalarni o‘z ichiga oladi:

1. Innovatsion jarayonlarning miqdorini hisoblash.

2. Innovatsion jarayonlarning bajarilishiga xarajatlarini hisoblash.

3. Innovatsion loyihalar sonini hisoblash.

4. Innovatsion mahsulotlarning ishlab chiqarilishini hisoblash.

5. Innovatsion faoliyatning effektivligini baholash.

Xulosa, foydalanuvchilarga ma’lumotlar bazasini yaratish, muhim ko‘rsatkichlarni ko‘rsatish, xisob-kitob va hisob-kitob elementlari ta’minlash uchun mo‘ljallangan. Ushbu dastur innovatsion faoliyatni boshqarish uchun kerakli barcha indikatorlarni yig‘ish va ularni turli ko‘rinishlarda hisoblash uchun qulay imkoniyatlarni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. X.Sh.Musayev, A.M.Kayumov. “Python dasturlash tili”, O‘quv qo‘llanma, Toshkent, Aloqachi nashriyoti 2020, ISBN 978-9973-5807-5-6, 144s.
2. Tozhiev, Tokhirjon Halimovich, et al. "Monte carlo method for constructing an unbelised assessment of diffusion problemS." European Science Review 1-2 (2020): 7-12.

INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH KO‘RSATKICHLARINI HISOBLASH UCHUN DASTURIY TA’MINOTNI ISHLAB CHIQISH O‘RGANILMOQDA..

G‘oipova Xumora Qobiljon qizi
TATU Farg‘ona filiali2-kurs magistranti

Bugungi kunda, innovatsion faoliyatni boshqarish muammolari, kompaniyalar va davlatlar uchun katta muammo bo‘lib qolmoqda. Innovatsion jarayonlar o‘z-o‘zini olib borishi va yagona metodlarga bo‘lishi mumkin emas. Bu sababli, innovatsion faoliyatni boshqarishning effektivligini baholashga yo‘l qo‘yish, o‘zida ko‘plab zaxiralari bilan birga keladi. Bu zaxiralar tahlil va hisoblash bo‘limlarida ishlovchi harakatlar va innovatsiyalar markazlarida ishlovchi mutaxassislar tomonidan yaratiladi.

Innovatsion faoliyatni boshqarishni baholash uchun dasturiy ta’minot yaratish uchun quyidagi qadamlar taklif etiladi:

Innovatsion faoliyatni boshqarishni baholash dasturiy ta’minoti yaratishda birinchi qadam, innovatsion jarayonlarni o‘rganish, baholash va tahlil qilishning zaruriyati bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rsatishdir. Bu tayyorgarlik jarayonlar miqdori, innovatsion loyihalar, xarajatlar va mahsulotlar bo‘yicha ma’lumotlar to‘plamini o‘z ichiga oladi.

Siz innovatsion faoliyatni boshqarish uchun dasturiy ta’minotni ishlab chiqishni o‘rganishni istaysiz. Bu maqsadga erishish uchun quyidagi ko‘rsatkichlarni hisoblash mumkin:

1. Yangiliklar nisbatan qisqa vaqt ichida ishlab chiqarilishi kerak bo‘lgan dasturlar yoki usullar.

2. Tashqi yozilishlar, talabnomalar va boshqa ma’lumotlar bilan yuqori darajada integratsiya qilinadigan dasturlar.

3. Dasturlarning hamjamiyatga mos ravishda tashkil qilinishi va ishlatilishi.

4. To‘liq tashqi qo‘llaniladigan va ishonchli muhim ma’lumotlar tuzilganini ta’minlash.

5. Dasturlarning hamkorlik, koordinatsiya va tarkibiylikni oshirish.

6. Dasturlarning ishga tushirishdan keyin yuqori darajada xavfsizlik va himoya tizimlarini o‘z ichiga olganligini ta’minlash.

7. Dastur tizimlarida va boshqa xizmatlarda zaruriy ma’lumotlarni yig‘ish, to‘plash va saqlash uchun kerakli tizimlar va vositalar tuzilishi.

8. Dasturlarni bajarishning qulay va oddiy usullarini ta’minlash.

Bu ko‘rsatkichlar, innovatsion faoliyatni boshqarish uchun dasturiy ta’minotni ishlab chiqishning yuqori darajada muhim aspektlarini bildirishadi. Bu ko‘rsatkichlarga asoslangan holda, dasturiy ta’minotni ishlab chiqish uchun tizimli va metodologik yondashuvlar tayyorlash kerak.

Innovatsion faoliyatni boshqarish uchun dasturiy ta’minotni ishlab chiqish uchun quyidagi usullar ishlatilishi mumkin:

1. Agile metodologiyasi: Bu metod, dastur tizimlarini ishga tushirish va o‘zgartirishning tezkor va qisqa muddatlar orqali amalga oshirilishi va kiritilgan talablarga javob berishga qodir bo‘lishni ta’minlaydi. Bu usulda, har bir foydalanuvchi va katta jamoalar birgalikda ish qilishi mumkin.

2. Waterfall metodologiyasi: Bu usul, bir-biridan farqli bosqichlarda ish olib boriladigan va har bir bosqichda ijro etilishi lozim bo‘lgan talablarni belgilashda ishlatiladi. Bu metodologiya proyektning barcha bosqichlarini planlash uchun mos keladi.

3. DevOps: Bu usul, dasturiy tizimlarning o‘zgartirishlarini tez va nisbatan xavfsiz tarzda ishga tushirishni ta’minlash uchun mashqiyat jarayonlarini avtomatlashni qamrab oladi. Bu usul, dastur tizimlarini ishga tushirish va uni xavfsiz tarzda turli platformalarda bajarishga imkon beradi.

4. Lean metodologiyasi: Bu usul, dastur tizimlarini ishga tushirish jarayonida foydalanuvchilar tomonidan tayyorlangan qiymatli ma’lumotlarni qo‘llash orqali ishning tizimli va tezlikni oshirishga qaratilgan. Bu usul, ish faoliyati jadvali va talabnomalar orqali ishga tushiriladi.

5. Spiral metodologiyasi: Bu usul, dastur tizimlarining ishga tushirilishiga yuqori darajada xavfsizlik va muvaffaqiyat ko‘rsatkichlarini ta’minlash uchun har bir bosqichda natijalarni tekshirish va yaxshilashni talab qiladi. Bu usul, har bir bosqichning yakuniga yetishish va uni boshqa bosqichlarga o‘tishni qo‘llab-quvvatlaydi.

Bu usullar bir-biridan farqli va mahalliy talablarga mos keluvchi bo‘lishi mumkin. Asosiy maqsad, innovatsion faoliyatni boshqarish uchun dasturiy ta’minotni ishlab chiqish jarayonida ixtiyoriy usullardan foydalanish orqali qisqa vaqt ichida yuqori darajada qimmatli va ishonchli dastur tizimlarini ishga tushirishni ta’minlashdir.

Xulosa, foydalanuvchilarga ma’lumotlar bazasini yaratish, muhim ko‘rsatkichlarni ko‘rsatish, xisob-kitob va hisob-kitob elementlari ta’minlash uchun mo‘ljallangan. Ushbu dastur innovatsion faoliyatni boshqarish uchun kerakli barcha indikatorlarni yig‘ish va ularni turli ko‘rinishlarda hisoblash uchun qulay imkoniyatlarni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. X.Sh.Musayev, A.M.Kayumov. “Python dasturlash tili”, O‘quv qo‘llanma, Toshkent, Aloqachi nashriyoti 2020, ISBN 978-9973-5807-5-6, 144s.
2. Tozhiev, Tokhirjon Halimovich, et al. "Monte carlo method for constructing an unbelised assessment of diffusion problems." European Science Review 1-2 (2020): 7-12.

BLOKNI AMALGA OSHIRISH UCHUN ASSOTSIATIV MUHIT TURINI TANLASH, NUTQNI ANIQLASH

G‘ulomova Diyora Iftixor qizi
TATU Farg’ona filiali 2-bosqich magistranti

Kompyuter xotirasi kompyuterda ma'lumotlarni yozish, o'qish va saqlash funktsiyalarini bajaradi. Saqlangan ma'lumotlarga kirish usuliga ko'ra, xotira manzilga kirish va assotsiativ bilan ajralib turadi. Maqsadli kirishda ma'lumotni saqlash muhitida joylashishini ko'rsatish kerak, assotsiativ kirishda esa ma'lumot uning mazmuni bo'yicha qidiriladi. Axborotga kirish assotsiatsiya mexanizmiga asoslangan xotira muhiti assotsiativ muhit deyiladi. Unda xotiraning uchta asosiy funksiyasidan tashqari axborotni haydovchidan olib tashlamasdan ham qidirish va qayta ishlash mumkin.

Assotsiativ kirish usuli quyidagilarni ta'minlaydi:

- barcha saqlangan ma’lumotlarga deyarli bir vaqtda kirish;
- axborot izlash vaqtining xotira sig‘imidan nisbiy mustaqilligi;
- axborotni qayta ishlash elementlarini bevosita kirish jarayonining o‘ziga kiritish;
- axborotni bevosita uni saqlash vositasida qayta ishlash.

Birinchi va eng oddiy assotsiativ saqlash qurilmasini (AMU) bir koordinatali AMS deb hisoblash mumkin, unda assotsiativ qidiruv faqat bitta koordinata bo'ylab mumkin edi. Assotsiativ muhitlarni rivojlantirishning navbatdagi bosqichi bir nechta koordinatalarni qidiradigan ko'p koordinatali CAMni ishlab chiqish edi.

Assotsiativ xotiraning keyingi rivojlanishi mantiqiy-xotira muhitini murakkablashtirish yo'lidan bordi: mahalliy aloqalarni joriy qilish, atrof-muhit hujayralarida ma'lumotlarni qayta ishlash uchun mikrooperatsiyalarni amalga oshirish. Bunday xususiyatlar mahalliy aloqalarga ega bo'lgan assotsiativ muhitga ega. U tasvirni qayta ishlashning turli algoritmlarini (bo'shliqlarni to'ldirish, filtrlash), butun sonlar ustida arifmetik amallarni amalga oshirdi.

This smart parking system project consists of Arduino, six IR sensors, one servo motor, and one LCD display. Where the Arduino is the main microcontroller that controls the whole system. Two IR sensors are used at the entry and exit gates to detect vehicle entry and exit in the parking area. And other four IR sensors are used to detect the parking slot availability. The servo motor is placed at the entry and exit gate that is used to open and close the gates. Also, an LCD display is placed at the entrance, which is used to show the availability of parking slots in the parking area.
When a vehicle arrives at the gate of the parking area, the display continuously shows the number of empty slots. If there have any empty slots then the system

opens the entry gate by the servo motor. After entering the car into the parking area, when it will occupy a slot, then the display shows this slot is full. If there is no empty parking slot then the system displays all slots are full and does not open the gate.

Working Principle

After assembling all components according to the circuit diagram and uploading the code to the Arduino board. Now place the sensors and servo motor at accurate positions.

There are four parking slots in this project, IR sensor-3, 4, 5, and 6 are placed at slot-1, 2, 3, and 4 respectively. IR sensor-1 and 2 are placed at the entry and exit gate respectively and a servo motor is used to operate the common single entry and exit gate. The LCD display is placed near the entry gate.

The system used IR sensor-3, 4, 5, and 6 to detect whether the parking slot is empty or not and IR sensor-1, and 2 for detecting vehicles arriving or not at the gate. In the beginning, when all parking slots are empty, then the LCD display shows all slots are empty.



Image 2. Smart Parking System Project Circuit Diagram/ Schematic

When a vehicle arrives at the gate of the parking area then the IR sensor-1 detects the vehicle and the system allowed to enter that vehicle by opening the servo barrier. After entering into the parking area when that vehicle occupies a slot then the LED display shows that the slot is full. In this way, this system automatically allows 4 vehicles.

In case the parking is full, the system blocked the entrance gate by closing the servo barrier. And the LED display shows that slot-1, 2, 3, and 4 all are full. When a vehicle leaves a slot and arrives at the gate of the parking area then the IR sensor-2 detects that vehicle and the system open the servo barrier. Then the LED display shows that the slot is empty. Again the system will allow entering a new vehicle.

References

1. mokosmart.com
2. electroduino.com
3. freeprojectz.com

PYTHONDA ARIFMETIK AMALLAR BAJARISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMLARI

Qadamova Zulayho
TATU FF magistri

Qodirova Zulfiyaxon
Farg'ona shahar 40-IDUM informatika fani o'qituvchisi

Axborot- kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish , zamonaviy dasturlar yaratish, raqamli iqtisodiyotni keng joriy etish ayni paytda eng dolzarb vazifalardan biridir. O'quvchilarga axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini singdirishda amaliy mashg'ulotlarning o'rni kattadir.

Amaliy mashg'ulotlarda o'qituvchi o'quvchilar bilan yakama-yakka muloqotda bo'ladi, ularni ishlashini, fanni o'zlashtirishini bevosita kuzatib boradi. Mashg'ulotni o'tkazish tartibi o'qituvchining kirish so'zidan, savol-javoblardan mustaqil ishidan iborat. Amaliy mashg'ulotda o'quvchi topshiriqni bajarish bilan birga nazariy va asosiy bilimlarni amaliyotga qo'llashga qaratadi. Natijada

o'quvchini amaliy mashg'ulotga algoritmlash, dasturlash haqida fikr yuritib topshiriqlarni yechishda mustaqil mulohaza yuritadilar. O'qituvchi o'quvchilarni bajargan topshiriqlarni baholashda ularga individual yonalish berib boradi.

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda "Muammoli vaziyat", "Dastur tahlili", "Natijalar tahlili" va "Qisqa kod" kabi metodlardan foydalanish dars samaradorligini oshiradi.

Topshiriqni pythonda "Dastur tahlili" metodi yordamida bajarib dasturni tahlil qilib natijani olamiz:



Topshiriq 2:
Ikki xonali sonlar ustida to'rt amalni (+, - , * , /) bajarish.
Topshiriqni pythonda bajarib natijani olamiz:



Bazan bir nechta amalni bitta satrga nuqtali vergul bilan ajratgan holda yozish mumkin.

a = 1; b = 2; print(a, b)

Buni ko`p ham qo`llamang! Yaxshisi bunday qilmang, o`qishga noqulay, bu usulda ham mashqlar bajarib ko'ramiz.

Topshiriq 3:

a=16;a+=5;print('a+=5 ',a)

```
a=16;a-=5;print('a-=5  ',a)
a=16;a*=5;print('a*=5  ',a)
a=16;a/=5;print('a/=5  ',a)
a=16;a//=5;print('a//=5  ',a)
a=16;a%=5;print('a%=5  ',a)
a=16;a**=5;print('a**=5  ',a)
```

Topshiriqni pythonda “Qisqa kod” metodida bajarib natijani olamiz:



Topshiriq 4: Besh xonali 48569 son berilgan, shu son birinchi raqamiga oxirgi ikki raqamini ko’paytiring

Topshiriqni pythonda “Natijalar tahlili” metodi yordamida bajarib natijani tahlil qilamiz:



Topshiriq 5: $y=6x+3a^2-14$ ifodani hisoblang, bunda $x=0.5$, $a=5$.

Topshiriqni pythonda bajarib natijani olamiz:



Qo’shimcha ma’lumotlar (“Muammoli vaziyat” metodi):

Uzun sonlarni kiritish.

Uzun sonlarni kiritishda, qulaylik uchun, raqamlarni pastki chiziq (_) yordamida guruhlash mumkin. Python - son tarkibidagi pastki chiziqlarni (_) inobatga olmasdan, uzun sonligicha qabul qiladi.

aholi_soni = 7_594_000_000 # o'zmizga qulay bo'lishi uchun shinday yozdik

print("Yer kurrasida", aholi_soni, " ga yaqin odam yashaydi")

Natija: Yer kurrasida 7594000000 ga yaqin odam yashaydi



Bir nechta o’zgaruvchiga qiymat berish (“Qisqa kod” metodi).

Birdaniga bir nechta o'zgaruvchiga qiymat berish uchun o'zgaruvchilar va ularga mos qiymatlar vergul (,) bilan ajratiladi:

x, y, z = 314, -6.25, -65

Yuqoridagi kod x ga 314, y ga -6.25, va z ga -65 qiymatini yuklaydi.



Mustaqil amaliy ish topshiriqlari:

1.-masala. Trapetsiyaning ikkita asosi 12 sm va *16 sm* hamda asosiga tushirilgan balandligi *8 sm* berilgan. Trapetsiyaning yuzi *s* ni hisoblash dasturini tuzing. (S=(a+b)*h/2)

2–masala. To’rtburchak tomonlari *18 sm* va 15 sm ga teng. Uning perimetri p va yuzi *s* ni hisoblash dasturini tuzing.

Tekshirish uchun topshiriqlarni pythonda bajarilishi :



O’quvchilar va mustaqil o’rganuvchilar ham yuqoridagi tipshiriqlarni bajarib , matematik misol va masalalarni yechishni o’rganib oladilar mustaqil ishlar yordamida bilimlarini sinab ko’radilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Informatika va axborot texnologiyalari. 9-sinf : uchun darslik/M.R.Fayziyeva, D.M. Sayfurov- Toshkent: Tasvir, 2020. - 110b
2. Python dasturlash asoslari. Anvar Narzullayev Toshkent “Akademnashr”-2021
3. Ta`lim saytlari: Python.org, uzedu.uz, www, maktab.uz

ZAMONAVIY AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA SANOAT KORXONALARIGA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING TADBIQI

Abdullayeva Mohigul Rahimjon qizi
Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Farg'ona filiali "Axborot texnologiyalari" kafedrasi assistenti.

Hakimov Ahror Abdimahamatovich
Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Farg'ona filiali "Axborot texnologiyalari" kafedrasi assistenti.

Mamlakatimizda o‘tkazilayotgan demokratik bozor islohotlarining va O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning diqqat markazida turgan eng – muhim ustuvor vazifalardan biri – milliy iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish sanaladi. Jumladan, “...milliy iqtisodiyotning tarkibida sanoat ulushini ko‘paytirish, yuqori texnologiyali sanoat va qayta ishlash tarmoqlarini jadal rivojlantirish, sanoatni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, har bir hududning sanoat

salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta’minlash, yangi sanoat korxonalari va kichik sanoat zonalarini tashkil qilish [1]” deb ta’kidlangan. Darhaqiqat, mamlakatimiz rahbari Sh.Mirziyoev mamlakatda mavjud iqtisodiyot tarmoqlari, xususan sanoat salohiyatini rivojlantirshning maqsadli dasturlari ijrosidagi kamchiliklarni tanqid qilgan holda “...islohotlarning qay darajada samara berayotganini ko‘rsatadigan maqsadli dasturlarni amalga oshirish natijadorligi. Bular qatorida sanoat va boshqa tarmoqlarni rivojlantirishning iqtisodiy va moliyaviy ko‘rsatkichlarini bo‘lgan ishlab chiqarish quvvatlarining ahvoli, xarajatlarni va tannarhni pasaytirish, mahalliylashtirish va rentabellik darajasini, mahsulot raqobatdoshligini so‘zsiz oshirishdir” deb ta’kidlaydi. Bugungi kunda zamonaviy axborot texnologiyalarsiz korxonalar faoliyatini rivojlantirish masalasini hech kim tassavvuriga ham sig‘dira olmaydi. Chunki hozirda axborot kommunikatsion texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib bormoqda, bu esa korxonalarga o‘z faoliyatiga yangi innovatsion texnika va texnologiyalarni kiritish, yuqori texnologiyalardan foydalanib raqobatbardoshligini oshirish vazifalarini yuklaydi. Mamlakatimizda «Aqlli shahar» texnologiyalarini joriy etish kontseptsiyasi qabul qilinib, unga ko‘ra «aqlli transport», «aqlli ta’lim», «aqlli tibbiyot», «aqlli energetika tizimi», «aqlli qurilish» «aqlli kommunal xo‘jalik», «aqlli uy», «aqlli hokimiyat», «aqlli mahalla» kabi loyihalar «Aqlli shahar» texnologiyalarini joriy etishning asosiy yo‘nalishlari sifatida belgilandi. SHu bilan birgalikda mamlakatimizning aksariyat korxonalarida AKTni joriy etish masalalarida bir qancha muammolar saqlanib qolmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasini faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yilidagi ijrosi bo‘yicha dasturda ham bunga katta ahamiyat qaratilgan. Albatta istiqlol yillarida mamlakatimizda iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari kabi sanoat tarmoqlari ham jadal rivojlangani holda nefть va gaz, kimyo sanoati, avtomobilsozlik sanoati, qurilish materiallari va farmatsevtika sanoati kabi yangi-yangi sanoat tarmoqlari shakllangani hamda rivojlangani holda bugungi kunda jahon bozoriga “O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan” tamg‘asi ostida minglab sanoat tovarlari taklif qilinmoqda. Bugungi kunda mamlakat YaIMda sanoatning ulushi 25,0 foizdan ortiqroqni, asosiy kapitalga investitsiyalar umumiy hajmida qariyb 38 foizni,

iqtisodiyotda band bo‘lganlar umumiy sonida 14,0 foizni tashkil etgani holda 2007-2016 yillarning o‘zida sanoat tarmog‘i yiliga o‘rtacha 8,5 foizdan ko‘proq o‘sib kelmoqda [3]. Albatta, yuqoridagi islohotlarning barchasining zamirida davlat va nodavlat sektor korxonalarining barqaror sur’atlarda innovatsion salohiyatini ro‘yobga chiqarib kelayotganligi yotadi. O‘zbekiston Respublikasida chuqur, keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilar ekan, uzluksiz huquqiy ta’lim tizimini shakllantirishga katta ahamiyat berilmoqda. Darhaqiqat, kelajagi buyuk davlatni qurish tafakkuri, dunyoqarashi o‘zgargan rahbar xodimlarimiz, mutaxassislarimizning faoliyatiga ko‘p jihatdan chambarchas bog‘liqdir. Shu bois, yangicha fikrlaydigan, o‘z xizmat sohasi va faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini samarali qo‘llay oladigan, yuksak malakali, chuqur bilimli rahbar xodimlarni tayyorlash bugungi kunda davr talabi bo‘lib qoldi. Zamonaviy hayotimizda axborot texnologiyalari ijtimoiy ishlab chiqarishning barcha jabhalarida faoliyat yurituvchi barcha turdagi tashkilotlarni boshqarishda qo‘llaniladi. Axborotni boshqarish texnologiyalarining eng ustun va aniq afzalliklari tijorat tashkilotlar amaliyotida paydo bo‘la boshladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Хакимов. Методика оценки эффективности внедрения erpсистем автоматизации на предприятии// TATU FF Respublika ilmiy-texnika anjumani -2022 //c- 525-529
2. Abdullayeva, M. (2022). In the information age, idea is opposed to idea, thought is opposed to thought. *All sciences*, *1*(6).
3. . E.O. Ismoilxon o‘g‘li, S.I.Ergashevich, X.S.Isroilovich Toifalangan ob'ektlarda axborotni himoya qilish tizimlari va vositalari - “Yangi asr innovatsiyalari” jurnali, 2022 y. 100 – 109
4. Abdullayeva, M. (2022). Big Data. История развития. Ахборот-коммуникация технологиялари ва телекоммуникациялари сохасида замонавий муаммолар ва ечимлар, 1(1).
5. A. Xakimov Sanoat korxonalarining ma’lumotlar bazalarini qayta ishlash texnologik jarayonlarini avtomatlashtirish// TDTU Respublika miqiyosidagi ilmiy-texnika anjumani// 2021 C-128-129 ".
6. Sobirovich, K. V., Mirzapulotovich, E. O., & Mirzaolimovich, S. M. (2022). Advantages of using LMS as a System for Monitoring, Evaluating and Monitoring Learning Outcomes. *International Journal of Development and Public Policy*, *2*(2), 1-5.

ZAMONAVIY O'QITISH USULLARI

X.X. Sadirova
TATU Farg`ona filiali 2-bosqich magistri

Kirish

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to`g`risida”gi 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son Qonunida[1] pedagog xodimlar ilmiy, ilmiy-tadqiqot va ijodiy faoliyatni amalga oshirish, eksperimental faoliyatda ishtirok etish, innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy qilishbelgilangan.

Maktablarda an'anaviy ta'lim tizimiga nisbatan zamonaviy o'qitish usullarini juda kamdan-kam uchratish mumkin, ammo xususiy maktablar, o'quv markazlari va boshqa shunga o'xshash tashkilotlarning faoliyatida yangi usullar tobora ko'proq paydo bo'lmoqda. Nima uchun bu usullar an'anaviy usullarga qaraganda ko'proq samaradorlikka ega. Ushbu maqolamizda biz innovatsion usullarning asosiy kamchiliklarini ham aytib o'tamiz, ularga e'tibor berish kerak.

Avvaliga shuni ta'kidlaymizki, zamonaviy o'qitish usullari an'anaviy usullardan farqli o'laroq, biroz boshqacha xususiyatlar bilan ajralib turadi, xususan:

• Zamonaviy o'qitish usullari allaqachon muayyan pedagogik loyihaga moslashtirilgan rivojlanish jarayonida. Rivojlanish muallifning o'ziga xos uslubiy va falsafiy qarashlariga asoslanadi

• Harakatlar, operatsiyalar va o‘zaro ta’sirlarning texnologik ketma-ketligi aniq kutilgan natija bo‘lgan maqsadlarga asoslanadi.

• Usullarni amalga oshirish o‘qituvchi va talabalarning shartnomaviy asosga ega bo‘lgan hamda differensiallashtirish va individuallashtirish tamoyillarini, shuningdek, insoniy va texnik salohiyatdan optimal foydalanishni hisobga oladigan faoliyatini nazarda tutadi. Majburiy komponentlar aloqa va dialoglar bo'lishi kerak

• Pedagogik usullar bosqichma-bosqich rejalashtiriladi va ketma-ket amalga oshiriladi. Bundan tashqari, ular har qanday o'qituvchi uchun mumkin bo'lishi, hamda har bir talabaning maqsadga erishishini kafolatlashi kerak.

• Usullarning ajralmas komponenti diagnostika muolajalari bo'lib, unda talabalar faoliyatini o'lchash uchun zarur bo'lgan vositalar, ko'rsatkichlar va mezonlar mavjud.

Zamonaviy o'qitish usullari ko'p hollarda psixologik va pedagogik asosga ega bo'lmasligi mumkin, shuning uchun ularni qandaydir yagona tarzda tasniflash juda qiyin. Ammo bu nafaqat ularning ta'lim faoliyatida qo'llanilishiga to'sqinlik qilmaydi, balki ushbu dasturning muvaffaqiyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi.

Masalan, o`qituvchilarning adolatsizlikligi, baholash tizimi, zerikarli darslar, ortiqcha uy vazifalar bularni hammasini zamonaviy o`qitish usillari bilan joyiga qo`yish mumkin.

Xo`p qanday qilib ta’limni yaxshilash mumkin?

Birinchi navbatda zamonaviy ta’limda nima yaxshi, nima yomonligini ajratib olishimiz kerak. Ba’zi fidokor, jonkuyar o`qituvchilar o`z o`quvchilariga qo`shimchi bilimlar berib ularning xalqaro olimpiadalarda sovrinli o`rinlarni olishlarini ta’minlamoqdalar.

Hozirgi zamon pedagogikasida **hamkorlik pedagogikasi** deb yuritiladigan pedagogika bor. Bunda o`quvchilar o`qituvchinig yordami va qo`llab-quvvatlashiga suyanadilar. O`qiruvchi o`quvchilarni sizlab, ularga yaxchi muomalada, hamda o`zining tengqurlaridek munosabatda bo`ladi.

Bundan tashqari yana bir usul borki, **teskari(yoki to`nkarilgan) sinf** deb nomlanadi. Bu model shu nom bilan 2007 yili AQShda paydo bo`lgan. Kolarada shtatining maktab o`qituvchilari Jonathan Bergmann va Aaron Samslar o`quvchilarga darsni video dars ko`rinishida uyda qulay shatoitda ko`rib o`rganishlarini taklif etgan. O`quvchilar sinfda bo`lganlarida savollar berishib baxs – munozara qilishardi, yoki laboratoriya ishlarini bajarar edilar.

Xozirgi kunda ixtiyoriy maktab yoki oliy o`quv yurti fanlaridan video darslarni internet tarmog`idan topish mumkin. Shuning uchun bilim olish bo`yicha muammo yo`q, lekin muammao uni o`zlashtirishda, ana shuning uchun ham xozirgi zamonda o`qituvchilar juda kerak. Demak, teskari sinf metodi o`quvchilarni axborotlar bilan ishlashga, tanqidiy fikrlashga ma’lumotlarni tahlil qilishga o`rgatadi.

Keys metodi. “Keys-stadi” texnologiyasi (ingliz tilida “case” – to‘plam, chemodan (chamadon), “study” – muammoli vaziyat) –vaziyatli tahlil yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish demakdir.

Ushbu texnologiya talabalarda aniq, real yoki sun’iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. U talabalarni bevosita har qanday mazmunga ega vaziyatni o‘rganish va tahlil qilishga o‘rgatadi. Uning negizida muayyan muammoli vaziyatni hal qilish jarayonining umumiy mohiyatini aks ettiruvchi elementlar yotadi. Bular quyidagilardir: ta’lim shakllari, ta’lim metodlari, ta’lim vositalari, ta’lim jarayonini boshqarish usul va vositalari, muammoni hal qilish yuzasidan olib borilayotgan ilmiy izlanishning usul va vositalari, axborotlarni to‘plash, ularni o‘rganish usul va vositalari, ilmiy tahlilning usul va vositalari, o‘qituvchi va talaba (talaba) o‘rtasidagi ta’limiy aloqaning usul va vositalari, o‘quv natijalari.

Trening Trening – bu shunday o`qitish usulidirki, bunda pedagogic jarayonning amaliy qismi asosiy hisoblanib, nazariy qismi ikkinchi darajali hisoblanadi.

O`ylab ko`ring-chi treningni yutuq tomonlari nimadan iborat? **Tekshirish.**

Treningni bosh va asosiy kamchiligi o`quvchilar uni oxirida kuzatilishi va ko`mak olishi kerak, aks holda olingan ko`nikma va malakalar yo`qoladi.

Modulli o`qitish

Modulli o`qitish– bu oquv ma’lumotlarini modul deb ataluvchi nisbatan mustaqil bo`laklarga bo`lish. Har bir modul o`zining maqsadi va ma’limotlatni taqdim etish metodini taklif etadi.

Modulli o`qitishning ijobiy tomoni uning tanlovchanligi, egiluvchanligi va uni tarkibidagi modullarni o`rnini almashtirish imkoniyati.

Salbiy tomoni oquv materiali turlicha o`zlashtirilishi va bir butun bo`lmasligi, hamda modullar ortasidagi mantiqiy bog`liqlikning yo`qolishi natijasida bilimning bo`laklarga bo`linishidir.

Masofaviy ta'lim

Masofaviy ta'lim - pedagogik jarayonda o'qituvchiga talabalarga o'qitish imkonini uzoq masofada joylashgan holda telekommunikatsiya vositalaridan foydalanib amalga oshirish.

Usulning **ijobiy** xususiyatlari - ko'p sonli talabalarni jalb qilish imkoniyati, uyda o'qish imkoniyati, o'quvchilar uchun darslar uchun eng mos vaqtni tanlash imkoniyati va o'quv jarayoni natijalarini turli sohalarga elektron ommaviy axborot vositalari yordamida o'tkazish qobiliyati.

Bu erda **kamchiliklar** pedagogik jarayonning texnik jihozlariga qo'yiladigan yuqori talablar, o'qituvchi va talaba o'rtasida vizual aloqaning yo'qligi va natijada ikkinchisining motivatsiyasining pasayishi hisoblanadi.

Rolli o`yinlar

Rolli o`yinlarlarning ma’nosi – oquvchilar tomonidan o`yin topshirig`iga mos o`rganilayotgan mavzu yoki predmet doirasida berilgan rolni bajarishdan iborat.

Rolli o'yinlar o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini oshiradi, boshqa odamlarning harakatlari motivlarini tushunishni yaxshilaydi va real vaziyatlarda yo'l qo'yiladigan keng tarqalgan xatolar sonini kamaytiradi.

Biroq, rolli o'yinlar odamlarni hayotda va kasbiy faoliyatda qaror qabul qilishga undaydigan chuqur motivlarni ochib bera olmaydi.

Juft bo'lib ishlash

Juftlik ish usuli talablaridan kelib chiqib, bir o‘quvchi ikkinchisi bilan juftlanadi va shu bilan yangi faoliyatni o‘zlashtirish jarayonida tashqaridan fikr-mulohaza va baholashni kafolatlaydi. Qoidaga ko'ra, ikkala tomon ham teng huquqlarga ega.

Juftlikda ishlash yaxshi, chunki bu o‘quvchiga o‘z faoliyatiga xolis baho berish va kamchiliklarini tushunish imkonini beradi. Bundan tashqari, muloqot qobiliyatlari rivojlanadi.

Kamchilik - sheriklarning shaxsiy nomuvofiqligi tufayli qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin.

Tajriba almashinuvi

Tajriba almashish usuli talabani boshqa o'qish joyiga (shu jumladan, boshqa mamlakatlarga) qisqa muddatga ko'chirish va keyinchalik qaytib kelishni o'z ichiga oladi.

Taqdim etilgan tajriba jamoaning hamjihatligiga, muloqot sifatini yaxshilashga va insonning dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi.

Usulning nochorligi yangi joyda shaxsiy va texnik qiyinchiliklar tufayli stressli vaziyatlarning yuzaga kelish ehtimolidir.

Aqliy hujum

Aqliy hujum usuli kichik guruhlarda birgalikda ishlashni o'z ichiga oladi, uning asosiy maqsadi berilgan muammo yoki vazifaning echimini topishdir. Hujumning boshida taklif qilingan g'oyalar dastlab hech qanday tanqidsiz yig'iladi va keyingi bosqichlarda muhokama qilinadi va ulardan eng samaralisi tanlanadi.

“Aqliy hujum” shu bilan samaraliki, u hattoki minimal bilim darajasi va kompetensiyalari to‘plamiga ega bo‘lgan o‘quvchilarning ham ishtirok etishiga imkon beradi, puxta tayyorgarlikni talab qilmaydi, o‘quvchilarda tez fikrlash va jamoaviy ishlarga jalb qilish qobiliyatini rivojlantiradi, minimal stress ta’sirini o‘tkazadi, o‘zini o‘zi tarbiyalaydi, muloqot madaniyati va munozaralarda ishtirok etish malakasini rivojlantiradi.

Guruhlarda ishlash

Talaba guruhlarda ishlaganda, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo`lishga, bir-biridan o`rganishga va turli nuqtai nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo`ladi.

Ta’limning kichik guruhlarda ishlash usuli “ta’lim beruvchi-ta’lim oluvchi” dialogidan voz kechishni va “ta’lim beruvchi-guruh-ta’lim oluvchi” ko`rinishidagi uch tomonlama o`zaro munosabatga o`tishni nazarda tutadi. O`quv guruhi tarkibi bo`yicha harakatchan kichik guruhlarga bo`linadi va ularning har

biri o`zicha o`quv materialini o`zlashtiradi. Tajriba shuni ko`rsatadiki, shu tufayli siz bilan ta'lim oluvchilar o`rtasida ancha mustahkam aloqa o`rnatiladi, shaxsiy va bir vaqtning o`zida ta'lim jarayonida jamoaviy ruhiy holat kuchayadi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining kamchiliklari:

- kuchsiz o'quvchilar bo'lganligi sababli kuchli o'quvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;
- barcha o'quvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo'ladi;
- guruhlararo o'zaro salbiu raqobatlar paudo bo'lib qo'lishi mumkin.
- Guruh ichida o'zaro nizo paydo bo'lishi mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Prezidentimiz tomonidan 2023 yil "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim" deb e'lon qilingan yilda butun e'tiborni ta'lim sifatini oshirishga qaratishmiz kerak bo`ladi. Buning uchun esa zamonaviy o`qitish usullaridan o`quv jarayonida keng foydalanishimiz zarur.

Adabiyotlar

1. "Ta'lim to`g`risida"gi O`zbekiston Respublikasi qononi 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son
2. Абдурахмонов С.М., Билолов И.Ў. "Кейс–стади" технологияси – ўқитишнинг замонавий технологик усули сифатида. Илмий – техника журнали ФарПИ 2019, спец.вып.№1.,ст 141-145
3. И.У.Билолов. Теория образования. (60611300(5350400) – учебное пособие для студентов для студентов профессионального образования в сфере ИКТ), издательство "Classic" – 2022. 418 стр.
4. Jurayev N. M., Xomidova N. Y., Yuldasheva X. X. SECURITY ANALYSIS OF Urban railway systems: the need for a cyber-physical perspective //cutting edge-science. – 2020. – С. 206.
5. Билолов И. Ў. и др. Таълим муассасаларида ахборот коммуникацион технологияларига оид фанларни ўқитишнинг замонавий усуллари //Eurasian Journal of Mathematical Theory and Computer Sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 11-15.
6. Mominova M. KIBERETIKANING ZAMONAVIY PSIXOLOGIK MUAMMOLARINI TAHLIL QILISH //Engineering problems and innovations. – 2023.
7. Muxtarov F., Turdimatov M., Mominova M. UMUMIY O'RTA TA'LIMGA KIBERXAVFSIZLIK FANINI TIZIMLI ISLOH

QILISHNING USTUVOR YO ‘NALISHLARI //Engineering problems and innovations. – 2023.
8. Xudoynazarov U. ELLIPTIK EGRI CHIZIQLI KRIPTOGRAFIK ALGORITMLARDA ELLIPTIK EGRI CHIQIZLARNING RATSIONAL NUQTALARINI HISOBLASHNING SAMARALI USULLARINI TADQIQ ETISH //Engineering problems and innovations. – 2023.
9. Umarjon o'g'li X. U. et al. STUXSNET, FLAME, WIPER ZARARLI DASTURLARI HAQIDA MA'LUMOTLAR. – 2022.

POTENTIAL THREATS IN THE MAIL STREAM

Nazirov Zaynobiddin Shavkatjon o’g’li
Toshkent Axborot tehnologiyalari Universiteti Farg’ona Filiali. Pochta tizimlari va tehnalogiyari yo’nalishi 1-kurs talabasi.

The purpose of this article is mainly to get more specific and important information about the Potential Threats in the Mail Streams. I think it is very urgent to know about these threats so that we are going to build the most effective and secure Postal Systems in Uzbekistan. In order to achieve this, I believe we are better to gain knowledge and experiences of developed countries. Therefore, I did some research on how the USA Postal System has been working on their Security System.

As it is clear, there is a wide range of potential threats that can be introduced into a facility by way of the mail center. Threats that involve CBRNE (chemical, biological, radiological, nuclear and explosive) substances are both dangerous and disruptive. Some, like white powder hoaxes and threatening letters, are merely designed to disrupt the activities of an organization or to express dissatisfaction with a particular individual or policy. The mail center screening process must be able to identify all of these threats and eliminate or reduce the risk they pose to an organization’s employees, facilities, and daily operations.

Here is question – what are chemical, biological, radiological, nuclear and explosive threats?

Chemical threats - Categories of chemical threats include nerve agents, blood agents, pulmonary (choking) agents, blister agents, industrial chemicals, and irritants. Chemical threats can be presented in solid, liquid or gaseous/vapor form. Chemical weapons present unique challenges for both those who are seeking to use them as weapons and for those who are trying to detect their presence in mail and packages. Because of their light weight, some gases can also be compressed into small containers that can be mailed using UzPS (Uzbekistan Postal System) drop boxes. Mail and package screening systems must therefore be capable of identifying the release of chemical agents and, to the extent possible, containing the exposure to limited areas within the mail center or mail screening facility.

Biological threats: Biological agents are now a well-known and recognized category of mail-borne threat as a result of the anthrax letters that were discovered in October 2001. In addition, the biological agents that cause anthrax, plague, smallpox, and tularemia are most widely recognized as potential mail-borne biological weapons. They can also be distributed through an aerosol method, although this would require a more sophisticated “bomb” enclosed in a flat or parcel. Due to their small size, and the high volumes of dust and paper residue common in most mail centers, biological agents can often go undetected by traditional visual inspections.

Radiological/Nuclear: Radiation threats include those produced by a nuclear detonation of some kind and those that are the result of unprotected exposure to radioactive material. Radiation can also be dispersed by combining a radiation source with a conventional explosive to create a “dirty bomb” that can be introduced into the mail stream as a package. Radiation detection systems that can be used in mail screening operations are capable of detecting and identifying various types of radiation particles (alpha, beta, and gamma).

Explosives There is a wide range of explosives that have been used in letter and parcel bombs. Military explosives such as C-4 and “det cord,” ammonium

nitrate, and most recently pentaerythritol tetranitrate (PETN)-based explosives are all readily available and commonly used. Fortunately, explosives have a variety of characteristics that can be used to help detect them. In addition to their appearance and density, explosive substances emit a vapor trace that can be collected from letters and packages by using explosive detection canine teams or modern electronic sensors.

Apart from those four types of physical threats in posting, there are some other dangers too. For example:

Dangerous Items and Contraband. Dangerous Items: In addition to items that are intentionally dangerous to the recipient, such as those discussed in the CBRNE above, mail can contain items that can cut or shock an individual when a letter is opened. Although unlikely to cause permanent harm, they do temporarily disrupt the activities of an individual or organization.

Hoaxes - consist of suspicious mail items that are designed to present the appearance of a dangerous substance or other threat, but do not contain the actual substance necessary to cause harm. Hoaxes can be as disruptive to a mail center or an organizational facility as an actual threat.

White Powder Envelopes - The most common type of hoax is the “white powder envelope.” Since the original anthrax letters, any white powdery substance can now be used to create the impression of anthrax. Sugar substitutes, baby powder, corn starch, and a myriad of other similar substances have successfully been used to simulate anthrax, leading to the evacuation of mail centers and office buildings. In addition, these hoaxes have also led to the writing of thousands of prescriptions for medications as a preventative measure for the employees of the mail operations.

And the last point I would like to mention is – threatening:

In conclusion, the threats which were mentioned above are likely to appear in any postal system centers both small or government-related ones. To evaluate

and detect these threats, I think we should create the most innovative and secure postal system so that Uzbekistan and its citizens can be safe in mailing.

The used materials.

1. Crime and security in postal supply chain (2010, at EPFL, Lausanne, Switzerland)
2. Best security postal system (*Kevin SCHALLER Researcher Cross-border Research Association)*
3. The web resources
4. https://www.tswg.gov
5. https://www.wikihow.com
6. https://www.namecheap.com

AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING ZAMONAVIY DASTURIY MAHSULOTLARINI O'RGANISH

Yigitaliyeva Kamolaxon Xamidullo qizi
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Fargona filliali talabasi

Tizim (sistema) deganda, yagona maqsad yo‘lida bir vaqtning o‘zida ham yaxlit, ham o‘zaro bog'langan tarzda faoliyat ko‘rsatuvchi elementlar (obyektlar) majmuasi tushuniladi. Demak, har qanday tizim biror-bir aniq maqsad yo‘lida xizmat qiladi. Masalan, sizga ma’lum bo‘lgan shahar telefon tarmoqlari tizimi, insondagi yurak-qon tomiri tizimi, asab tizimi va boshqalar sun’iy yaratilgan va tabiiy tizimlarga misol bo‘la oladi. Ularning har biri tizimga qo‘yiladigan barcha shartlarga javob beradi,ya’ni har biri o‘ziga xos yagona maqsad yo'lida faoliyat ko‘rsatadi va tizimni tashkil etuvchi elementlardan iboratdir.

Axborot tizimi — belgilangan maqsadga erishish yo'lida axborotni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va uzatish uchun qo‘llaniladigan usullar, vositalar va shaxslaming o'zaro bog‘langan majmuasidir.

Aynan ishlab chiqarish jarayonlari jadal takomillashadi. Ularning rivojlanib borishi bilan boshqarish ham murakkablashadiki, o‘z navbatida, u axborot tizimlarini takomillashtirish va rivojlantirishni rag‘batlantiradi.

Kibernetik yondashuvga muvofiq boshqaruv tizimi boshqaruv obyekti yig‘indisini (masalan, korxonalar, tashkilotlar va hokazo) va boshqaruv subyekti, boshqaruv apparatini o'zida namoyon etadi. Boshqaruv apparati

deganda,maqsadlarni shakllantiruvchi, rejalarni ishlab chiquvchi, qabul qilingan qarorlarga talablarni moslashtiruvchi, shuningdek, ularning bajarilishini nazorat qiluvchi xodimlar tushuniladi. Boshqaruv obyekti vazifasiga esaboshqaruv apparati ishlab chiqqan rejalarni bajarish kiradi, ya'ni boshqaruv tizimining o'zi shu ishlami amalga oshirish uchun tuzilgandir.

Qo'llanish sohasiga qarab, axborot tizimlarini quyidagi sinflarga ajratish mumkin:

• ilmiy tadqiqotlarni avtomatlashtirish va boshqarish;

• loyihalashtirishni avtomatlashtirish;

• tashkiliy jarayonlarni boshqarish;

• texnologik jarayonlarni boshqarish.

Axborotning jamiyatda va kundalik hayotimizda tutgan o'rni. Jamiyatni axborotlashtirish: mehnat, ilmiy tadqiqot, loyiha, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, aholiga xizmat ko'rsatishni avtomatlashtirish, tashkiliy-iqtisodiy boshqarishni avtomatlashtirish, ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini axborotlashtirish kabi sohalarni o'z ichiga oladi. Jamiyatda axborot ham bilim manbai, ham eng asosiy muloqot vositasi bo'lib hisoblanadi. Jamiyatni axborotlashtirishda radio, televideniye, ommaviy-axborot vositalari va Internet tizimining ahamiyati juda yuqoridir. Har kim har doim biror ishni bajarish yoki biror maqsadga erishish uchun axborotdan foydalanadi. Har bir inson ob-havo prognozini, transport vositalari qatnovi jadvalini, bank va biznes ma'lumotlarini hamda kundalik yangiliklardan xabardor bo'lishga muxtojdir. Agarda inson kundalik axborotlar va yangiliklardan xabardor bo'lmas ekan u jamiyatdan uzilib qolishi muqarrar.

Axborotning salbiy va ijobiy ta'siri. Axborotning ijobiy tomoni shundan iboratki, o'z vaqtida olingan to'g'ri va sifatli axborot turli sohalarda aniq qaror qabul qilish imkonini beradi. To'g'ri sifatli axborot insonlar, ayniqsa yoshlarning dunyoqarashini boyitishi, bilim olishi, zamonaviy bilimlar egasi bo'lishi imkonini beradi, zero Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek farzandlari sog'lom yurt qudratli bo'lur. Axborotning salbiy tomoni shundan iboratki, hozirgi kunda ayrim g'arb davlatlaridan kirib kelayotgan bizning milliy qadriyatlarimizga yot bo'lgan

axborotlar va qarashlar hamda insonlar ongini zaxarlovchi ma’lumotlar ham mavjud. Ayniqsa bunday ma’lumotlar Internet tarmog‘i orqali keng tarqalmoqda. Internet va SMS xabarlar orqali tarqalayotgan jamiyatimizga, 6 Discovering Computers 2016. Tools, Apps, Devices,and the Impact of Texnology. 691 page. qadriyatlarimiz va an’analarimizga, davlatchiligimizga zid bo‘lgan nojo‘ya axborotlar yoshlarning ongini zaxarlashi va ularni noto‘g‘ri yo‘llarga boshlashi mumkin. Bunday holatlarning oldini olish bizning vazifamizdir. Har doim axborotdan o‘rinli va to‘g‘ri foydalanish zarur.

Dasturiy mahsulotlaridan biri bo’lgan “Zoomrad” ilovasi haqida ma’lumot berib o’tamiz:

Zoomrad ilovasi 2 yil avval banklarning mobil dasturlari bozorida paydo bo‘lgan edi. Ilova o‘zbekistonliklarning e’tiborini mobil to‘lov tizimi va onlayn-banking tizimi imkoniyatlarini o‘zida jamlaganligi bilan qozona oldi.

Bugungi kunda Zoomrad ilovasidan 700 ming nafardan ortiq kishi foydalanib kelmoqda. Barcha kerakli funksiyalarga ega yoqimli va tushunarli interfeys — bunday muvaffaqiyatning asosiy sababidir.

2022 yil boshida joriy etilgan Face-ID yordamida tezkor identifikatsiya tizimidan o‘tgan foydalanuvchilarga onlayn-omonat ochish va ilovaning o‘zida kredit rasmiylashtirish imkoniyati taqdim etildi.

2022 yil 14 noyabr kuni ishga tushirilgan Zoomrad ilovasining yangilangan versiyasida foydalanuvchilar uchun yanada kengroq imkoniyatlar taqdim etildi va ko‘rsatilayotgan xizmatlar doirasi yanada kengaytirildi.

Zoomrad ilovasining ustun jihatlari:

Zoomrad ilovasi yordamida O‘zbekiston oliy o‘quv yurtlari shartnoma to‘lovini oson, tez va asosiysi, hech qanday komissiyalarsiz amalga oshirish mumkin.

“OTM shartnoma to‘lovi” xizmatini tanlab, talabaning JSHSHIR (PINFL) raqamini kiritsangiz, ilovaning o‘zi ta’lim muassasasi va shartnoma bo‘yicha qarzdorlik haqidagi barcha kerakli ma’lumotlarni topib beradi.

Zoomrad mobil ilovasida kartadan-kartaga pul o‘tkazmalari uchun (P2P) komissiya Uzcard to‘lov tizimida bor-yo‘g‘i 0,5% ni tashkil etadi, Humo va

“Aloqabank” kartalari o‘rtasidagi pul o‘tkazmalari uchun esa (P2P) komissiya umuman olinmaydi. Bundan tashqari, amalga oshirilgan har bir tranzaksiya uchun keshbek taqdim etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. R. Zulunov. Sun'yiy intellekt texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo”llanilishi. Xorazm Ma'mun akademiyasi habarnomasi, 11/3 2022, 163-166 b.
2. Р. Зулунов, А.Тиллаволдиев. Использование технологий искусственного интеллекта в образовательном процессе. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 2022, v.12, Nov, p.137–142.
3. R. Zulunov, D.Irmatova. Sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish. The journal of integrated education and research, 1(6), November 2022, p.53-56.
4. R. Zulunov, A. Tadjibaeva. Blended learning in higher education using LMS Moodle. Образовательный процесс, 2019, 5 (16), p. 5-9.
5. R.Zulunov, S.Xadjyev. Mifologiyadan mashinali o'rganishgacha: sun'iy intellekt tarixi. Tafakkur manzili, 2022 dekabr, 1 qism, 16-19 b.

ZAMONAVIY DASTURIY MAHSULOTLAR YARATISH VA SIFATINI YAXSHILASHDA DASTURLASH TILLARINI O‘QITISHNING O‘RNI

Ermatova Zarina Qaxramonovna
TATU Farg’ona filiali Dasturiy injiniring kafedrasi o‘qituvchisi, assistant

Bugungi kunda barcha xizmatlar avtomatlashtirilgan elektron xizmatlarga aylanmoqda. Oddiy savdo do‘koniga kirsangiz mahsulotlar narxini, o‘zgarganligini yoki bazasida yana qancha mahsulot borligini bilishingiz qiyin emas. Buning uchun savdo do‘konining kompyuterdagi ma’lumotlar bazasi shakllantirilgan va elektron ko‘rinishga keltirilgan saytiga murojaat qilishingiz mumkin. Ammo ko‘pchilik foydalanishi qulay va tushunarli bo‘lgan bu saytlarni yaratish uchun Web dasturchi kerak bo‘ladi.

Hozirda Oliy ta’lim muassasalarida o‘qitilayotgan dasturlash tillari bo‘yicha yetarli bilib egallay olgan talaba avtomatlashtirilgan tizimlarni loyihalay

olishi va yarata olishi muhimdir. Oliy ta’limning birinchi bosqichida Dasturlash 1 va Dasturlash 2 fanlari o‘qitiladi. Toshkent axborot texnologiyalari universiteti hamda filiallarida ushbu fanlar chuqur bilim va metodikalar asosida o‘qitib, o‘rgatilib kelinmoqda. Ushbu fanlarni o‘qitishdan oldin talabalarga Dasturlash tillarini tanlash imkoniyati beriladi. Shu bo‘yicha professor-o‘qituvchilar C, C++, C#, Java kabi dasturlash tillarining mohiyati va imkoniyatlari haqida taqdimotli ma’ruza darslarini o‘tib berishadi. O‘tilgan darslardan kelib chiqib talabalar yuqoridagi dasturlash tillaridan birini tanlaydilar. Talabalarning aksariyati C++ va Java dasturlash tillarini tanlashadi. Sababi C++ dasturlash tili bugungi kunda o‘z o‘rniga ega, dasturiy mahsulotlarni loyihalashda ko‘p foydalaniladigan dasturlash tillari sarasiga kiradi. C tilini Dennis Ritchie B dan keltirib chiqardi va uni 1972 yili ilk bor Bell Laboratories da, DEC PDP-11 kompyuterida qo‘lladi. C o‘zidan oldingi B va BCPL tillarining juda ko‘p muhim tomonlarini o‘z ichiga olish bilan bir qatorda o‘zgaruvchilarni tiplashtirdi va bir qator boshqa yangiliklarni kiritdi. Boshlanishda C asosan UNIX sistemalarida keng tarqaldi. Hozirda operatsion sistemalarning asosiy qismi C/C++ da yozilmoqda. C mashina arxitekturasiga bog‘langan tildir. Lekin yaxshi rejalashtirish orqali dasturlarni turli kompyuter platformalarida ishlaydigan qilsa bo‘ladi. 1983 yilda, C tili keng tarqalganligi sababli, uni standartlash harakati boshlandi. Buning uchun Amerika Milliy Standartlar Komiteti (ANSI) qoshida X3J11 tehnik komitet tuzildi. Va 1989 yilda ushbu standart qabul qilindi. Standartni dunyo bo‘yicha keng tarqatish maqsadida 1990 yilda ANSI va Dunyo Standartlar Tashkiloti (ISO) hamkorlikda C ning ANSI/ISO 9899:1990 standartini qabul qilishdi. Shu sababli C da yozilgan dasturlar kam miqdordagi o‘zgarishlar yoki umuman o‘zgarishlarsiz juda ko‘p kompyuter platformalarida ishlaydi. C++ 1980 yillar boshida Bjarne Stroustrup tomonidan C ga asoslangan tarzda tuzildi. C++ juda ko‘p qo‘shimchalarni o‘z ichiga olgan, lekin eng asosiysi u obyektlar bilan dasturlashga imkon beradi. Dasturlarni tez va sifatli yozish hozirgi kunda katta ahamiyat kasb etmoda. Buni ta’minlash uchun obyektli dasturlash g‘oyasi ilgari surildi. Huddi 70-chi yillar

boshida strukturali dasturlash kabi, programmalarni hayotdagi jismlarni modellashtiruvchi obyektlar orqali tuzish dasturlash sohasida inqilob qildi. C++ dan tashqari boshqa ko‘p obyektli dasturlshga yo‘naltirilgan tillar paydo bo‘ldi. Shulardan eng ko‘zga tashlanadigani Xerox ning Palo Altoda joylashgan ilmiy-qidiruv markazida (PARC) tuzilgan Smalltalk dasturlash tilidir.

Bugungi kunda ommalashgan va qulayliklarga ega bo‘lgan dasturlash tillaridan Python va Kotlin, Go kabilar ham Dasturiy injiniring yo‘nalishi talabalariga o‘qitilib kelinmoqda. Python sun’iy intelekt yo‘nalishida izlanayotgan o‘qituvchi va talabalarni yanada chuqur izlanishga chorlaydigan dasturlash tilidir. Sun’iy intlekt tushunchasi bu insonlarga yanada qulaylik yaratib beruvchi, imkoniyatlar tug‘diruvchi, masalalar va muammolar tezkor hal etuvchi tizimdir. Shuning uchun talabalarni ushbu tilga bo‘lgan qiziqishi yuqori hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida Oliy ta’lim muassasalarida o‘qitilayotgan dasturlash tillarini ko‘proq amaliy mashg‘ulotlarga ajratilgan soatlar miqdorini ko‘tarish, ishchi o‘quv rejada berilgan mavzularning maqsadiga erishish uchun yetarli darajada maxsus kompyuter xonalarini tashkil qilinishi, talabalarni ushbu yo‘nalishga qiziqishlarini ortirish maqsadida turli xil musobaqalarni tashkil etish maqsadga muofiq bo`lar edi. Hozirda bizning filialimizda ham ushbu yo‘nalish bo‘yicha keng qamrovli ishlar olib borilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. R. Zulunov. Preparing the educational process for the era of artificial intelligence. The journal of integrated education and research, Volume 1, issue 4, September 2022, p.261-263.
2. R. Zulunov. Use of artificial intelligence technologies in the educational process. Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS), Volume 3, Issue 10, Oct., 2022, p. 764-770.
3. Р. Зулунов, Подготовка образовательного процесса к эпохе искусственного интеллекта. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 2022, Oct., 11, p. 81-83.
4. Р. Зулунов. Что такое искусственный интеллект и как он

работает. Ta'lim_fidoyilari, 2022 noyabr 1 qism, 149-153 b.
5. R. Zulunov. Sun'yiy intellekt texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo”llanilishi. Xorazm Ma'mun akademiyasi habarnomasi, 11/3 2022, 163-166 b.
6. Р. Зулунов, А.Тиллаволдиев. Использование технологий искусственного интеллекта в образовательном процессе. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 2022, v.12, Nov, p.137–142.
7. R. Zulunov, D.Irmatova. Sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish. The journal of integrated education and research, 1(6), November 2022, p.53-56.
8. R. Zulunov, A. Tadjibaeva. Blended learning in higher education using LMS Moodle. Образовательный процесс, 2019, 5 (16), p. 5-9.
9. R.Zulunov, S.Xadjyev. Mifologiyadan mashinali o'rganishgacha: sun'iy intellekt tarixi. Tafakkur manzili, 2022 dekabr, 1 qism, 16-19 b.
10. R.Zulunov., M.Mahmudova. Sun’iy intellektning insoniyat faoliyatida tutgan o‘rni va neyrokibernetika sohasi. The journal of Integrated Education and Research, December 2022, 1(7), 2–7 b.
11. X. SH Musayev, ZQ Ermatova - Journal of Integrated Education and Research, 2022
12. X. SH Musayev, ZQ Ermatova, MI Abdurahimova - Journal of Integrated Education and Research, 2022
13. Z.Q Ermatova - Современные тенденции развития …, 2021

AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING ZAMONAVIY DASTURIY MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQARISHDA INFORMATIKA FANINING O’RNI

Muhammadjonova Nafisa Bahromjon qizi
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Fargona filliali talabasi

Axborot texnologiyalari (AT) — bu axborot jarayonlarini (axborotni yig'ish, saqlash, izlash, qayta ishlash, uzatish va h.k) turli xil vositalar yordamida boshqarishni tashkil etish usullaridir. Axborot texnologiyalari informatikaning predmeti hisoblanadi hamda boshqaruv amaliyotini o'tkazish, ishlab chiqarishni boshqarish, ilmiy izlanishlar va iqtisodivotda korxonalarning tashkil topishi. ularning texnik rivojlanishi natijasida milliy iqtisopdning yangi tarmoqlarini

yuzaga keltiradi. Axborot texnologiyalari iqtisodiy masalalarni hal etish quyidagi jarayonlarni o'z ichiga oladi:

1) axborotni yig'ish va ro'yxatdan o'tkazish;

2) axborotni tartiblash, tahlil qilish va uzatish;

3) ma’lumotlarni kodlashtirish;

4) ma’lumotlarni saqlash va izlash;

5) iqtisodiy axborotni qayta ishlash;

6) axborotni chop etish va axborotdan foydalanish;

7) qaror qabul qilish, boshqaruv ta ’sirini ishlab chiqish.

Axborot xususiyatlarini o'rganish hamda inson faoliyatining turli sohalarida foydalanish va tarqatish bilan shug'ullanadigan fan informatika deb ataladi. Informatikaning asosiy vazifasi — davlat boshqaruv organlarining, sanoat va tadbirkorlik hamda boshqa sohalardagi axborot ehtiyojini qondirish uchun moddiy-texnik bazani yaratishdir.

Axborot texnologiyalarining asosiy uchta yo’nalishi mavjud.

Birinchi yo’nalish - axborotni uzatish, yig’ish va qayta ishlashning texnik vositalarini rivojlantirish nazariyasi bilan bog’liq. U o’z ichiga hisoblash komplekslarini, lokal va global hisoblash tarmoqlari, aloqa nazariyasini olgan keng ilmiy-ommaviy sohadir.

Ikkinchi yo’nalish - ma’lumotlarni qayta ishlash bo’yicha har xil amaliy vazifalarni hal etish yuzasidan turli kategoriyadagi foydalanuvchilar uchun texnik vositalar bilan samarali ishlashni tashkil qilish imkonini beradigan, dasturiy ta’minotni ishlab chiqishga yo’naltirilgan, matematik va amaliy fanlar kompleksini o’z ichiga olgan dasturlashtirishdir.

Uchinchi yo’nalish – avtomatlashtirilgan usulda turli darajadagi vazifalarni hal etish modellari, algoritmlari, tartibi, texnologiyasini ishlab chiqish va tashkil qilishdir. Informatika o’zaro aloqador uch qismdan iborat: algoritmik vositalar, dasturiy vositalar va texnik vositalar.

Informatika (informatsiya) xabar, axborot, ma’lumotlarni jamlash, qidirish, saqlash, qayta ishlashning qonunlari va usullarini o'rganadi.

N. Vinner tomonidan kibernetikaga kiritilgan asosiy fikr inson faoliyatining turli sohalarida murakkab dinamik tizimlarni boshqarish nazariyasini ishlab chiqish bilan bog'liq. Kibernetika kompyuterlar mavjudligi yoki yo'qligidan qatiy nazar mavjuddir.

Kibernetika – texnik biologik ijtimoiy va turli boshqa tizimlarda boshqaruvning umumiy tamoyillari haqidagi fandir.

Informatika yangi axborotni ancha keng. kibernetika kabi turli obyektlarni boshqarish vazifalarini amaliy hal etmay. o'zgartirish va barpo etish jarayonlarini o'rganadi. Shu bois inlormatika haqida kibernetikadan ancha keng fan sohasi degan tasavvur hosil bo'lishi mumkin. Biroq, boshqa jihatdan, informatika kompyuter texnikasi bilan bog’liq bo'lmagan muam muammolar yechimi bilan ifodalanmavdi. Bu shubhasiz, uning umumlashtiruvchi xususiyatini cheklaydi.

Kibernetika nuqtayi nazaridan axborot obyektni boshqa bir obvektda aks ettirish jarayonini o'ziga mujassamlashtiradiki, bu narsa boshqaruvni amalga oshiradi, iqtisodiyotni rejalashtirishning iqtisodiy matematik usullaridan foydalanish, uni intensiv taraqiyot vo'liga solish imkoniyatini beradi. Informatika kompyuter texnikasi rivojlanishi tufayli yuzaga keldi, unga asoslanadi va usiz mavjud bo'la olmaydi. Kibernetika kompyuter texnikasining barcha yutuqlaridan unumli foydalansa ham, lekin obyektlarni boshqarishning turli modellarini yaratgan holda o'z-o'zicha rivojlanaveradi. Kibernetika va informatika tashqi jihatdan bir-biriga juda o'xshash bo'lsa ham, lekin:

• informatika — axborot va uni qayta ishlovchi texnikaviy, dasturiy vositalar xususiyatlariga asoslanadi;

• kibernetika esa — obyektlar modellarining konsepsiyalarini ishlab chiqish va qurishda xususan axborotdan keng foydalanishi jihatidan farqlanadi.

Informatika keng ma’noda insoniyat faoliyatining barcha sohalarida asosan kompyuterlar va telekommunikatsiya aloqa vositalari yordamida axborotni qayta

ishlashi bilan bog'liq fan, texnika va ishlab chiqarishning xilma-xil tarmoqlari birligini o'zida namoyon etadi. Informatikani tor ma’noda o'zaro aloqador uch qism — texnik vositalar (hardware), dasturiy vositalar (software) va algoritmli vositalar (brainware) sifatida tasavvur etish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Р. Зулунов. Что такое искусственный интеллект и как он работает. Ta'lim_fidoyilari, 2022 noyabr 1 qism, 149-153 b.
2. R. Zulunov. Sun'yiy intellekt texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo”llanilishi. Xorazm Ma'mun akademiyasi habarnomasi, 11/3 2022, 163-166 b.
3. Р. Зулунов, А.Тиллаволдиев. Использование технологий искусственного интеллекта в образовательном процессе. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 2022, v.12, Nov, p.137–142.
4. R. Zulunov, D.Irmatova. Sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish. The journal of integrated education and research, 1(6), November 2022, p.53-56.
5. R. Zulunov, A. Tadjibaeva. Blended learning in higher education using LMS Moodle. Образовательный процесс, 2019, 5 (16), p. 5-9.

MIJOZ-SERVER TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Sobirov Muzaffarjon Mirzaolimovich
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg‘ona filiali assistant

Turdaliyev Kamronbek Ilhomjon o'g'li
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg‘ona filiali talabasi

Piton (Python). Odamlar birinchi dasturlash tillari va qaysi tilni tanlash odamlar uchun osonligini muhokama qilganda, albatta Pitonga to‘xtaladilar. U 80-yillarda Gvido van Rossum (Guido van Rossum) tomonidan ishlab chiqilgan. U keyinchalik tilni hozirgi kunda tilning administratori hisoblangan notijoriy Piton Softveir Foundeyshinga (Python Software Foundation) bergan, tilning o‘zi esa ochiq-kodli va foydalanish uchun bepul, hattoki tijoriy dasturlar uchun ham. Piton odatda dasturchilarni qisqa vaqtda ko‘p miqdorda oson o‘qiladigan va funksional kodlarni yozishini ta’minlaydigan skript til sifatitida foydalaniladi, biroq u dinamik, hamda obyektga yo‘naltirilgan, protsedurali va funksional dasturlashni ham ta’minlaydi. Tez moslashuvchanligi hisobiga, Piton bugungi kunda yuqori darajada keng qo‘llaniladigan dasturlash tillaridan biri hisoblanadi.

Piton aynan dasturlash asoslaridan boshlamaydi, balki u sizga boshqa tillarni o‘rganish va ularda ishlashda yordam beradigan satr boshi, modullilik va nomlashning muhimligi kabi foydali narsalarni o‘rgatadi. Bu tilga ovoz berganlar Piton dasturchilar jamiyatining tilni o‘rgatishdan xursand ekanliklarini, shuning uchun ularda dastlabki o‘rganuvchilarga ko‘plab o‘quv qurollari va hujjatlar borligini ta’kidlab o‘tishgan. Rasmiy darsliklari qarab o‘rganishga qulay, foydali va amaliy.

C/C++. Ko‘pchilik ovozlar C dasturlash tiliga bo‘lganligi, C++ ga esa kamroq ovoz berilganligi uchun ularni birga qo‘yishga qaror qilinganki bu til C dan kelib chiqqan til hisoblanadi. C va C++ tillari mos ravishda qariyb 1970 va 80 – yillardan beri mavjud. C o‘z o‘rnida juda ham keng foydalanilgan, ommaviy, imperativ (buyruq tarzidagi) dasturlash tili bo‘lib, bu tildan rivojlantirilgan deyarli barcha tillarga kuchli ta’sir qilgan. Boshqa tomondan, C++ C tilini yanada rivojlantirib, unga virtual funksiyalar va andozalar bilan birga, klasslar kabi obyektga yo‘naltirilgan jihatlarni qo‘shdi. C++ bugungi kunda dunyoning eng mashhur dasturlash tillaridan biri bo‘lib, haligacha barcha narsada: video o‘yinlardan tortib samaradorlik dasturiy ta’minotlarigacha keng qo‘llaniladi. Garchi ko‘pchilik C dan boshlashga hech qanday sabab yo‘qligini tasdiqlasada, C++ ni tanlash C dan ko‘ra biroz qiyinroq. Hozircha, bu haqda bahslashmoqchi emasmiz.

Adabiyotlar.

1. Core Java 2 Volume I – Fundamentals, 7 th Edition, Cay S. Horstmann, Gary Cornell, Prentice Hall PTR, 2004
2. Learning Java, 3 rd Edition, Jonathan Knudsen, Patrick Niemeyer, O‘Reilly, 2005
3. Head First Java, 2 nd Edition, Kathy Sierra, Bert Bates, O‘Reilly, 2005

СОЗДАНИЕ МОБИЛЬНОЕ ПРИЛОЖЕНИЕ “FINDER” В ANDROID STUDIO

Равшанбеков Ш.Б.
студент 655-20 группы «Программный инжиниринг» Ферганский филиал ТУИТ

Ирматова Д.Б.
ассистент кафедры «Программный инжиниринг» Ферганский филиал ТУИТ

Android Studio — интегрированная среда разработки (IDE) на базе IntelliJ IDEA, которую Google называет официальной IDE для приложений Android.

В этом руководстве описана разработка приложений для android:

- Навигация между файлами с помощью проводника
- Установка файла AndroidManifest.xml
- Gradle
- Импорт файлов в проект
- Расширенный редактор макетов с функцией динамического превью
- Использование Logcat и Android Monitor для отладки приложений

Начало работы в Android Studio

Запустите Android Studio, в окне **Android Studio Setup Wizard** выберите **Start a new Android Studio project** (начать новый проект).

В окне **Create New Project** выберите **Application Name** (название приложения) как Fortune ball («Шар фортуны»), введите домен компании; в поле **Project location** выберите место в котором приложение будет сохранено. Кликните **Next**.

Перед вами окно Target Android Devices. Выберите Phone and Tablet. В поле Minimum SDK укажите API 15. Нажмите Next.

В окне **Add an activity to Mobile** выберите **Basic Activity**. Оцените все опции, в этом окне представлен обзор доступных макетов.

Кликните **Next**.

В окне **Customize the Activity**, скриншот которого размещен ниже, вы сможете изменить **Activity Name** (название активности), **Layout Name** (название макета), **Title** (общее название) и **Menu Resource Name** (название меню ресурсов). Оставьте значения по умолчанию и кликните **Finish**.

Через несколько секунд появится следующее окно:

На вашем устройстве или эмуляторе высветится такое же окно. Эмулятор функционирует как устройство, загрузка займет определенное время.

Это уже приложение. Ему многого не хватает, но сейчас уже можно переходить к следующему шагу.

Структура проекта и файла

Окно показывает файлы проекта.

В выпадающем меню (скриншот ниже) есть несколько фильтров для файлов. Основные — Project и Android.

Фильтр Project покажет все модули приложения — в каждом проекте присутствует как минимум один модуль. Среди модулей других типов есть модули из библиотек сторонних разработчиков, или модули других приложений Android (такие как приложения для Android Wear, Android TV). У каждого из модулей имеется свой набор характеристик, в т. ч. файл gradle, ресурсы и исходные файлы (java-файлы).

Примечание. Если проект не открыт, кликните вкладку Project на левой стороне панели, как показано на скриншоте. По умолчанию установлен фильтр Android, который группирует файлы по определенному типу. На верхнем уровне вы увидите следующие папки:

- manifests

- java
- res
- Gradle Scripts

В последующих разделах подробно описаны все эти папки, начиная с manifests.

Обзор AndroidManifest.xml

У каждого приложения под Android есть файл AndroidManifest.xml, который находится в папке manifests. Этот XML-файл сообщает вашей системе о требованиях приложения. Присутствие этого файла обязательно, т. к. именно он позволяет системе Android создать приложение.

Откройте папку manifests и AndroidManifest.xml. Двойной клик откроет файл.

Теги manifest и application нужны для manifest, появляются только один раз.

Каждый тег также определяет набор атрибутов, наряду с названием элемента. К примеру, некоторые атрибуты в application могут быть такими:

android:icon, android:label и android:theme

Среди прочего в manifest может появиться:

- uses-permission: запрашивает специальное разрешение, которое выдается приложению для корректной работы. К примеру, приложение должно запрашивать разрешение у пользователя, чтобы получить доступ к сети — в случае, если вы добавите разрешение android.permission.INTERNET.
- activity: сообщает об активности, которая частично отвечает за визуальный UI и логику. Любая активность, которая предусмотрена в приложении, должна добавляться в manifest — неотмеченную активность система не заметит, и она не будет отображаться в приложении.
- service: добавляет сервис, который вы собираетесь использовать, чтобы реализовать продолжительные операции или расширенные коммуникации

API с другими приложениями. Примером в данном случае может служить сетевой вызов, с помощью которого приложение получает данные. В отличие от активностей, у сервисов нет пользовательских интерфейсов.

- receiver: благодаря приемнику широковещательных сообщений приложение получает сигналы о системных сообщениях или сообщениях других приложений, даже когда другие компоненты приложения не запущены. Пример такой ситуации — батарея с низким уровнем заряда и уведомление об этом операционной системы.

Полный список тегов можно найти в manifest-файле на сайте Android Developer.

Список литературы

1. Кочкорова Гульнара Дехканбаевна. (2022). Золотой век исламского возрождения. Европейский журнал гуманитарных наук и достижений в области образования, 3(10), 127-129. Извлечено из https://www.scholarzest.com/index.php/ejhea/article/view/2808
2. Солиев Б. Н. Проблемы моделирования электронных торговых процессов на основе местных характеристик //Исследования молодых ученых. – 2020. – С. 8-11.
3. Nabijonovich S. B., Mahamatovich R. A. Prospects for the Development of Electronic Trade Processes Based on Local Characteristics //International Journal on Orange Technologies. – 2021. – Т. 3. – №. 3. – С. 305-309.

ПРОСТОЙ TELEGRAM-БОТ НА PYTHON

Ботиралиев Б

студент 655-20 группы «Програмный инжиниринг»Ферганский филиал ТУИТ

На Хабре, да и не только, про ботов рассказано уже так много, что даже слишком. Но заинтересовавшись пару недель назад данной темой, найти нормальный материал у меня так и не вышло: все статьи были либо для совсем чайников и ограничивались отправкой сообщения в ответ на сообщение пользователя, либо были неактуальны. Это и подтолкнуло меня на написание статьи, которая бы объяснила такому же новичку, как я, как

написать и запустить более-менее осмысленного бота (с возможностью расширения функциональности).

Самая простая и описанная часть. Очень коротко: нужно найти бота *@BotFather*, написать ему */start*, или */newbot*, заполнить поля, которые он спросит (название бота и его короткое имя), и получить сообщение с токеном бота и ссылкой на документацию. Токен нужно сохранить, желательно надёжно, так как это единственный ключ для авторизации бота и взаимодействия с ним.

Как уже было сказано в заголовке, писать бота мы будем на Python'e. В данной статье будет описана работа с библиотекой PyTelegramBotAPI (Telebot). Если у вас не установлен Python, то сперва нужно сделать это: в терминале Linux нужно ввести

```
sudo apt-get install python python-pip
```

Если же вы пользуетесь Windows, то нужно скачать Python с официального сайта .

После, в терминале Linux, или командной строке Windows вводим

```
pip install pytelegrambotapi
```

Теперь все готово для написания кода.Открывайте ваш любимый текстовый редактор, и давайте писать код бота!

Первое, что нужно сделать это импортировать нашу библиотеку и подключить токен бота:

```
import telebot;
bot = telebot.TeleBot('%ваш токен%');
```

Теперь объявим метод для получения текстовых сообщений:

```
@bot.message_handler(content_types=['text'])
def get_text_messages(message):
```

В этом участке кода мы объявили слушателя для текстовых сообщений и метод их обработки. Поле content_types может принимать разные значения, и не только одно, например

@bot.message_handler(content_types=['text', 'document', 'audio'])

Будет реагировать на текстовые сообщения, документы и аудио. Более подробно можно почитать в официальной документации Теперь добавим в наш метод немного функционала: если пользователь напишет нам «Привет», то скажем ему «Привет, чем я могу помочь?», а если нам напишут команду «/help», то скажем пользователю написать «Привет»:

```
if message.text == "Привет":
bot.send_message(message.from_user.id, "Привет, чем я могу тебе помочь?")
elif message.text == "/help":
bot.send_message(message.from_user.id, "Напиши привет")
else:
bot.send_message(message.from_user.id, "Я тебя не понимаю. Напиши /help.")
```

Данный участок кода не требует комментариев, как мне кажется. Теперь нужно добавить в наш код только одну строчку (вне всех методов).

```
bot.polling(none_stop=True, interval=0)
```

Теперь наш бот будет постоянно спрашивать у сервера Телеграмма «Мне кто-нибудь написал?», и если мы напишем нашему боту, то Телеграмм передаст ему наше сообщение. Сохраняем весь файл, и пишем в консоли

```
python bot.py
```

Где bot.py – имя нашего файла.

Теперь можно написать боту и посмотреть на результат(рис №1):



рис №2

Отправлять сообщения это несомненно весело, но ещё веселее вести с пользователем диалог: задавать ему вопросы и получать на них ответы. Допустим, теперь наш бот будет спрашивать у пользователя по очереди его имя, фамилию и возраст. Для этого мы будем использовать метод register_next_step_handler бота:

```
name = '';
surname = '';
age = 0;
@bot.message_handler(content_types=['text'])
def start(message):
if message.text == '/reg':
bot.send_message(message.from_user.id, "Как тебя зовут?");
bot.register_next_step_handler(message, get_name); #следующий шаг – функция get_name
else:
bot.send_message(message.from_user.id, 'Напиши /reg');

def get_name(message): #получаем фамилию
global name;
name = message.text;
bot.send_message(message.from_user.id, 'Какая у тебя фамилия?');
bot.register_next_step_handler(message, get_surnme);

def get_surname(message):
global surname;
surname = message.text;
```

```
bot.send_message('Сколько тебе лет?');
bot.register_next_step_handler(message, get_age);

def get_age(message):
global age;
while age == 0: #проверяем что возраст изменился
try:
age = int(message.text) #проверяем, что возраст введен корректно
except Exception:
bot.send_message(message.from_user.id, 'Цифрами, пожалуйста');
bot.send_message(message.from_user.id, 'Тебе '+str(age)+' лет, тебя зовут
'+name+' '+surname+'?')
```

И так, данные пользователя мы записали. В этом примере показан очень упрощённый пример, по хорошему, хранить промежуточные данные и состояния пользователя нужно в БД, но мы сегодня работаем с ботом, а не с базами данных. Последний штрих – запросим у пользователей подтверждение того, что все введено верно, да не просто так, а с кнопками! Для этого немного отредактируем код метода get_age

```
def get_age(message):
global age;
while age == 0: #проверяем что возраст изменился
try:
age = int(message.text) #проверяем, что возраст введен корректно
except Exception:
bot.send_message(message.from_user.id, 'Цифрами, пожалуйста');
keyboard = types.InlineKeyboardMarkup(); #наша клавиатура
key_yes = types.InlineKeyboardButton(text='Да', callback_data='yes'); #кнопка «Да»
keyboard.add(key_yes); #добавляем кнопку в клавиатуру
key_no= types.InlineKeyboardButton(text='Нет', callback_data='no');
keyboard.add(key_no);
question = 'Тебе '+str(age)+' лет, тебя зовут '+name+' '+surname+'?';
bot.send_message(message.from_user.id, text=question, reply_markup=keyboard)
```

И теперь наш бот отправляет клавиатуру, но если на нее нажать, то ничего не произойдёт. Потому что мы не написали метод-обработчик. Давайте напишем:

```
@bot.callback_query_handler(func=lambda call: True)
def callback_worker(call):
if call.data == "yes": #call.data это callback_data, которую мы указали при объявлении кнопки
.... #код сохранения данных, или их обработки
bot.send_message(call.message.chat.id, 'Запомню : )');
elif call.data == "no":
... #переспрашиваем
```

Вот и всё, сохраняем и запускаем нашего бота(рис №2)

:



рис №2

Литература:

1. R. Zulunov. Preparing the educational process for the era of artificial intelligence. The journal of integrated education and research, Volume 1, issue 4, September 2022, p.261-263.
2. R. Zulunov. Use of artificial intelligence technologies in the educational process. Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS), Volume 3, Issue 10, Oct., 2022, p. 764-770.
3. Р. Зулунов, Подготовка образовательного процесса к эпохе искусственного интеллекта. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 2022, Oct., 11, p. 81-83.

OTMDA YAGONA O‘QUV JARAYONINI BOSHQARISHNING AVTOMATLASHTIRISH

Abduqodirov Azizbek Anvarjon o‘g‘li
TATU FF, KIF, 2-kurs, 616-21 guruh,

Nabiyev Iskandar Farxodjon o‘g‘li
TATU FF, KIF, 2-kurs, 691-21 guruh

O‘quv mashg‘ulotlari jadvalini tuzish, uni kelishish va tasdiqlash uchun taqdim etish bo‘yicha ishlar o‘quv jarayonini tashkil etish bo‘yicha tartibga solinadigan dars jadvalida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi. O‘quv mashg‘ ulotlari jadvali har bir semestr uchun tuziladi va talabalar, kursantlar o‘qituvchilar tomonidan so‘zsiz bajarilishi shart. O‘quv mashg‘ ulotlarini rejalashtirishda semestrdagi fanlarni o‘rganishning mantiqiy ketma-ketligiga rioya qilish, o‘rganish qiyinligi bo‘yicha har xil bo‘lgan fanlarning almashinishini va turli xil ish usullarini (ma’ruza, seminar, laboratoriya ishlari, kompyuter xonasi). Ma’ruzalar o‘quv mashg‘ ulotlari jadvaliga o‘quv kunining boshida kiritilishi kerak

O‘quv mashg‘ulotlari jadvali quyidagi talablarni hisobga olgan holda tuzilishi kerak:

1. Jadval har oy uchun tuziladi va hafta davomida ish yuklamasi bo‘yicha bir xil va kun davomida uzluksiz bo‘lishi kerak;

2. Talabalar va kursantlar uchun majburiy fanlarning haftalik yuklamasi 36 akademik soatdan, ayrim hollarda 48 soatdan oshmasligi kerak;

3. Jadvaldagi o‘quv fanlarining nomlari tasdiqlangan ishchi o‘quv rejasida ko‘rsatilgan fanlarning nomlariga mos kelishi kerak;

4. Ma’ruzalar, qoida tariqasida, o‘quv kunining boshida jadvalga kiritilishi kerak, Laboratoriyalardagi mashg‘ ulotlar, maxsus mashg‘ ulotlar bir kunning o‘zida fan yo‘nalishiga qarab 6 soatdan oshmasligi kerak;

5. Jadvallarni tuzishda uslubiy va tashkiliy talablarni hisobga olish kerak, ularning aksariyati insonning fiziologik imkoniyatlaridan kelib chiqadi. Semestr oxirida kamroq ma’ruzalar va ko‘proq amaliy mashg‘ ulotlarni rejalashtirish tavsiya etiladi.

O‘qituvchilar tasdiqlangan dars jadvali bilan tanishishi kerak, bu o‘rta ta’lim muassasasida saqlanadigan dars jadvalining orqa tomonida imzo va tanishish sanasi bilan tasdiqlanadi. O‘qituvchining uzoq davom etgan kasalligi, xizmat safari, navbatdan tashqari ta’tilida individual fanlar bo‘yicha semestrning bir qismi uchun jadvalni o‘zgartirishga ta’lim muassasasi boshlig‘ i qarori bilan yo‘l qo‘yiladi. Jadvalga kiritilgan o‘zgartirishlar o‘rta ta’lim muassasasi metodisti (hujjat bo‘yicha mutaxassis) tomonidan qayd etiladi va bir yil davomida saqlanadi. Jadvalning bajarilishi uchun javobgarlik oliy ta’lim muassasasi o‘quv ishlari bo‘yicha bo‘lim boshlig‘i zimmasiga yuklanadi.

Hozirgi vaziyat shundan iboratki, juda kam dasturiy mahsulotlar universitetda jadval tuzish uchun zarur bo‘lgan funktsiyalarga mos keladi. Ushbu holat osongina maktab ta’limi universitetga qaraganda bugungi kunda “standartlashtirilgan” (o‘quv jarayonini tashkil etish ma’nosida) bilan izohlanadi. Universitetlar uchun jadval tizimlariga talab maktablarga qaraganda ko‘proq, ammo har bir universitetda o‘quv jarayonini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Yagona dasturiy ta’minotni yaratish mumkin emas va uchinchi tomon ishlab chiquvchilaridan maxsus mahsulotni yaratish qiymati asossiz katta. Shunday qilib, hech qanday dasturiy mahsulot sessiya davomida ham o‘quv jarayonini boshqarishga imkon bermaydi.

Universitetdagi jadval tizimi bir qator asosiy funktsiyalarni bajarishi kerak: - o‘qituvchilarni tanlash, talabalar guruhlarini tanlash, fanlarni tanlash; - ba’zi auditoriyalarni muayyan mavzularga biriktirish; - ularga bog‘ liq bo‘lgan murakkablikdagi intizomga cheklovlar kiritish o‘tkazilish chastotasi; - muayyan intizomni amalga oshirish imkoniyatini berish yoki bermaslik kerak bo‘lgan kunlar uchun ustuvorliklar va cheklovlarni kiritish o‘tkazish imkoniyati yo‘qligi; - resurslarni talabga ko‘ra qayta taqsimlash qobiliyati mavjudligi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak ushbu maqolada yoritilgan hamda taqdim etilayotgan avtomatlashtirilgan dars jadvali kelajakda barcha oliy harbiy ta’lim muassasalarida qo‘l kelishi ko‘zda tutilgan. Ushbu tizimni ishlash qobiliyati asosan kompyuter texnologiyalariga bog‘ langan holda amalaga oshiriladi. Tizimni faqatgina dars jadvali tuzadigan mutaxassis hodimgina boshqara oladi va undan tashqari tizimning xavfsizligi, unga kirishda parol so‘rash kabi bir qator

murakkabliklar amalga oshirilgan. Ma’lumotlar bazasiga to‘xtaladigan bo‘lsak avtomatlashtirilgan dars jadvalida barcha ma’lumotlarning hammasi SQL ma’lumotlar bazasida saqlanishi va har oy dars jadvali tuziladigan paytda yaratilgan dastur avtomatik ravishda SQL bazadagi ma’lumotlarni dars jadvalini tuzishdagi belgilangan katakchalarga yoyib berib avtomatlashtirilgan dars jadvalini bizga taqdim qilish qobiliyatiga ega.

Foydalangan adabiyotlar

1. Chris Roffey. Computer science. Programming book for Python. – USA: Cambridge university press. 2017, – p. 204
2. Chris Roffey. Python basics. Coding club. Level 1,2. – USA: Cambridge university press. 2012, – p. 85

TASVIRLARNI RAQAMLI QAYTA ISHLASH ALGORITMLARI

Ibadullayeva Zarnigor Ollayor qizi
Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti Urganch filiali 2-bosqich magistrant

Rahimov Baxtiyar Saidovich
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali biofizika va axborot texnologiyalari kafedrasi mudiri

Yusupov F
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Urganch filiali “Dasturiy injiniring” kafedrasi dotsenti, texnika fanlari nomzodi

Raqamli signallarni qayta ishlash (DSP) axborot texnologiyalarining muhim yo'nalishlaridan biridir. U turli xil tabiat signallarini qayta ishlashda keng dastur topadi. Birinchisidan deyarli ushbu yo'nalishga aylanish bosqichlari uning qo'llanilishi optik, radio va shunga o'xshash bir o'lchovli va ikki o'lchovli signallar edi: tasvirlar, gologrammalar, interferogrammalar, tomogrammalar va boshqalar. Bu ularning ulkan roli bilan bog'liq zamonaviy ilm-fan va texnologiyalarni, ayniqsa harbiy dasturlarni axborot bilan ta'minlashda signallar.

Ortogonal asoslarning asosiy xususiyatlaridan biri spektral omillarni aniqlash uchun tezkor algoritmlarning mavjudligidir. Tezkor algoritmlar arifmetik operatsiyalar miqdorini va kerakli xotira hajmini kamaytirishga imkon

beradi. Tezlikning oshishi signallarni raqamli qayta ishlash uchun ortogonal asoslardan foydalanish natijasida erishiladi [1, 2, 3,4]

Xaara funktsiyalari. Sizga imkon beradigan takrorlanish darajasi {har (n, m, t)}, shakli bor

har(0,0,t) = 1, t ∈[0,1);

$$\{har(r,m,t)\} = \begin{cases} 2^{r/2}, & \frac{m-1}{2^r} \le t < \frac{m-1/2}{2^r}; \\ -2^{r/2}, & \frac{m-1/2}{2^r} \le t < \frac{m}{2^r}; \\ 0, & \text{qolganlari bilan} \quad t \in [0,\ 1), \end{cases}$$

bu erda 0 ≤ r <log2 N va 1 2r≤ <m.

Xaara funktsiyasi. Shu tarzda olingan matritsalar Xaara konvertatsiyasi uchun ishlatiladi va H * (n) bilan belgilanadi, bu erda n = log2 N.



(1-Tasvir) - Xaara doimiy funktsiyalari

Xaara transformatsiya koeffitsientlari Yx(k), k = ..., 1,0, N -, 1kirish ketma-ketligini moslashtirish{x (m)} = {x) 0 (x) 1 (... x (N -) 1},transformatsiyasi natijasida olinadi bitta*n nNYx n = H Xqaerda H n - o'lchamdagi Xaara matritsasi (N × N).

$$H^*(3) = \begin{bmatrix} 1 & 1 & 1 & 1 & 1 & 1 & 1 & 1 \\ 1 & 1 & 1 & 1 & -1 & -1 & -1 & -1 \\ \sqrt{2} & \sqrt{2} & -\sqrt{2} & -\sqrt{2} & 0 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & \sqrt{2} & \sqrt{2} & -\sqrt{2} & -\sqrt{2} \\ 2 & -2 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 2 & -2 & 0 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & 2 & -2 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 2 & -2 \end{bmatrix}$$

N = 8 uchun diskret Xaara funktsiyalari Xaara o'zgarishi

Uolsh vazifalari. Uolshning diskret konvertatsiyasi 1923 yilda Uolsh to'liq ortonormal tizimni qo'lga kiritdi to'rtburchaklar funktsiyalar, bu Rademaxer funktsiyalari tizimini to'ldiradi va endi Uolsh funktsiyalari tizimi sifatida tanilgan. Kopgina Uolsh funktsiyalari odatda uchta guruhga bo'linadi, ular alohida funktsiyalarni joylashish tartibi (buyurtma turi) bo'yicha farqlanadi tizim. Odatda quyidagi buyurtmalar qabul qilinadi:[5]

chastota bo'yicha buyurtma berish (Uolshga ko'ra);

dyadik buyurtma (Paleyga ko'ra);

tabiiy buyurtma (Hadamard bo'yicha). Ushbu buyurtmalarning har biri quyida alohida muhokama qilinadi.



b)

2-Tasvir - Uolshga muvofiq buyurtma qilingan Uolsh funktsiyalari, N = 8 uchun: a-davomiy; b – diskret

Ui va iu va v tamsayılarning ikkilik tasvirida i-chi bitning v raqamlari mos ravishda, ya'ni.

$$u_{10} = (u_{n-1}u_{n-2}\cdots u_1u_0)_2 \quad \text{и} \quad v_{10} = (v_{n-1}v_{n-2}\cdots v_1v_0)_2 .$$

Keyin elementlar h_{uv}^{w} , matritsalar Hw(n) shakliga ega

$$h_{uv}^{w} = (-1)^{\sum_{i=0}^{n-1} r_i(u)v_i}; \quad u,v = 0,1,\ldots,N-1,$$

$$r_0(u) = u_{n-1}; \quad r_1(u) = u_{n-1} + u_{n-2};$$
$$r_2(u) = u_{n-2} + u_{n-3}, \ldots r_{n-1}(u) = u_1 + u_0.$$

Tezkor Uolshni o'zgartirish algoritmlari

Tezkor Uolsh-Hadamardni o'zgartirish algoritmi (FTA) transformatsiyani samarali hisoblash algoritmi Uolsh-Xadamard.

Matritsaga bo'linish yordamida algoritmni chiqarishni ko'rib chiqing holat N = 8. N = 8 uchun Uolsh-Hadamard transformatsiyasi formulasi

$$\mathrm{B}_x(n) = \frac{1}{N}\mathrm{H}_h(n)\mathrm{X}(n)$$

quyidagicha yozilgan:

$$\mathrm{B}_x(3) = \frac{1}{8}\mathrm{H}_h(3)\mathrm{X}(3),$$

bu erda Hh(n) - Hadamard matritsasi.

Bo’laklanishdan foydalanish

$$\mathrm{H}_h(k) = \begin{bmatrix} \mathrm{H}_h(k-1) & \mathrm{H}_h(k-1) \\ \mathrm{H}_h(k-1) & -\mathrm{H}_h(k-1) \end{bmatrix}, \quad k = 1,2,\ldots,h,$$

bu erda Hh(0) = 1 va n = log2 N, Hh(3) ni Hh(2) bilan ifodalash mumkin

$$\begin{bmatrix} B_x(0) \\ B_x(1) \\ B_x(2) \\ B_x(3) \\ B_x(4) \\ B_x(5) \\ B_x(6) \\ B_x(7) \end{bmatrix} = \frac{1}{8}\begin{bmatrix} \mathrm{H}_h(2) & \mathrm{H}_h(2) \\ \mathrm{H}_h(2) & -\mathrm{H}_h(2) \end{bmatrix} \cdot \begin{bmatrix} X(0) \\ X(1) \\ X(2) \\ X(3) \\ X(4) \\ X(5) \\ X(6) \\ X(7) \end{bmatrix}.$$

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Rakhimov BS, Mekhmanov MS, Bekchanov BG. Parallel algorithms for the creation of medical database. J
2. Phys Conf Ser. 2021;1889(2):022090. doi:10.1088/1742-6596/1889/2/022090
3. Rakhimov BS, Rakhimova FB, Sobirova SK. Modeling database management systems in medicine. J Phys
4. Conf Ser. 2021;1889(2):022028. doi:10.1088/1742-6596/1889/2/022028
5. Rakhimov B, Ismoilov O. Management systems for modeling medical database. In: ; 2022:060031.
6. doi:10.1063/5.0089711
7. Rakhimov BS, Khalikova GT, Allaberganov OR, Saidov AB. Overview of graphic processor architectures in
8. data base problems. In: ; 2022:020041. doi:10.1063/5.0092848
9. P. P. Kudryashov Algorithms for detecting a human face for solving applied problems of image analysis and
10. processing: author. dis. Cand. tech. Sciences: 05.13.01. - M, 2007.

AVTOMATLASHTIRISH TIZIMLARIDA MAGNITOELEKTRIK CHIZIQLI IJRO ELEMENTLARINI BOSHQARISH UCHUN YAKORIDAGI KUCHNI XISOBLASH MODELINI QURISH

Abdiyev Rasul Ernazar o'g'li
Toshkent davlat texnika universiteti doktoranti.

Magnitoelektrik chiziqli o‘zgarmas to‘k ijro elementlarini taxlil qiladigan bo‘lsak ishlash prinsipi va tuzilishiga ko‘ra turli shakilga ega bo‘ladi. Amalda ko‘rilayotgan magnetoelektrk chiziqli o‘zgarmas to‘k ijro elementi chiziqli ilgarilanma-qaytma xarakatlanuvchi qurilma bo‘lib, 1-rasmda ijro elementining yakori keltirilgan. Uning tarkibiga doimiy magnitlar, yakor va yo‘naltiruvchi o‘q kiradi. Ilgarilanma-qaytma chiziqli harakatni bir dona katushka asosida vujudga keltrish uchun doimiy magnitlardan foydalanilgan.

Yakor silindrsimon po‘lat o‘zak va unga o‘ralgan cho‘lg‘amni o‘z ichiga oladi va uning ikki tarafiga disksimon doimiy magnitlar o‘rnatilgan bo‘lib, yakor magnitlar oralig‘idagi yo‘naltiruvchi o‘q bo‘ylab chiziqli xarakatlanadi. Qurilma korpusi ichida joylashgan silindrsimon yakor o‘q bo‘ylab harakatlanishi mumkin, magnitoelektrik ijro elementida xarakatni amalga oshiruvchi kuchning yo‘nalishi

va shunga mos ravishda ishchi organning harakat yo‘nalishi yakor chulg‘ami qutublariga berilgan tok kuchi yo‘nalishi bilan belgilanadi. Yakorning elektromagnit kuchini quyidagi model orqali hisoblaymiz [1].



1-rasm. Chiziqli magnitoelektrik o‘zgarmas to‘k ijro elementi yakorining ko’rinishi.

Bu yerda: F - yakor tomonidan hosil qilingan elektromagnit kuchning kattaligi; n - yakor chulg‘amidagi sim o‘ramlari soni (tajriba qurilmasi uchun n =100); I - g‘altakdan o‘tadigan tok oqimning kuchi (I =1 A); m - magnit doimiysi (m = 4 * π * 10-7); S - yakor o‘zagining ko‘ndalang kesimi yuzasi (S =0.01 m2); l – yakor bilan tasirlashuvchi elementlar orasidagi masofaning turli qiymatlarida yakorning elektromagnit tortish kuchini o‘lchash natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

Yuqoridagi hisob-kitoblar asosida har qanday katushkaning elektromagnit kuchuni aniqlash mumkin bo‘lib shu elektromagnit kuchga asosan katushkaning o‘lchamlarini, unga o‘raladigan simlarning ko‘ndalang kesim yuzasini, simning uzunligini va katushka bilan tortiladigan doimiy magnit orasidagi maksimal masofani aniqlash hamda yakorning optimal parametrlarini tanlash imkonini beradi [2].



2-rasm. Magnitoelektrik chiziqli o‘zgarmas to‘k ijro elementi yakordagi magnit kuchuni hisoblash modeli.

1-jadval

$l\ [m]$	,001	,002	,003	,004	,005	,006	,007	,008	,009
[N]	2.8	5.7	.98	.92	.51	.74	.28	.98	.77

Katushkaning ta’sir kuchi doimiy magnitlar bilan katushka orasidagi masofning kvadratiga teskari proporsional ekanligi va elektromagnit kuchning qiymati masofaning ortishiga teskari proporsianal ravishda kamayib borishini korishimiz mumkin. O‘tkazilgan tajribalar asosida magnitoelektrik chiziqli o‘zgarmas to‘k elementlari yakoridagi tortish kuchi uning doimiy magnitlarning bir turdagi qutiblari orasida xarakatlanishi sababli quyida keltirilgan simmetrik grafik ko‘rinishiga ega bo‘lshi aniqlandi [3].



3-rasm. Magnitoelektrik chiziqli o‘zgarmas to‘k ijro elementi yakor kuchining o‘zgarish grafigi.

Ushbu grafik elektromagnit yakor va doimiy magnitlar orasidagi tasir kuchining maksimal qiymati orqali yakor va doimiy magnitlar orasidagi masofaning optimal kattaligini tanlash imkoniyatini beradi.

Adabiyotlar

1. Magnitoelektrik chiziqli dvigatel. № FAP 02125, Foydali model., Abdullayev M.M., Nazarov X.N., Yusupov B.B., Abdiyev R.E.
2. https://doi.org/10.5281/zenodo.7326258
3. https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/viyew/100

NEFT MAHSULOTLARINI EKSTRAKSIYALASH JARAYONINI MODELLASHTIRISH VA BOSHQARISH USULLARINI TAHLILI.

Uzoqov Barxayotjon Muxammadiyevich
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari Universiteti doktoranti.

Neft mahsulotlarini ekstraksiyalash jarayonini boshqarish sifatini oshirish uchun dastlab jarayonga ta’sir etuvchi asosiy faktorlarni, ularning o‘zaro bog‘liqligi va ta’sirini aniqlash zaruriyati tug‘iladi. Shu nuqtai nazardan neft mahsulotarini ekstraksiyalashda sodir bo‘ladigan jarayonlar va ularning hususiyatlari amalga oshiriladi.

Tahlillar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, jarayonning xususiyatlarini o‘rganishda nafaqat unga ta’sir etuvchi tashqi omillar, balki jarayonning fizikaviy xususiyatlarini ham hisobga olish ishlab chiqiladigan matematik model aniqligini yana ham oshiradi. Ushbu omillarni hisobga olish asosida boshqarish sistemasini ishlab chiqish jarayoni texnologik reglamentga mos bo‘lishini ta’minlash imkonini beradi. Yana shuni alohida ta’kidlash joizki, jarayonga ta’sir etuvchi omillar asosan tasodifanlik xususiyatiga ega bo‘lib, ularning ta’sirini ham jarayonning matematik modelini qurishda inobatga olish muhim rol o‘ynaydi.

Odatda texnologik ob’yektlarni boshqarishda boshqariluvchi jarayonlarning ma’lumotlarning noaniqligini hisobga olgan holda ularning matematik modellarini ishlab chiqish asosiy rol o‘ynaydi. Sodir bo‘ladigan barcha noaniqliklar faqatgina o‘lchash yoki tajribaning xatoligi bilan bog‘lanmagan, va jarayonning o‘zigagina hosdir. Chunki ular jarayonning dinamik hossalarini xarakterlaydi. Ma’lumotlar to‘liq bo‘lmaganda yoki qisman

va ziddiyatli ma’lumotlar turli hil noaniqliklarni keltirib chiqaradi. Real jarayonga mos keluvchi yuqori aniqlikdagi modellar murakkab ko‘rinishga ega bo‘lib, ular yuqori sifatli boshqarish qonuniyatlarini tanlash imkoniyatini bermaydi. Chunki ular ob’yektning hossalarida mavjud noaniqliklar hamda ob’yekt faktorlarining o‘zaro bog‘liqligini to‘liq hisobga olish imkoniga ega emas. Shuning uchun modelga noaniqlik elementining kiritilishi ularni boshqarish uchun foydalanishda qo‘llaniladigan matematik modellarni yanada aniqroq qurishni talab etadi.

Hozirgi kunda ekstraksiya jarayonini matematik modellashtirish avtomatlashtirilgan boshqarish sistemalarini qurishga mo‘ljallangan muhim ilmiy-texnik masalalardan biridir. Bunda ekstraktor kolonnasi chiqishidagi moyning konsentrasion qiymatlarini hisoblash uchun kirish o‘zgaruvchilarini tabiatini matematik ravishda tahlil qilish zaruriyati tug‘iladi. Tozalanmagan moy komponentlari ekstraktordagi massa bilan aralashishi asosida ekstraktorning to‘liq xajmi bo‘ylab moddalarning bir hil konsentrasion tarkibini ta’minlash zarur ya’ni:

$$\frac{\partial C}{\partial t} = \left(C_{кир} - C\right)\frac{1}{\tau} - k_0 C,$$

bu yerda τ - dastlabki moddaning ekstraktorda bo‘lish vaqti, k0 - normal sharoitlarda kimyoviy reaksiya tezligining doimiysi, Skir - ekstraktor kirishidagi modda konsentrasiyasi, S – ekstraktor chiqishidagi modda konsentrasiyasi.

Shuningdek ob’yektdagi jarayonlarning o‘zaro aloqalarini hisobga olishning murakkabligi bilan ta’riflanadigan ekstraksiyalash jarayonini modellashtirish va uning asosida boshqarish murakkab masalalardan biri hisoblanadi. Bunda ekstraktorda sodir bo‘layotgan asosiy kimyoviy jarayonlar, ularning tezliklari va hosil bo‘layotgan moddalar konsentraksiyalarini inobatga olish zarurdir. Shuning bilan birga ekstraksiyalash jarayonidagi texnologik parametrlarni boshqarishda foydalaniladigan modelning absolyut aniqligi muhim ahamiyat kasb etmaydi balki, uning stabilligini yuqori sifatli ta’minlash algoritmlari asosida sintezlash masalasi mavjud bo‘lishi lozim. Shuning uchun chiqish kattaligini nominal qiymatlarda (texnologik reglamentga mos ravishda) ushlab turish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda jarayonlarda sodir bo‘ladigan noaniqliklarni hisobga olish muhim o‘rin egallaydi. Shuning uchun ekstraksiyalash jarayonini tadqiq etish uchun sun’iy intellekt usullari tahlil qilib chiqilgan.

Dinamik ob’yektlarni boshqarish muammolariga tatbiq etilgan sun’iy intellekt usullarini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish uchun zamonaviy sistemalarning qo‘llanishi nafaqat o‘ta zamonaviy usullardan foydalanishni, balki har xil usullardan biri doirasida samarali kombinasiyani, shuningdek, ekspert sistemaning elementlaridan foydalanishni talab qiladi. Bu shuni anglatadiki, analitik va simulyasiya modellaridan tashkil topgan yagona axborot bazasini yaratish zarur.

Neyron tarmoqlari universal aproksimatorlar sifatida kuchli matematik modellashtirish vositalaridir. Ularning noravshan-mantiq bilan birikishi ishlab chiqilayotgan neyro-noravshan boshqarish sistemalariga qo‘shimcha moslashuvchanlik va funksionallik beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Lukas V.A. Osnovы fuzzy-upravleniya. – Yekaterinburg: UGGGA. – 2000. – S.62.
2. Makarov, I.M. Iskusstvennыy intellekt i intellektualnыye sistemы upravleniya / Makarov I.M., Loxin V.M., Manko S.V., Romanov M.P. – Otdeleniye inform texnologiy i vыchislit.sistem RAN. – M.: Nauka. – 2006. – S.333.
3. Mamasodikova N.Yu. Algoritm osenki texnologicheskix sostoyaniy nefteximicheskix ob’yektov // Nauchno-texnicheskiy jurnal FerPI. Tom 24.№2 – 2020. – S.112-117.
4. Mamasodikova N.Yu. Razrabotka algoritma analiticheskogo kontrolya texnologicheskix parametrov dinamicheskix ob’yektov // Izvestiya Yugo-Zapadnogo gosudarstvennogo universiteta. Nauchnыy jurnal Tom 9 № 4. – 2019. – S.153-163.
5. Mamasodikova N.Yu. Adaptivnыy analiticheskiy texnologicheskiy kontrol parametrov prosessa ekstraksii masel / Mejdunarodnaya nauchnaya konferensiya. Buxarskiy Injenerno-texnologicheskiy institut. Tom №1. – 2019. 14-16 noyabr. – S.349-351.
6. Mamasodikova N.Yu. Neft kimyosi ishlab chiqarishlarni texnologik monitoringi va boshqaruvi masalalaridagi noaniqlik va mavhumlik / Andijon mashinasozlik instituti. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. – 2020. – S.493-499.
7. Mamasodikova N.Yu., Mirjalilov O.I. Neft mahsulotlarini ekstraksiyalash jarayonini modellashtirish / Namangan muhandislik-texnologiya instituti Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. – 2021. 24-25 iyun. – S.577-578.

MEZON KO‘RINISHIGA BOG‘LIQ BO‘LMAGAN INFORMATIV BELGILAR FAZOSINI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Asrayev Muhammadmullo Abdullajon o‘g‘li
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg‘ona filiali Dasturiy injinirng kafedrasi assistenti

Mezon ko‘rinishiga bog‘liq bo‘lmagan usullardan asosiysi va har doim mukammal yechimga erishtiruvchisi bu to‘la tanlov usulidir. Mazkur usulda katta hajmdagi hisoblashlar bajarilishi usulning asosiy kamchiliklaridan biridir. U $C_N^{\ell} = \frac{N!}{\ell!(N-\ell)!}$ ta ℓ informativ vektorlarni qurish bilan birga ularga mos ajratuvchi mezon qiymatini hisoblash hamda ulardan ekstryemum qiymatni ajratib olish zarur. Informativ belgilar majmuasini to‘la tanlov usulida aniqlashdagi hisoblashlar soni $2C_N^{\ell} - 1$ ga teng bo‘ladi.

Belgilar soni o‘ta katta bo‘lgan hollarda qisman tanlovga asoslangan suboptimal yechimlarni beruvchi usullardan foydalanish tavsiya etiladi. Qisman tanlovga asoslangan usullar mukammal informativ belgilar majmuasini ajratmasada, biroq kam ta’sir etuvchi belgilar majmuasini yechimda qatnashmasligini ta’minlaydi.

Informativ belgilarni tanlab olish uchun $\lambda = (\lambda_1, \lambda_2, \ldots, \lambda_N)$ vektordan foydalaniladi. Bunda $\lambda_i \ (i = \overline{1, N})$ bir yoki nol qiymatni qabul qiladi va informativ belgilar majmuasidan shu belgini mos ravishda ishtirok etishi yoki ishtirok etmasligini aniqlaydi.

«Ketma-ket orqaga ajratish» usuli bir necha adabiyotlarda batafsil yoritilgan. Bu usul quyidagi tartibda informativ belgilar majmuasini aniqlaydi:

Dastlab, $\sum_{j=1}^{N} \lambda_j = N - 1$ bo‘lgan barcha λ vektorlarga mos I(λ) qiymatlar hisoblanadi va eng katta qiymat beruvchi λ vektor ajratiladi. Ajratib olingan λ vektorning nol komponentasiga mos keluvchi belgi belgilar fazosidan chiqarib tashlanadi va N o‘lchovli belgilar fazosidan N-1 ga o‘tib olinadi.

Yuqoridagi jarayon ikkinchi, uchinchi va hokazo marta davom ettirilib belgilar fazosi o‘lchami ℓ bo‘lganda to‘xtatiladi. Bu usuldagi amallar soni

$\frac{(N+\ell+1)(N-2)}{2}$ ga teng bo‘lib, N katta bo‘lganda C_N^ℓ dan ancha kichik, ya’ni hisoblashlar soni to‘la tanlov usulidan ancha kam bo‘ladi. Bu algoritm ham «Tartiblash» usuli kabi mukammal yechimni bermaydi. Ayrim adabiyotlarda bu usul natijaning mukammalligini kafolatlaydi deyilgan.

Bir qator mualliflar tomonidan «Ketma-ket orqaga ajratish» usulga o‘xshash «Kyetma-ket oldinga ajratish» algoritmi tavsiya etilgan. Bu algoritmni ishlashi «Ketma-ket orqaga ajratish» algoritmiga teskari tartibda amalga oshiriladi, ya’ni dastlabki qadamda λ vektorning faqatgina bitta komponenti bir deb olinib, I(λ) ning qiymati hisoblanadi. Funksionalga eng katta qiymat bergan komponent fiksirlanadi va hosil bo‘lgan vektor λ_1 da saqlanadi. Ikkinchi qadamda esa fiksirlangan va undan tashqari yana bitta komponenti bir qilib olingan vektorlar tekshiriladi va yana I(λ) ga eng katta qiymat bergan indeks fiksirlanib, va hosil bo‘lgan vektor λ_2 da saqlanadi va hokazo.Bu usulda λ vektorning noldan farqli ℓ ta komponenti aniqlanadi. Ana shu aniqlangan vektor berilgan usul uchun mukammal yechim hisoblanib, uning birga teng komponentlariga mos keluvchi belgilar informativ belgilar majmuasini tashkil qiladi. Bu usuldagi amallar soni $\frac{(2N-\ell+1)\ell}{2}$ ta bo‘lib, $\ell < \frac{N}{2}$ da ancha ishonchli ishlaydi hamda «Ketma-ket orqaga ajratish» usuliga nisbatan amallar soni ozroq bo‘ladi.

«Ketma-ket orqaga ajratish» va «Kyetma-ket oldinga ajratish» usullari kamchiliklarini kamaytirish maqsadida umumlashgan usul qo‘llaniladi.

Tasodifiy tanlov usulida tasodifiy ℓ ta belgi tanlab olinib, informativligi aniqlanadi. Keyingi qadamda ham oldingi tanlovga bog‘liq bo‘lmagan ℓ ta belgi olinadi va uning ham informativligi aniqlanadi va hokazo shu jarayon t marta bajariladi va olingan t ta belgilar majmuasidan informativligi eng katta bo‘lgani tanlab olinadi. Ma’lumki, t qanchalik katta bo‘lsa, shunchalik informativ belgilar majmuasini tanlab olish ehtimolligi katta bo‘ladi.

Sinflararo va sinflar ichki ob'yektlari orasidagi masofalarga nisbatan informativ belgilarni tanlab olish usullari keltirilgan.

Masalalarni uzluksiz holda yechish taklif qilingan, ya'ni

$$\begin{cases} I(\lambda) \to \underset{\lambda}{extr} \\ \sum_{i=1}^{N} \lambda_i = \ell \\ \lambda_i \in \{0,1\} \end{cases} \quad (1)$$

diskret masala o'rniga

$$\begin{cases} I(\lambda) \to \underset{\lambda}{extr} \\ \sum_{i=1}^{N} \lambda_i = \ell \\ \lambda_i \in [0,1] \end{cases} \quad (2)$$

masala yechiladi, bu yerda λ_i parametrlar [0,1] oraliqdagi ixtiyoriy qiymatni qabul qilishi mumkin.

Agarda λ* vektor (2) masalaning yechimi bo'lsa, u holda (1) masalaning yechimi sifatida shunday λ0 olinadiki, bu vektorni λ* vektorning maksimal ℓ ta komponentiga mos keluvchi komponentlari bir, qolganlari esa nol bo'ladi.

Ma'lumki (2) chiziqsiz dasturlashtirishning klassik masalalaridan biri hisoblanib, uni yechish uchun esa turli xil usullar mavjud.

ℓ informativ belgilar majmuasini tanlashning bunday usuli boshqa qisman tanlov usullaridan afzallik tomoni shundaki, olingan informativ belgilar majmuasi ishonchli bo'ladi, sababi bu yerda yaxshi rivojlangan matematik usullar qo'lllaniladi.

Yuqorida keltirilib o'tilgan usullardan tashqari mezon ko'rinishiga bog'liq bo'lgan usullar ham mavjud va ular mezon ko'rinishiga bog'liq bo'lmagan usullardan:

- mezon ko'rinishiga bog'liq bo'lgan usullar aynan tanlab olingan mezon xususiyatlarini inobatga olib yaratilganligi;
- tanlab olingan mezonga mos yaratilgan usul har doim optimal yechimni ta'minlashi;

- informativ belgilar to‘plamini ajratishga ketadigan vaqt va bajariladigan amallar soni kamligi bilan ustun hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlat

1. Гонсалес Р., Вудс Р. Цифровая обработка изображений. – М.: Техносфера, 2012. – 1104 с.
2. Wu R.-Y., Tsai W.-H. A new one-pass parallel thinning algorithm for binary images // Pattern Recognition Letters, № 10, Vol. 13, 1992, pp. 715-723.
3. Местецкий Л. М. Непрерывная морфология бинарных изображений. Фигуры. Скелеты. Циркуляры. – М.: Физматлит, 2009. – 287 с.
4. Zhang T., Suen C. A fast parallel algorithm for thinning digital patterns //Communications of the ACM, №3, Vol. 27, 1984, pp. 236-239.

DJANGO NING SINOV UCHUN VEB SERVER MUHITI

Kayumov Ahror Muminjonovich,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg’ona filiali Dasturiy injiniring kafedrasi katta o’qituvchisi

Musayev Xurshid Sharifjonovich,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg’ona filiali Dasturiy injiniring kafedrasi katta o’qituvchisi

Soliyev Bahromjon Nabijonovich,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg’ona filiali Dasturiy injiniring kafedrasi assistenti

Sayt yaratish jarayonida sinov uchun saytni veb brauzerda bir necha martalab ochishga to‘g‘ri keladi. Agar boshqa platformadan foydalanilganda, masalan PHP, u holda sinov maqsadida kompyuterga veb server o‘rnatish kerak bo‘lar edi. Masalan, Denwer, Xampp va boshqalar. Django freymvorki uchun alohida veb server talab etilmaydi. Chunki bu imkoniyat uning o‘zida mavjud. Ushbu imkoniyat Python dasturlash tilida yozilgan bo‘lib, istalgan payt uni ishga tushirish mumkin.

python manage.py runserver



Lekin ushbu buyruq bilan server ishga tushmadi. Sababi, yuqorida loyiha yaratishda loyiha nomi ko’rsatilganda Django avtomatik ravishda ko’rsatilgan nom ostida ham loyiha nomi, ham loyiha fayllari uchun shu nomda papka yaratadi. Loyiha fayllari rasmda ko’rsatilgandek ostma-ost papka ichida joylashadi. Shu holatda serverni ishga tushirib bo’lmaydi. Buning uchun rasmning 2-qismida ko’rsatilgandek, papka ichiga quyidagi buyruq bilan kirish kerak bo’ladi:

cd meningsaytim

Shundan so’ng serverni ishga tushirish buyrug‘i (rasmda 1-qism) berilganda server muvafaqqiyatli ishga tushadi. Rasmdagi ko‘k rangli yozuv - http://127.0.0.1:8000/ serverni shu manzilda ishga tushganini anglatadi. Kursor albatta loyiha papkasi ichida bo‘lishini, manage.py fayli bilan bir papkada bo‘lishni talab etadi. Odatiy hol bo‘yicha veb server http://127.0.0.1:8000/ manzili bo‘yicha ishga tushadi. 127.0.0.1 – bu uning IP manzili, 8000 – esa port raqami. Port raqami ixtiyoriy berilishi ham mumkin.

Loyiha yaratilgandan so’ng, yuqoridagi muammoni quyidagicha ham yechish mumkin. Loyiha nomidan so’ng bir bo’shliq va nuqta qo’yish:

django-admin startproject meningsaytim .

Bunday usulda loyiha nomi ostma-ost 2 papka ko'rinishida emas, balki bitta nomdagi papka ichida jam bo'ladi. Bu tartibda yaratilgan loyihani to'g'ridan-to'g'ri python manage.py runserver buyrug'i bilan ishga tushirish mumkin bo'ladi. Yangi brauzer oynasini oching va 127.0.0.1:8000 manzil satriga kiriting.



Django muvafaqqiyatli ishga tushganligi haqidagi rasm

Ishga tushgan veb serverni buyruqlar satridan Ctrl+C yoki Ctrl+Break tugmalarini bosish orqali to'xtatish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. R. Zulunov. Use of artificial intelligence technologies in the educational process. Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS), Volume 3, Issue 10, Oct., 2022, p. 764-770.
2. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan, dated 17.02.2021 No. PQ-4996, https://lex.uz/docs/-5297046.
3. George Luger, Artificial Intelligence: Structures and Strategies for Complex Problem Solving, Fourth Edition Addison-Wesley, 2002.
4. Muminjonovich K. A. SUN'YIY INELLEKTNI RIVOJLANTIRISHDA DASTURLASH TILLARINING RO 'LI //Journal of new century innovations. – 2023. – T. 12. – №. 4. – C. 159-161.

5. Зулунов Р. М., Каюмов А. М. ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ-ОТ МИФОЛОГИИ ДО МАШИННОГО ОБУЧЕНИЯ //Proceedings of Interna-tional Educators Conference. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 25-30.
6. Musayev X.SH., Ermatova Z.Q., KOTLIN DASTURLASH TILIDA KORUTINLAR BILAN ISHLASHNI TALABALARGA O ‘RGATISH //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 119-125.
7. Р. Зулунов. Что такое искусственный интеллект и как он работает. Ta’lim_fidoyilari, 2022 noyabr 1 qism, 149-153 b.
8. R. Zulunov. Sun’yiy intellekt texnologiyalarini ta’lim jarayonida qo”llanilishi. Xorazm Ma’mun akademiyasi habarnomasi, 11/3 2022, 163-166 b.
9. Р. Зулунов, А.Тиллаволдиев. Использование технологий искусственного интеллекта в образовательном процессе. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 2022, v.12, Nov, p.137–142.
10. R. Zulunov, D.Irmatova. Sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish. The journal of integrated education and research, 1(6), November 2022, p.53-56.
11. R.Zulunov, S.Xadjyev. Mifologiyadan mashinali o‘rganishgacha: sun’iy intellekt tarixi. Tafakkur manzili, 2022 dekabr, 1 qism, 16-19 b.
12. Halimovich T. T. et al. Monte Carlo method for constructing an unbelised assessment of diffusion problems //European science review. – 2020. – №. 1-2. – С. 7-12.
13. R.Zulunov., B.Soliev. Importance of Python language in development of artificial intelligence. Потомки Аль-Фаргани, 2023, 1(1), 7-12 b.
14. 14. Солиев Б. Н. Проблемы моделирования электронных торговых процессов на основе местных характеристик //Исследования молодых ученых. – 2020. – С. 8-11.
15. 15. Солиев Б. Н. и др. ИЗУЧИТЬ ОПЫТ ДРУГИХ СТРАН ПО РАЗВИТИЮ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ //Журнал Технических исследований. – 2022. – Т. 5. – №. 1.
16. 16. Soliev B. N., Abdurasulova D., Yakubov M. S. USING THE DJANGO FRAMEWORK FOR E-COMMERCE PROCESSES //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 229-233.

SUT SOG‘ISH ZALLARIDA SIGIRLARNING JOYLASHUV TARTIBINI AVTOMAT ANIQLASHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR.

Babadjanov Elmurod Satimovich[1],
To‘liyev Xurshid Ilhamovich[2]
[1]Toshkent axborot texnologiyalari universiteti doktoranti,

[1]Toshkent axborot texnologiyalari universiteti tayanch doktoranti

Chorvachilik sanoatining eng ko‘p foyda keltiruvchi tarmog‘i sut va sut mahsulotlari hisoblanadi. Shuning uchun ham fermer xo‘jaliklarida sut mahsuldorligini ko‘paytirish va sut sifatini nazorat qilish muammosi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Sut mahsuldorligini oshirish uchun har bir sigir sut mahsuldorligini oshirish ya’ni har bir sigirga individual yondoshish kerak. Buning uchun har bir sigirning kundalik sut ko‘rsatkichlari to‘g‘ri yozib borilishi kerak.

Hozirgi kunda Qoraqalpog’iston Respublikasi hududida faoliyat yuritayotgan fermer xo‘jaliklaridagi sut sog‘ish zallarida sigirlarning kundalik sut ko‘rsatkichlari qo‘l yozuv orqali qayd daftariga yozib olinadi va keyin tahlil qilinadi. Bu usulda sut ko‘rsatkichlarini tahlil qilishda bir qator xatoliklar kelib chiqishi mumkin. Masalan sut sog‘uvchi sut ko‘rsatklichlarini xato yozishi mumkin, qayd daftaridagi yozuvlar o‘chib ketishi mumkin va eng muhim muammolardan biri bir sigir sut ko‘rsatkichi boshqa bir sigir sut ko‘rsatkichi bilan alamashinib qolishi mumkin.

Sog‘in sigirlarni identifikatsiya qilish va fermer xo‘jaliklarida qayd etilgan boshqa muammolarni inobatga olib RFID texnologiyasini identifikatsiyalashda va sigirlarni sog‘ishda qo‘llash g‘oyasi paydo bo‘ldi. RFID texnologiyasi yordamida sog'ish jarayonini monitoring qilish quyidagilarga yordam beradi:

Sigirlarning sut sog‘ish zalida sigirlarni aniq identifikatsiyalash orqali orqali sut sifatiga ta’sir ko‘rsatish mumkin.

Sut sog‘ish zaliga kelgan sigirlarda qandaydir kasallik borligiga shubha tug‘ilsa shu joyning o‘zida bu haqidagi ma’lumotni ma’lumotlar bazasiga jo‘natish mumkin;

Hozirgi kunda RFID texnologiyasi avtomatlashgan chorvachilik tizimlarida ko‘pgina muammolarni bartaraf etishda katta rol o‘ynamoqda. Lekin shunga qaramasdan bu texnologiya qo‘llanilgan tizimlarda ham hali yechimini topmagan masalalar borligini e’tirof etish kerak. Bunday masalalardan biri sut sog‘ish zallaridagi kalonkalarga sigirlarning joylashuv tartibini to‘g‘ri aniqlash hisoblanadi.

Sut sog‘ish zaliga sigirlar tartib bilan kirib kelsa RFID reader lar qaysi sigir birinchi, ikkinchi va hakoza o‘tganini ularning quloqlariga taqilgan RFID teglarni ketma-ket o‘qish orqali ularning tartibini muammosiz aniqlab berishi mumkin.

1-rasmga nazar solsak sigirlar sut sog’ish zalidagi 6 ta kalonkaga tartib biilan kirib kelmoqda. Bu holatda sut sog‘ish zali kirishida o‘rnatilgan ikkita RFID reader sigirlar qulog‘idagi teglarni ketma-ket o‘qiydi.



1-rasm. Avtomatlashgan sut sog‘ish tizimiga sigirlarning tartib bilan kirishi.

Muammo jihati shundaki sigirlar sut sog‘ish zaliga tartib bilan emas balki be’tartib holatda kirib kelsa sigirlarning sut ko‘rsatkichlari bir biriniki bilan almashinib qolishi mumkin. Sababi bu holatda RFID reader oldidan o‘tayotganganda sigirlar tartibi buzilganligi sababli RFID reader ma’lumotlar displeyiga boshqa sigirning ID raqamini jo‘natib yuborishi mumkin. 2-rasm da sut sog’ish zaliga sigirlarning tartibsiz kirishi tasvirlangan.



2-rasm. Avtomatlashgan sut sog‘ish tizimiga sigirlarning tartibsiz kirishi.

Bu yerda 6-raqamli teg ostidagi sigirni 2-raqamli RFID reader sezadi va uni sut sog‘ish zaliga kirdi deb hisoblaydi. Vaholanki bu vaziyatda 7-raqamli teg ostidagi sigir 6-raqamli teg ostidagi sigirdan oldin sut sog‘ish zaliga kirib ketish ehtimolligi juda yuqori. Bu holat yuz bersa 6-raqamli sigir ma’lumotlariga 7-raqamli sigirning sut ko‘rsatkichlari yozilib ketadi va natijada ma’lumotlar bazasiga xato ma’lumot boradi.

Sut sog‘ish sigirlarning tartibsiz kirib kelish holatida qaysi sut sog‘ish kalonkasi nechanchi raqamli sigir joylashganini aniqlovchi algoritm ishlab chiqish avtomatlashgan sut sog‘ish tizimidagi muammolardan biri hisoblanadi. Bu muammoni bartaraf etishda RFID reader da o‘qib yozilgan ma’lumotlar massivini tahlil qiluvchi algoritmlarni ishlab chiqish kerak. Bunda RFID teg

o‘qilgan vaqt, Teg o‘qilganda RFID reader dan oraliq masofasi, teg RFID readerda necha marotaba o‘qilganligi kabi ma’lumotlar hisobga olinsa algoritm ishonchliligi yanada ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ming-Chih Chen, Chien-Hsing Chen, Chong-Yu Siang Design of Information System for Milking Dairy Cattle and Detection of Mastitis.// Hindawi Publishing Corporation Mathematical Problems in Engineering Volume 2014.
2. Norberg, Electrical conductivity of milk as a phenotypic and genetic indicator of bovine mastitis: a review.// Livestock Production Science, vol. 96, no. 2-3, pp.
3. R. Li, J. Wu, H. Wang, and G. Li, “Design method of CAN BUS network communication structure for electric vehicle,” in Proceedings of the International Forum on Strategic Technology (IFOST ’10), pp. 326–329, October 2010.
4. A. Grogan, “Smart farming,” Engineering and Technology, vol. 7, no. 6, pp. 38–40, 2012.

PYTHON DASTURLASH TILIDA RASMLAR BILAN ISHLASH. PILLOW MODULI

Kayumov Axror Mo‘minjonovich, Musayev Xurshid Sharifjonovich
Soliyev Bahromjon Nabijonovich, Ermatova Zarina Qaxramonovna
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg‘ona filiali

Modul haqida umumiy ma’lumotlar

Texnologiya kundan-kunga rivojlanib borayotganligi sababli, raqamli tasvirlar ma’lumotlarni qabul qilishning ajralmas manbai bo‘lib bormoqda. Shuning uchun kundalik hayotda juda ko‘p raqamli tasvirlarga duch kelinmoqda. Bu rasmlar har qanday narsa bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Dasturlash dunyosida turli xildagi kutubxonalar yoki vositalar yordamida raqamli tasvirlarni qayta ishlash mumkin. Ushbu maqolada Python dasturlash tilining mashhur vositalaridan biri bo‘lgan Pillow haqida ma’lumot olish mumkin. Tasvirlar bilan ishlash uchun OpenCV, Python Image Library (PIL) va Scikit-image kabi foydali

vositalar mavjud. Ushbu maqola to‘liq Python dasturlash tilining Pillow moduliga (PIL) qaratilgan.

Tasvirlarga ishlov berish nima? Tasvirlarga ishlov berish raqamli tasvirlarni tahlil qilish va manipulyatsiya qilish usulidir. Asosiy maqsad boshqa joyda ishlatilishi mumkin bo‘lgan ba’zi ma’lumotlarni olishdir. Masalan, hozirgi kunda mamlakatimizda sfetoforlarga raqamli tasvirlarni oladigan, transport vositalarining raqamini, transport vositasinng yo‘l harakati qoidalarini buzgan yoki buzmaganligini aniqlaydigan videokuzatuv kameralari o‘rnatilib kelinmoqda. Bu jarayonlarning barchasi tasvirni qayta ishlash bilan bog‘liq. Python dasturlash tilidagi Pillow moduli PIL (Python Image Library) ustiga qurilgan. PIL moduli Python dasturlash tilida tasvirlarni qayta ishlash uchun muhim modul hisoblanadi. Lekin bu modul Python dasturlash tilining 3 versiyasi tomonidan ishlatilmaydi. Pillow moduli jpeg, png, bmp, gif, ppm va tiff kabi tasvirlarning ustida turli amallar bajarish uchun ishlatiladi.

Pillow moduli yordamida raqamli tasvirlarga ishlov berishda turli xildagi operatsiyalarni bajarish mumkin. Masalan, tasvirlarni filtrlash, eskiz yaratish, rasmlarni birlashtirish, tasvirlarni kesish, tasvirlarni xiralashtirish, tasvir hajmini o‘zgartirish, tasvirlarga belgilar yaratish va shu kabi boshqa ko‘plab operatsiyalar bajarish mumkin.

Pillow modulini o‘rnatish

Python dasturlash tilida Pillow moduli bilan ishlashni boshlashdan oldin, ushbu modulni kompyuterga o‘rnatib olishimiz kerak. Buning uchun kompyuterning buyruqlar satriga (komandnaya stroka) yoki terminaliga quyidagi buyruqni kiritish orqali amalga oshiriladi.

pip install pillow



1–rasm: Pillow modulini o‘rnatish va o‘rnatilganlik haqida ma’lumot

Agar kompyuterda Pillow moduli o‘rnatilgan bo‘lsa, u holda “requirement already satisfied (talab allaqachon qondirilgan)” degan ma’lumot ko‘rsatiladi.



2–rasm: Pillow modulini o‘rnatishdagi oldin o‘rnatilganligi haqida ma’lumot

Pillow kutubxonasida tasvirni ko‘rsatish uchun Image klassi mavjud bo‘lib, ushbu klassdan yordamida tasvirlarni obyekt sifatida ishlatiladi. Pillow moduli tasvirlar bilan ishlovchi bir nechta oldindan aniqlangan funksiyalarga ega, masalan rasmlarni yuklash yoki yangi rasmlar yaratish va hokazo.

Rasmlarni ochish, aylantirish va ko‘rsatish

Rasmlarni ochish tasvirlarni qayta ishlashning asosiy operatsiyalaridan biri hisoblanadi. Rasmni yuklash uchun PIL modulidan Image klassini import qilish kerak. Ushbu klassdan foydalanilayotgan vaqtda argument sifatida rasmning fayl nomini ko‘rsatish lozim. Bunda Image klassining open() metodi yordam beradi. Bu metod tasvirning obyektini qaytaradi.

Tasvirni obyekt shakliga keltirilganidan so‘ng o‘lchamlarini o‘zgartirish, kesish, chizish yoki boshqa ko‘plab operatsiyalarni bajarish mumkin. Tasvir ustida bajarilgan operatsiyalarni saqlash uchun save() metodi yordam beradi. Masalan, bir rasmni obyekt shakliga keltirib uni 45 gradusga burish quyidagicha amalga oshiriladi.

```
from PIL import Image
img = Image.open(r"images\\kia_k5.jpg")
img.show()
img45= img.rotate(45, fillcolor=(255, 255, 255))
img45.save(r"images\\kia_k5_45.jpg")
img45.show()
```

Ushbu dasturning natijasi quyidagicha:

3 – rasm: Rasmni asl va 45° burilgan holati

Image klassining hususiyatlari

Image klassida tasvir obyektini boshqarish uchun ba’zi atributlar mavjud. Bu atributlar quyidagi jadvalda kelirilgan.

Atribut nomi	Tasnifi
Image.filename	Ushbu atribut obyektning tasvir nomini qaytaradi
Image.format	Ushbu atribut “JPEG”, “BMP”, “PNG” va shu kabi rasm faylining formatini qaytaradi.
Image.mode	Ushbu atribut obyekt tomonidan ishlatilgan piksel formatini qaytaradi. Bu qiymatlar “1”, “L”, “RGB” yoki “CMYK” bo‘lishi mumkin.
Image.size	Ushbu atritub tasvir obyektining eni va bo‘yi qiymatlarini o‘z ichiga olgan kortej qaytaradi.

Image.width	Ushbu atritub tasvir obyekti enini (kengligini) qiymatini qaytaradi.
Image.height	Ushbu atritub tasvir obyekti bo‘yini (balandligi) qiymatini qaytaradi.
Image.info	Ushbu atribut tasvir obyekti bilan bog‘langan ma’lumotlarni saqlaydigan lug‘at qaytaradi.

Jadvalda keltirilgan atributlarga ishlatilishi quyida keltirilgan dastur kodida berilgan.

```
from PIL import Image
img = Image.open(r"images\\kia_k5.jpg")
print(f"Nomi: {img.filename}, Rasm formati: {img.format}")
print(f"Turi: {img.mode}, O'lchami: {img.size}")
print(f"Eni: {img.width}, Bo'yi: {img.height}")
print(f"Qolgan ma'lumotlar: {img.info}")
```

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Musayev X., Soliev B. PUBLIC, PROTECTED, PRIVATE MEMBERS IN PYTHON //Потомки Аль-Фаргани. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 43-46.
2. Sh M. X., MS A. PYTHONDA DASTUR YOZISH QOIDALARI //SO ‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI. – 2023. – Т. 6. – №. 4. – С. 113-119.
3. R. Zulunov. Preparing the educational process for the era of artificial intelligence. The journal of integrated education and research, Volume 1, issue 4, September 2022, p.261-263
4. Р. Зулунов, Подготовка образовательного процесса к эпохе искусственного интеллекта. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 2022, Oct., 11, p. 81-83.
5. Р. Зулунов. Что такое искусственный интеллект и как он работает. Ta'lim_fidoyilari, 2022 noyabr 1 qism, 149-153 b.
6. R. Zulunov. Sun'yiy intellekt texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo”llanilishi. Xorazm Ma'mun akademiyasi habarnomasi, 11/3 2022, 163-166 b.
7. Musayev X Sh, Abdukarimova MS. Pythonda dastur yozish qoidalari. So‘ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi, 2023/4/10, 113-119 b.

II SHO‘BA
MUQOBIL ENERGIYA MANBAALARI VA TELEKOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISHING YANGI BOSQICHILARI

RADIO ALOQA TIZIMLARINING RIVOJLANISH EVOLYUTSIYASIGA BIR NAZAR

T.. Jumaboyev[1], Z.K.G’ayratov[1], I.Jo’rayev[2], M.Z. Nazarova[2], M.M.Najmiyev[2]

[1]Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Samarqand filiali, “Telekommunikatsiya injiniringi” kafedrasi professor-o’qituvchilari

[2]Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Samarqand filiali, “Telekommunikatsiya texnologiyalari” yo’nalishi talabalari

Kirish. Aloqa ma’lumotlarni bir necha odam yoki qurilmalar orasida o‘tkazish imkoniyatini anglatadi. Bu narsani o‘tkazishning amalga oshirilishi esa boshqa odamlar bilan bog‘liq tashvishlarni olib tashlashga yordam beradi. Aloqa, kompyuterlar orqali yoki ilgari qurilmalar orqali amalga oshirilishi mumkin. Aloqa qurilmasi, elektron pochta, mobil aloqa, video aloqa, tarmoq aloqalari, interaktiv kompaniyalar, yordam xizmatlari, o‘zaro aloqalar, IoT (Internet of Things) va hokazo kabi turli turdagi aloqalar kiritiladi. Aloqani o‘rganish va uning ta’lim muhitiga qo‘shilishi ko‘pincha muhimdir. Bu, shuningdek, tijorat, salomatlik, sport va hukumat sohalarida ham keng qo‘llaniladi. Masalan, mobil aloqa orqali tibbiy yordam xizmatlari berilishi, qurilma avariya xizmatlari taqdim etilishi, internet orqali onlayn do‘konlardan mahsulot sotib olish imkoniyati yaratildi Aloqa sohasidagi eng muhim muammo va kamchiliklar aloqa xavfsizligi, talabalar va ishlab chiqaruvchilar o‘rtasidagi hamkorlikning yuqori darajada boshqarilishi, aloqa qurilmalarining qo‘llanishining vaqt va muhimatlarni qondirishning bevosita

nazorati kabi masalalardan iboratdir. Shuningdek, IoT tizimlari, asbob-uskunalar va qurilmalar, tarmoq sohalarining xavfsizligini ta’minlash uchun eng yaxshi usullarni talab qiladi. Ushbu muammolar hal qilinmaganligi uchun, aloqa sohasi hali rivojlantirilishi va yuqori xavfsizlik standartlari qo‘yilishi kerak. Aloqa sohasidagi ilmiy tadqiqotlar, qabul qilingan. amaliy ishlar va muhim ko‘rgazmalar aloqa sohasining mustaqil rivojlantirilishi va muhim yo‘nalishlari belgilash uchun asosiy ko‘rsatkichlar hisoblanadi.

Aloqa texnologiyalari tarixi (ommaviy axborot vositalari va tegishli yozuv vositalari) siyosiy-iqtisodiy tizimlar va ularning kengaytmasi hamda hokimiyat tizimlaridagi siljishlar bilan birgalikda rivojlandi. Muloqot juda nozik almashinuv jarayonlaridan tortib, to‘liq suhbatlar va ommaviy kommunikatsiyalargacha bo‘lishi mumkin. Yozish katta yangilik edi, shuningdek,bosib chiqarish texnalogiyasi yaqinda telekommunikatsiya va internet shular qatoriga qo‘shilib bordi. Aloqa uchun signallarni masofadan uzatish; ming yillar oldin Afrika, Amerika va Osiyoning ba’zi qismlarida tugun signallari va barabanlardan foydalanish bilan boshlangan. 1790-yillarda Yevropada birinchi sobit semafor tizimlari paydo bo‘ldi, ammo faqat 1830-yillarda elektr telekommunikatsiya tizimlari paydo bo‘la boshladi.

Bellning ixtirosi. Nuqtai va boshqa tovushlarni istagan masofaga uzata oladigan ajoyib qurilmani professor, kar-soqovlar maktabining o‘qituvchisi A.G.Bell 1876 yilda ixtiro qildi. Aloqa liniyasining bir boshida-mikrofonda tovush to‘lqinlari elektr toki to‘lqinlariga aylantiriladi. Bir juft mis, sim orqali bu to‘lqinlar olis masofalarga yetib boradi. Liniyaning ikkinchi tomonida-telefonda elektr toki to‘lqinlari yana tovush to‘lqinlariga aylanadi. Suxbatlashish uchun aloqa liniyasining har ikkala tomonida mikrofon ham, telefon ham bo‘lishi kerak. Mikrofon bilan telefonni birlashtiruvchi qurilma mikrotelefon deyiladi. Biz uni telefon trubkasi deymiz. Telefon trubkasi esa simlar bilan telefon apparatiga ulangan. Telefon apparatlarida, mikrotelefondan tashqari, telefon nomeri teriladigan disk va qo‘ng‘iroq bor. Barcha telefon apparatlari aloqa liniyalari orqali avtomat stantsiyasi-ATSga ulangan. Axborot vositalaridan biri hisoblangan radio

hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. U elektr va internet kabi insonning o'rnini to'ldirib bo'lmas yordamchisiga aylandi. Biroq, radioning ixtirosi ortida qanday voqea borligini kam odam biladi.

Radiouzatish qurilmasi (RUQ) deb antennaga beriladigan va fazoda tarqaladigan yuqori chastotali (YuCh) va o'ta yuqori chastotali (O'YuCh) tebranishlarni generatsiyalash, quvvat bo'yicha kuchaytirish va modulyatsiyalashga xizmat qiladigan **radiotexnik apparatlarga** aytiladi. Uchta funksiyalar - generatsiyalash, kuchaytirish va modulyatsiyalash funksiyalari umumiy tushuncha – ma'lumotlarni tashiydigan tebranish tushuniladigan signalni shakllantirish bilan birlashtiriladi. Fazoga nurlantiriladigan bunday elektromagnit signal **radiosignal** deyiladi. Uchinchi funksiya – modulyatsiyalash dastlabki xabarni (masalan, nutq yoki televizion signalni) YuCh yoki O'YuCh tebranishga yuklash jarayoni hisoblanadi. Texnologik tomondan radiouzatish qurilmalari ma'lum elektr sxema bo'yicha o'zaro ulangan integral mikrosxemalar, tranzistorlar, diodlar, elektr vakuum asboblar, kondensatorlar, transformatorlar va ko'plab boshqa elementlar to'plamidan iborat. Eng takomillashgan konstruksiyalar to'lig'icha yarim o'tkazgichli gibrid va integral mikrosxemalardan tashkil topadi. Radiouzatichlar ma'lum radioelektron tizim doirasida ma'lumotlarni uzatish uchun xizmat qiladi. Ularga quyidagi tizimlar kiradi:

- ovoz va televizion radiouzatish tizimlari;
- yer usti vositalari yordamida radioaloqa, xususan, sotali radioaloqa tizimlari;
- global kosmik radioaloqa, televizion radiouzatish va radionavigatsiya tizimlari;
- turli xil ob'ektlarni radioboshqarish va radiotelemetrik nazorat qilish tizimlari;
- olis masofali, o'rta va yaqin ishlash radiusili radiolokatsion tizimlar.

Radioelektron tizimning vazifasiga bog'liq ravishda radiouzatkichlarning lampali yoki yarim o'tkazgichli turlari, YuCh yoki O'YuCh diapazon

radiouzatkichlari, uncha katta bo‘lmagan yoki oshirilgan quvvatli radiouzatkichlar, uzluksiz yoki impulsli rejimda ishlaydigan radiouzatkichlar qo‘llanadi.

Navbatdagi daraja kam shovqinli O‘YuCh kuchaytirgich, signal modem-modulyator va demodulyatori, signalga ishlov berish bloki, YuCh yoki O‘YuCh tebranishlar quvvatini kuchaytirish bloki, radioqabul qilgichning chiziqli trakti, antenna-fider trakti va boshqalar kabi bloklar hisoblanadi. Piramidaning keyingi yuqori darajasi funksional tugallangan qurilmalar – turli radiotexnik tizimlar tarkibida mustaqil ishlaydigan radioqabul qilgichlar, radiostansiyalar, radiolokatorlar, televizorlar va boshqalarni o‘ ichiga oladi. Qaralayotgan piramidaning aynan bu darajadasida radiouzatish qurilmalari joylashgan.

Radiouzatkichning vazifasi foydalanadigan radiotexnik tizim orqali aniqlanadi va u uzatiladigan ma’lumot turiga bog‘liq. Shuning uchun ular radioaloqa, radioeshittirish, televizion, radiolokatsion, radioo‘lchov, radionavigatsion, radioboshqaruv va boshqa radiouzatkichlar turlariga bo‘linadi.

Mamlakatimizda aloqa tarixi taraqqiyotini o‘rganish maqsadida yana “Aloqa tarixi muzeyi” zallaridagi ko‘rgazmalarni tamosha qilamiz. Bu safar e’tiborimizni radioaloqaning ixtiro etilishi, radioaloqa texnologiyalari, jahon va mamlakatimiz radioeshittirish sohasining rivojlanishiga oid eksponatlarga qaratamiz.

XIX asr oxirida jahonda telefon-telegraf aloqasi faol rivojlanib ulgurgandi. Biroq bu soha rivoji uchun ko‘plab kabellar ishlab chiqarish talab etilardi. Simli liniyalar qurish uchun katta hajmdagi metall sarflanardi. Shu sababli ham simsiz aloqa yaratish g‘oyasi dolzarb tusga kirib borardi. Tarixdan ma’lumki bunday yangi aloqaning vujudga kelishi Rossiyalik 36 yoshlik o‘qituvchi Aleksandr Popov va italiyalik 20 yoshlik talaba Gulelmo Markoni nomlari bilan bog‘liq.

Xulosa qilib aytganda o‘tgan asr 50-yillaridan keyin mazkur aloqa sohasi jadal rivojlandi va mamlakatda, ayniqsa, qishloq va olis masofalarda joylashgan aholi hududlarida radiofikatsiya ishlariga katta e’tibor qaratildi. Barcha joylarda radiouzellar barpo etilib, 1960-yillargacha ularning soni 470dan oshib ketdi. Hukumat Qaroriga muvofiq respublikada 1963-yilga kelib, radiouzellar sifatini yaxshilash maqsadida yagona radiofikatsiyalash tarmog‘i tashkil etildi. «Aloqa

tarixi muzeyi»ning ikkinchi qavatida radio va radioaloqasi tarixiga oid ko‘plab eksponatlarni ko‘rish mumkin. Ma’lumki, XX asr oxirlariga kelib, radioaloqa sohasida keskin o‘zgarishlar amalga oshirildi. Barcha mamlakatlar qatori respublikamizda ham ko‘plab radiostansiyalar qurildi. Radio uskunasining ham yangidan-yangi turlari kashf etilib, yanada takomillashib bordi. Radio boshqa uskunalar masalan, televizor, telefon, transport va boshqa qurilmalar asosida ham o‘rnatilib, baralla yangrayotganining guvohi bo‘lmoqdamiz. Qo‘limizdagi mobil telefonning tugmasini bosib, sevimli radioeshittirishlarimizni tinglay olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Aloqa_tarixi
2. https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/telegraf-tarixi.
3. “Televideniye asoslari” M.Muhammedov. “Voris-nashriyot” Toshkent 2009-yil. 150b.
4. Радиопередающие устройства: Учебник для вузов/ В.В.Шахгильдян, В.Б. Козырев, А.А.Ляховкин и др.; Под ред. В.В.Шахгильдяна. – 3-е изд., перераб. и доп. – М.: Радио и связь, 1996. – 560 с.: ил.
5. Радиопередающие устройства: Учебник/ В.И.Каганов. – М.: ИРПО: Издательский центр «Академия», 2002. – 282 с.
6. Системы цифровой радиосвязи. Базовые методы и характеристики. Учеб. пособие / Л. Н. Волков, М. С. Немировский, Ю. С. Шинаков. - М. : ЭКО-ТРЕНДЗ, 2005. - 392 с. : ил.

МОБИЛНЫЕ ВОЗОБНОВЛЯЕМЫЕ БЕСПРЕБОЙНЫЕ ИСТОЧНИКИ ЭЛЕКТРОНЭНЕРГИИ ДЛЯ ОБЪЕКТОВ ТЕЛЕКОММУНИКАЦИИ.

Эргашев С.Ф.

Ферганский политехнический институт

Электроэнергия является важным для всех сфер материального производства, и как для любого другого сырья существенным является такое понятие, как качество. Существует пять основных типов дефектор качества электроэнергии: гармонические искажения, системные аварии, падения напряжения, или провалы и скачки напряжения. Каждый из этих дефектор имеет свои причины и последствия, а также различные возможные затраты.

Проблемы качества электроэнергии, вполне реален, и даже низко технологичные отрасли несут серьезные финансовые потери. С другой стороны, превентивные меры обходятся относительного дешево и варьируются от просто хорошей практики и методов проектирования до устоновки широко распространенного вспомогательного оборудования.

По имеющимся оценкам, проблемы качества электроэнергии обходятся промышленности и в целом деловому сообществу Европейского Союза (ЕС) около 10 мляр евро в год, в то время как затраты на превентивные меры состаляют менее 5% от этой суммы. [1].

Поэтому быт, и производство немыслимы без системы резервного гарантированного электроснабжения. Важную роль в этом играют мобильные возобновляемые источники бесперебойного питания (МИБП), которые изложенная в данной работе задача разработка, исследование, а также освоение серийного производства мобильных возобновляемых бесперебойных источников электроэнергии для качественного резервного гарантированного электроснабжения систем телекоммуникационной связи, радиолокационной станции, а также систем управления сложными техническими обектами и др.

Мобильные источники бесперебойного питания**,** разработанные Центром научно-технических и маркетинговых исследований УзАСИ совместно учеными ФерПИ(рис. 1.1. а и б)**,** обеспечивают:

• надежную работу в штатном режиме;

• безотказное срабатывание источника бесперебойного питания в экстренных ситуациях и надежную поддержку электропитания;

• длительный срок службы;

• легкость и удобство монтажа в стандартных телекоммуникационных стойках и шкафах;

• высокое качество и надежность;

• оптимальное соотношение цены и эффективности;

• необходимые решения на самые различные требования заказчика.

Рис. 1. Лёгкая и компактная конструкция МИБП [2].

Разработанная конструкция экспериментальных образцов МИБП для испытания в реальных условиях были установлены в ряде предприятий телекоммуникационной связи Ташкентской и Ферганской области.

Литература.

1. Электропитание устройств связи: Учебник для вузов/ А.А. Бокуняев, В.М. Бушуев, А.А. Жерненко и др.; Под ред. Ю.Д. Козляева -М.; Радио и связь, 1998 - 328 с.
2. Эргашев С.Ф., Мухитдинов М., А.К.Тожибоев, Рустамов У., Исследование энергетической эффективности преобразования энергии инвертора, Фарғона политехника институти, Илмий техника журнали, 2013,2, Фарғона 2013 йил.88-91 б.

ОПТИК ТОЛАЛАРНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ

Исмоилов Фаррух Муминжон ўғли
(Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари университети Фарғона филиали магистранти)

Оптик алоқа бу ахборот ёруғлик нури кўринишида оптик тола бўйлаб ёки очиқ фазо атмосферада узатиладиган алоқадир. Ахборот тола орқали узатилса, толали оптик алоқа тизими, очиқ атмосферада узатилса, очиқ оптик алоқа тизими дейилади.

Оптик алоқа тизимининг асосий йўналиши толали оптик алоқа тизими ҳисобланади. Оптик алоқада ахборотларни ёруғлик ёки оптик сигналлар кўринишида узатиш ва қайта ишлаш амалга оширилади.

Ахборотни оптик тола орқали узатиш мис кабеллар ва бошқа узатиш муҳитларига қараганда бир қанча афзалликларга эга. Шу афзалликлари туфайли оптик толалардан нафақат телефон алоқасини ташкил этишда, балки телевидениеда, овозли эшиттиришларни узатишда, ҳисоблаш техникасида, транспорт воситаларида ва бошқа соҳаларда кенг фойдаланилмоқда. Оптик толаларнинг афзалликлари ҳақида маълумот бериб ўтсак.

- Ўтказиш оралиғининг кенглиги. Бундай толадан фойдаланиш орқали ахборотни юқори тезликда узатиш мумкин. У сониясига 1 Тбит гача ўзгаради. Бу кўрсаткич жуда юқори ташувчи частотаси (10^{14} – 10^{15} Гц) билан боғлиқ.

- Оптик толада ёруғлик сигналларининг кам сўниши. Оптик толада сўниш ва дисперсия қийматларининг кичиклиги оптик сигналларни толали оптик алоқа линиялари бўйлаб ретрансляциясиз 100 км ва ундан узоқ масофаларга узатиш имконини беради. Шовқин сатҳини кичиклиги оптик толанинг ўтказиш қобилиятини оширади.

- Тизимнинг юқори ишончлилиги ва шовқинга чидамлилиги. Тола диэлектрик ўтказгич бўлиб, электромагнит нурланишга сезгир эмас, оксидланиш ва намликдан қўрқмайди. Шунингдек, кўп толали оптик кабелларда кўп жуфтли мис кабелларга хос электромагнит нурланишларнинг ўзаро таъсири каби муаммолар юзага келмайди.

- Рухсатсиз киришдан ҳимояланиш мавжудлиги. Оптик толали алоқа рухсатсиз кириш ва махфий маълумотларни тинглашдан ишончли ҳимояни таъминлайди. Толали оптик алоқа линияларида узатиладиган маълумотларни сигнални бузмасдан эшитиш жуда қийин. Хавфсизлик тизими бир зумда алоқа каналининг бузилиши ҳақида сигнал беради. Оптиканинг бундай қобилияти радио диапазонида нурланишнинг йўқлиги, шунингдек, тебранишларга юқори

сезувчанлик билан боғлиқ. Шунинг учун толали оптик алоқа линиялари банклар, тадқиқот марказлари, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи ва махфий маълумотлар билан ишлайдиган ташкилотлар томонидан фаол қўлланилади.

- Иқтисодий жиҳатдан самарадорлилиги. Оптик тола кварцдан ишлаб чиқарилади. Кварсдан тайёрланган оптик толалар мис кабелдан тахминан 2 баравар арзонроқдир. Толали оптик кабеллар сигналларни узоқ масофаларга ретрансляциясиз узатиш имконини беради. Узоқ масофали толали оптик алоқа линияларида оптик кабелларнинг қўлланилиши ретрансляторлар сонини қисқаришига олиб келади. Бунинг натижасида ҳам сарф ҳаражатлар камаяди.

- Оптик кабелларнинг енгиллиги, ҳажмининг кичиклиги. Агар биз мис ва оптик кабелларни солиштирадиган бўлсак, унда бир хил тармоқли кенглиги билан иккинчисининг оғирлиги тахминан 4 баравар кам бўлади ва унинг ҳажми, ҳатто ҳимоя қопламаларини ишлатганда ҳам мисдан бир неча баравар кам бўлади. Оптик толанинг бу афзаллиги толали оптик алоқа линияларини қуришда анча қулайликлар яратади. Енгиллиги ва ҳажмининг кичиклиги туфайли оптик толанинг самолёт, вертолёт ва бошқа транспорт воситаларида ишлатилиши толали оптик алоқанинг жуда муҳим ютуғидир.

- Узоқ муддат фойдаланиш мумкинлиги. Оптик толали линияларнинг хизмат қилиш муддати чорак асрни ташкил этади. 25 йиллик узлуксиз фойдаланишдан кейин ташувчи тизимда сигналнинг сусайиши кучаяди.

- Ёнғин хавфсизлигининг юқори даражаси. Оптик толада учқун ҳосил бўлмаслиги кимёвий, нефтни қайта ишловчи корхоналарда, портлаш ва ёнғин хавфи мавжуд бўлган биноларда хавфсизликни оширади.

Ҳозирги кунда турли вазифали ва тузилишли оптик тола ва кабеллар ишлаб чиқарилмоқда. Кенг полосали алоқа тизимлари, жумладан магистрал алоқа учун толадан фақатгина асосий тўлқин тарқаладиган бир модали кабелларнинг янги турлари ишлаб чиқарилмоқда. Магистрал алоқа линияларида сигнал узатишда толанинг сўниш ва дисперсия параметрларига ҳам юқори талаблар қўйилади.

Бугунги кунда оптик толалар нафақат шаҳарлар, минтақалар ўртасида, балки корхона, завод, бино ва иншоотлар ичида узоқ масофаларга ахборот узатиш учун кенг қўлланилади. Оптик тола кемасозлик, аэрокосмик, автомобилсозлик ва бошқа соҳаларда анъанавий мис ўрнини эгалламоқда.

Адабиётлар рўйхати

3. Юнусов Н., Исаев Р., Миразимова Г.Х., Оптик алоқа асослари. Тошкент 2014.
4. Тешабаев Т.З., Ходжаев Н., Камалидинов Р.З., Оптик алоқа тизимлари ва тармоқлари. Тошкент 2018.

MUQOBIL ENERGIYA MANBALARINING QURILMALARIDA FOYDALANILADIGAN YARIMO‘TKAZGICHLARNI FIZIK VA KIMYOVIY XOSSALARI

Toshpo‘latov Sherali Muxamadaliyevich, G‘aniyeva Feruza Isroiljon qizi
Мухаммад ал-Хоразмий номидаги ТАТУ Фарғона филиали ассистенти, ATT kafedrasi xodimi

Yarimo‘tkazgich – o‘tkazuvchanlik nuqtai nazaridan o‘tkazgichlar va dielektriklar o‘rtasida oraliq pozitsiyani egallagan material. Odatda, u kristalli qattiq moddadir. U ma’lum sharoitlarda elektr tokini o‘tkazadi, bu uni tok oqimini boshqarish uchun ideal qiladi. Oddiy holatda yarimo‘tkazgichlar juda kam tok o‘tkazadi yoki umuman o‘tkazmaydi. Ammo haroratning oshishi yoki yorug‘lik ta’sirida ular elektr zaryadlarini yaxshiroq uzatishni boshlaydilar. Shuningdek, kiritilganda yarim o‘tkazgichlarning o‘tkazuvchanligi aralashmaning kiritilishi bilan o‘zgaradi - bu jarayon doping deb ataladi.

Yarimo‘tkazgich va o‘tkazgich o‘rtasidagi muhim farq shundaki, undagi oqim nafaqat elektronlar, balki ular tomonidan qoldirilgan bo‘sh joylar - teshiklar tomonidan ham amalga oshiriladi. Valentlik zonasida qolgan teshiklarni quyi energiya holatlaridagi elektronlar egallashi va shu bilan oqim oqimiga hissa qo‘shishi mumkin. Yarimo‘tkazgichning asosiy xususiyatlaridan biri bu zaryad tashuvchilarning (elektronlar va teshiklar) harakatchanligi. Bu zarrachalarning o‘rtacha tezligi va qo‘llaniladigan tashqi elektr maydoni o‘rtasidagi bog‘liqlikni

ko‘rsatadigan koeffitsientdir. Elektronlar va teshiklarning harakatchanligi har xil bo‘lishi mumkin, masalan, kremniyda xona haroratida manfiy zaryadlangan zarralar musbatlarga qaraganda deyarli uch baravar tezroq harakat qiladi. Bundan tashqari, yarim o‘tkazgichlar tarmoqli bo‘shlig‘ida farqlanadi. Bu elektronni valentlik zonasidan o‘tkazuvchanlik zonasiga o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan minimal energiya. Metall va boshqa yarim o‘tkazgichlar uchun u 0 ga teng va u 4 eV yoki undan ko‘p darajaga yetganda, material dielektrik bo‘ladi. Yarimo‘tkazgichlarning yana bir muhim xususiyati issiqlik o‘tkazuvchanligidir. Qurilmani haddan tashqari qizib ketishdan himoya qilish uchun komponentlardan issiqlikni qanchalik tez va oson olib tashlash mumkinligini ko‘rsatadi.



Kemniy kristalli panjarasining tekis diagrammasi. 1-rasm.

Kremniy yerda ugleroddan keyin ikkinchi eng ko‘p tarqalgan kimyoviy elementdir. Uning asosiy afzalligi shundaki, uni qazib olish oson, kremniy kristallari bilan ishlash nisbatan oson va yaxshi umumiy elektr va mexanik xususiyatlarni ta’minlaydi. Elektronlar va teshiklarning nisbatan past harakatchanligiga qaramay, u mikroelektron ishlab chiqarish uchun optimal material bo‘lib qolmoqda. Yana bir afzalligi shundaki, integral mikrosxemalar qo‘llanilganda turli faol elementlar orasida izolyatsiyalovchi qatlam vazifasini bajaradigan yuqori sifatli kremniy oksidi hosil qiladi. Elementlarning zichligini va integral mikrosxemalar tezligini oshirish uchun monokristalli va polikristalli kremniy elementlarining birikmalaridan foydalaniladi. Kremniy yarim o‘tkazgichlar integral mikrosxemalar, bipolyar va maydonli tranzistorlar, zaryad bilan bog‘langan qurilmalar, yuqori tezlikdagi

fotodiodlar va boshqa ko‘plab qurilmalarni yaratish uchun keng qo‘llaniladi. Kremniy asosidagi mahsulotlar, masalan, super-birikma MOSFET yoki IGBT, keng kuchlanish diapazonida (birlikdan bir necha yuz voltgacha) va turli quvvat sinflarida ishlatilishi mumkin.

Biz kremniy’’ davridamiz va mikroelektronika bu materialdan boshlangandek tuyulishi mumkin, ammo germaniydan foydalanish bo’yicha yuqori o’rinlarga ko’tariladi. U ko‘plab dastlabki qurilmalarda, radarni aniqlash uchun diodlardan birinchi tranzistorlargacha ishlatilgan. Germaniy keng tarqalgan, ishlab chiqarish arzonroq va kengroq diapazonga va yaxshi issiqlik o‘tkazuvchanligiga ega. Uning afzalligi bu yarim o’tkazgich materialdagi zaryad tashuvchilar ancha harakatchan.

$$n = \frac{1}{R \cdot q} = \frac{J \cdot H}{q \cdot Ux \cdot b}$$

300 K (taxminan 27°C) haroratda ‘’birinchi’’ yarimo‘tkazgichdagi elektronlar kremniynikiga qaraganda deyarli uch barobar tezroq harakat qiladi va teshiklar deyarli to‘rt barobar tezroq harakat qiladi. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan elementlarning fizik va kimeviy xususiyatlaridan kelib chiqgan holda, ya’ni valent gruppalariga muvofiq, ularni aralashmalaridan AFN elementlar olishda keng foydalaniladi. Taglikka kiyalatib bug‘latish yo‘li bilan hosil qilingan yupqa qatlam ustida har xil chukurlikda joylashgan p-n va n-p-o‘tishlar xosil bo‘ladi. Shu sababli anomal yuqori fotokuchlanish (~10000 V/sm) hosil bo‘ladi. CdTe, S, Se lardan tayyorlangan AFN-qatlamlar bir necha ming mikroskopik r-p-o‘tishlardan tashkil topgan. Shu sababli bu qatlamlardagi fotomagnit kuchlanish anomal yuqori qiymat berishi mumkin. Yupqa pardali AFN-elementlar avtonom ravishda, tashqi energiya manbasi qatnashmagan holda, mustaqil muqobil energiya bilan ta’minlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Фотоэлектрические явления в полупроводниках и оптотэлектроника, сборник ст. под. ред. Э.И. Адировича. Ташкент, изд-во «ФАН» УзССР, 1972.
2. Turgunov, B., Juraev, N., Toshpulatov, S., Abdullajon, K., & Iskandarov, U. (2021, November). Researching Of The Degradation

Process Of Laser Diodes Used In Optical Transport Networks. In 2021 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT) (pp. 1-4). IEEE.
3. O.S. Rayimjonova, I.A. Makhmudov, & M.G. Tillaboyev. (2022). Model and Method of Intellectualization of the Processes of Providing Resources and Services of the Multiservice Network. Eurasian Research Bulletin, 15, 196–200. Retrieved from

СОЗДАНИЕ САЙТА НА ФРЕЙМВОРКЕ DJANGO

Токтомушева Бубусара Азаматовна
студентка 3 курса, группы ПИ-1-20 Естественно-технического факультета, Ошского технологического университета им. М.А. Адышева, Кыргызстан, г. Ош.

Бекташова Роза Абдакимовна
ст.преподаватель, кафедры Информатика, Ошского технологического университета им. М.А. Адышева , Кыргызстан, г. Ош. ros.bektash.79@mail.ru

Введение. Django (*/ˈdʒæŋgoʊ/ джанго*) — бесплатный и свободный фреймворк для веб-приложений, написанный на Python. Фреймворк — это набор компонентов, которые помогают разрабатывать веб-сайты быстро и просто.

Каждый раз при разработке веб-сайтов требуются похожие компоненты: способ аутентифицировать пользователей (вход, выход, регистрация), панель управления сайтом, формы, инструменты для загрузки файлов и т. д.

К счастью для нас, другие люди обратили внимание на возникновение однотипных проблем при веб-разработке, так что они объединились и создали фреймворки (Django и другие), которые предлагают нам готовые шаблоны для использования.

Фреймворки существуют, чтобы облегчить процесс разработки и позволить нам не изобретать колесо.

Django помогает писать программное обеспечение, которое будет:

Полным

Django следует философии «Всё включено» и предоставляет почти всё, что разработчики могут захотеть сделать «из коробки». Поскольку всё, что вам

нужно, является частью единого «продукта», всё это безупречно работает вместе, соответствует последовательным принципам проектирования и имеет обширную и актуальную документацию.

Разносторонним

Django может быть (и был) использован для создания практически любого типа веб-сайтов — от систем управления контентом и wiki до социальных сетей и новостных сайтов. Он может работать с любой клиентской средой и может доставлять контент практически в любом формате (включая HTML, RSS-каналы, JSON, XML и т. д.). Сайт, который вы сейчас читаете, создан с помощью Django!

Хотя Django предоставляет решения практически для любой функциональности, которая вам может понадобиться (например, для нескольких популярных баз данных, шаблонизаторов и т. д.), внутренне он также может быть расширен сторонними компонентами, если это необходимо.

Безопасным

Django помогает разработчикам избежать многих распространённых ошибок безопасности, предоставляя фреймворк, разработанный чтобы «делать правильные вещи» для автоматической защиты сайта. Например, Django предоставляет безопасный способ управления учётными записями пользователей и паролями, избегая распространённых ошибок, таких как размещение информации о сеансе в файлы cookie, где она уязвима (вместо этого файлы cookie содержат только ключ, а фактические данные хранятся в базе данных) или непосредственное хранение паролей вместо хэша пароля.

Хэш пароля — это значение фиксированной длины, созданное путём обработки пароля через криптографическую хэш-функцию Django может проверить правильность введённого пароля, пропустив его через хэш-функцию и сравнив вывод с сохранённым значением хэша. Благодаря «одностороннему» характеру функции, даже если сохранённое хэш-значение скомпрометировано, злоумышленнику будет сложно определить исходный пароль.

Django, по умолчанию, обеспечивает защиту от многих уязвимостей, включая SQL-инъекцию, межсайтовый скриптинг, подделку межсайтовых

запросов и кликджекинг (см. Website security для получения дополнительной информации об этих атаках).

Масштабируемым

Django использует компонентную “shared-nothing” архитектуру (каждая её часть независима от других и, следовательно, может быть заменена или изменена, если это необходимо). Чёткое разделение частей означает, что Django может масштабироваться при увеличении трафика, путём добавления оборудования на любом уровне: серверы кеширования, серверы баз данных или серверы приложений. Одни из самых загруженных сайтов успешно масштабировали Django (например, Instagram и Disqus, если назвать только два из них).

Удобным в сопровождении

Код Django написан с использованием принципов и шаблонов проектирования, которые поощряют создание поддерживаемого и повторно используемого кода. В частности, в нём используется принцип «Don't Repeat Yourself» (DRY, «не повторяйся»), поэтому нет ненужного дублирования, что сокращает объём кода. Django также способствует группированию связанных функциональных возможностей в повторно используемые «приложения» и, на более низком уровне, группирует связанный код в модули (в соответствии с шаблоном Model View Controller (MVC) (en-US)).

Переносным

Django написан на Python, который работает на многих платформах. Это означает, что вы не привязаны к какой-либо конкретной серверной платформе и можете запускать приложения на многих версиях Linux, Windows и Mac OS X. Кроме того, Django хорошо поддерживается многими веб-хостингами, которые часто предоставляют определённую инфраструктуру и документацию для размещения сайтов Django.

Начать работу на Django

Установим Django с помощью стандартного пакетного менеджера:

pip3 install django

Создадим новый проект Django:

django-admin startproject [название проекта]

Эта команда создаст папку с [названием проекта] со вложенной одноимённой папкой [название проекта] и файлом *manage.py*, отвечающим за управление проектом.

После загрузки проекта на хостинг в папку с доменным именем, на котором он будет работать, проверим его работу.

Для запуска Django-проекта на Хостинге нужно создать файл *passenger_wsgi.py*, который будет отвечать за связь проекта с веб-сервером. Содержимое файла должно быть следующим:

```py
import sys, os
INTERP = os.path.expanduser("~/weather_venv/bin/python3")

if sys.executable != INTERP: os.execl(INTERP, INTERP, *sys.argv)

from weather_project.wsgi import application
```

Здесь путь к виртуальному окружению на хостинге; `.wsgi` — указание на основной файл, который будет запускать приложение.



Теперь нужно изменить настройки самого нашего проекта, чтобы он мог запускаться на выбранном домене. Для этого в папке откроем файл *settings.py* и в строке `ALLOWED_HOSTS` укажем выбранное доменное имя, например `ALLOWED_HOSTS = [example.com]`.

После этого в разделе Управление Настройки веб-сервера для выбранного домена укажем версию Python, которая будет использоваться для работы сайта и нажмём Перезагрузить, чтобы перезагрузить веб-сервер и проверить работу нашего проекта.

В адресной строке браузера укажем наше доменное имя. Если всё работает правильно, мы увидим стандартную стартовую страницу Django

Литература:

1. Фреймворк [Электронный ресурс] / Википедия, свободная энциклопедия. – Режим доступа: https://r u.wikipedia.org /wiki/Фреймворк. – Дата доступа: 18.04.2023. Python Django 1: https://itproger.com/course/django/ -Дата доступа 18.04.2023

AWS IoT-DA UMUMIY JAVOBGARLIK MODELI

O.S.Rayimjonova
PhD, TATU Farg‘ona filiali “Telekommunikatsiya injiringi” kafedra mudiri.

N.N.Mutalov
Farg‘ona filiali “Telekommunikatsiya injiringi”magistri.

AWS va mijoz xavfsizlik va muvofiqlik uchun birgalikda javobgardir. Ushbu umumiy mas'uliyat modeli mijozning operatsion yukini kamaytirishga yordam beradi, chunki AWS virtualizatsiya va xost operatsion tizimi darajasidan tortib, xizmat ko'rsatilayotgan ob'ektlarning jismoniy xavfsizligigacha bo'lgan komponentlarni ishlatish, kuzatish va boshqarish bilan shug'ullanadi. Mijoz mehmon operatsion tizimi (jumladan, yangilanishlar va xavfsizlik yamoqlari) va boshqa amaliy dasturlarni boshqarish va boshqarish hamda AWS platformasi tomonidan taqdim etilgan xavfsizlik guruhi xavfsizlik devorini sozlash uchun javobgardir. Mijozlar o'zlari tanlagan xizmatlarni diqqat bilan baholashlari kerak, chunki ularning mas'uliyati foydalanadigan xizmatlarga, o'zlarining IT muhitlariga integratsiyalashuviga va amaldagi qonun va qoidalarga qarab farqlanadi. Ushbu umumiy mas'uliyat tizimi, shuningdek, joylashtirishlar ustidan moslashuvchanlik va

mijozlar nazoratini ta'minlaydi. Quyidagi diagrammada ko'rsatilganidek, bu mas'uliyat taqsimoti odatda "bulutli xavfsizlik" va "bulutli xavfsizlik" deb nomlanadi.

AWS mas'uliyati, bulutli xavfsizlik. AWS barcha taklif qilinadigan xizmatlar ishlaydigan AWS Cloud infratuzilmasi xavfsizligi uchun javobgardir. Ushbu infratuzilma AWS bulut xizmatlarini boshqaradigan apparat, dasturiy ta'minot, tarmoqlar va ob'ektlardan iborat.

Mijoz mas'uliyati, bulutli xavfsizlik. Mijozning javobgarligi foydalanish uchun tanlangan AWS Cloud Services tomonidan belgilanadi. Xizmatlarni tanlash mijozning xavfsizlik bo'yicha majburiyatlari doirasida bajarishi kerak bo'lgan konfiguratsiya ishlarining hajmini belgilaydi. Masalan, Amazon Elastic Compute Cloud (Amazon EC2) kabi xizmat Infratuzilma sifatida xizmat (IaaS) xizmatidir va shuning uchun mijozdan barcha zarur xavfsizlik va boshqaruv vazifalarini bajarishini talab qiladi. Amazon EC2 nusxasini joylashtirgan mijozlar mehmon operatsion tizimini (jumladan, yangilanishlar va xavfsizlik yamoqlarini), instantsiyalarda o'rnatilgan har qanday amaliy dasturiy ta'minot yoki xizmat komponentlarini boshqarish va AWS tomonidan taqdim etilgan xavfsizlik devorini (xavfsizlik guruhi) sozlash uchun javobgardir. asos. Amazon S3 va Amazon DynamoDB kabi mavhum xizmatlar uchun AWS infratuzilma qatlamini, operatsion tizimni va platformani boshqaradi va mijozlar ma'lumotlarni saqlash va olish uchun so'nggi nuqtalarga kirishadi. Mijozlar o'z ma'lumotlarini boshqarish (shu jumladan shifrlash sozlamalari), resurslarini tasniflash va tegishli ruxsatlarni qo'llash uchun IAM vositalaridan foydalanish uchun javobgardir. Mijoz va AWS o'rtasidagi umumiy javobgarlik modeli IT resurslarini boshqarish tizimlariga ham taalluqlidir. AT muhitini boshqarish mas'uliyati AWS va mijozlar o'rtasida taqsimlanganidek, IT aktivlarini boshqarish tizimlaridan foydalanish, tekshirish va boshqarish vazifalari ham shunday. AWS AWS muhitidagi jismoniy infratuzilma bilan bog'liq sozlamalarni o'z zimmasiga olish va mijozni ularni boshqarishdan ozod qilish orqali mijozning xavfsizlik sozlamalarini boshqarishdagi yukini kamaytirishga yordam

beradi. Har bir mijoz AWS’ga turlicha joylashishi sababli, mijozlar ba’zi AT resurslari boshqaruvini AWS’ga o‘tkazishdan foydalanishi mumkin, natijada (yangi) taqsimlangan boshqaruv muhiti paydo bo‘ladi. Mijozlar boshqaruv sozlamalarini zarur baholash va ko‘rib chiqish uchun mavjud AWS Governance and Compliance Documentationdan ham foydalanishlari mumkin. Quyida AWS, AWS mijozi va/yoki ikkala tomon tomonidan boshqariladigan sozlamalar misollari keltirilgan.

Meroslangan xavfsizlik sozlamalari. mijoz AWS'dan to'liq meros qilib oladigan sozlamalar.

- Jismoniy va atrof-muhit sozlamalari

Umumiy xavfsizlik sozlamalari. Infratuzilma va ijarachi darajasida qo'llaniladigan, lekin turli kontekstlarda yoki istiqbollarda qo'llaniladigan xavfsizlik sozlamalari. Umumiy sozlamalardan foydalanishda AWS infratuzilma talablarini ta’minlaydi va mijoz AWS xizmatlaridan foydalanish doirasida o‘zining xavfsizlik sozlamalarini ta’minlashi kerak. Misollar quyida keltirilgan.

- Yamoqlarni boshqarish: AWS infratuzilmadagi kamchiliklarni tuzatish va tuzatish uchun, mijozlar esa mehmon OT va ilovalarni tuzatish uchun javobgardir.
- Konfiguratsiyani boshqarish: AWS o'zining infratuzilma qurilmalari konfiguratsiyasini qo'llab-quvvatlaydi va mijoz o'zining mehmon operatsion tizimlari, ma'lumotlar bazalari va ilovalarini sozlash uchun javobgardir.
- Ogohlik va trening: AWS AWS xodimlarini o'qitadi va mijoz o'z xodimlarini o'qitishi kerak.

Mijoz uchun maxsus sozlamalar: mijoz AWSga joylashtirayotgan ilovaga bog'liq bo'lganligi sababli, faqat mijoz javobgar bo'lgan sozlamalar. Misollar quyida keltirilgan.

- Mijozdan ma'lumotlarni ma'lum xavfsizlik muhitlarida yo'naltirish yoki zonalash talab qilinishi mumkin bo'lganda xizmatlar va aloqalarni himoya qilish yoki hudud xavfsizligi.

AWS umumiy javobgarlik modelini amaliyotga tatbiq etish. Mijoz AWS Shared Responsibility Modelini va uning bulutda ishlashga qanday taalluqliligini tushunganidan so‘ng, model ulardan foydalanish holatlariga qanday tatbiq etilishini aniqlash mijozning zimmasidadir. Iste'molchi mas'uliyati ko'plab omillarga bog'liq, jumladan AWS xizmatlari va hududlarini tanlash, ushbu xizmatlarning IT tizimiga integratsiyasi, tashkilot va ish yukiga oid qonunlar va qoidalar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baytov R. E., Freier R., Ivanov K.V., Mandalvilov A. A. Tasvirlarni raqamli o’zgartirish; “Goryachayia liniya” - Telekom - 2012 yil. 228 b.
2. Erokhin S. V. Raqamli kompyuter san'ati; Aletiya - Moskva, 2011
3. Khurshidjon Y. et al. Transition photoelectric processes in a superfluid gas-discharge cell with semiconductor electrodes //Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – T. 10. – №. 5. – C. 100-109.
4. https://docs.aws.amazon.com/iot/latest/developerguide/security.html internet sayti.
5. https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2352484721007265 internet sayti.

CHEGARAVIY HISOBLASHDA KAM RESURSLI TARMOQ MUHITI UCHUN INTERNET BUYUMLARINING O’RNI VA TIZIMLI KO’RIB CHIQISH

Ergashev Sanjarbek Sobirjon o’g’li
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg’ona filiali Telekommunikatsiya injiniringi kafedrasi assistenti

Hozirgi vaqtda IoT tomonidan juda katta hajmdagi ma'lumotlar yaratilmoqda. Ko'pincha "katta ma'lumotlar" deb ataladigan bu ma'lumotlar "kengaytirilgan tushuncha va qarorlar qabul qilish uchun qiymat olish imkonini beradigan ma'lumotlarni boshqarish (to'plash va qayta ishlash) uchun yangi arxitektura va texnologiyalarni talab qiladigan katta hajmdagi ma'lumotlarga ishora qiladi" [2]. Katta ma'lumotlar turli xil yuqori hajmli, yuqori tezlikli, yuqori xilma-xillik va yuqori aniqlik xususiyatlari bilan tavsiflanadi. 2020 yilga kelib IoT 50 milliard yoki undan ortiq qurilmalarni ulashi kutilmoqda, bu yangi aqlli ob'ektlarning keng oqimi va ularning xizmatlariga talabning keskin ortib borishi tufayli.

So'nggi paytlarda IoT aqlli muhitlarda qo'llanila boshlandi, bu esa foydalanuvchilarga bir-biriga bog'langan bir qator qurilmalar orqali atrof-muhitni yaxshiroq tushunish va boshqarish imkonini beradi. Aqlli muhit ilovalarida IoT keng qamrovli, ko'p darajali va to'liq qamrab olingan ekologik monitoring tarmog'ini yaratish uchun qo'llaniladi, bunga IoT-dan fazoviy va vaqtinchalik ma'lumotlarga ega bo'lgan barcha darajadagi sensorlarni integratsiyalashgan holda erishish mumkin. ma'lumotlar markazi va yagona servis yordamiga ega platforma. IoT texnologiyasi va uning katta ma'lumotlar bilan integratsiyasi aqlli shaharlar, aqlli sog'liqni saqlash, aqlli ogohlantirish tizimlari va ofatlarni boshqarish kabi turli sohalarda keng qo'llanilgan. Shu sababli, IoT va katta ma'lumotlarni atrof-muhit sohalarida qurish va qo'llash, ayniqsa sanoatda strategik yangi muhitni rivojlantirish, ilgari surish va boshqarish uchun hal qiluvchi chora bo'ldi.

IoT-da aqlli-ekologik ilovalar uchun sezilarli yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, bu hali ham katta hajmdagi ma'lumotlarni hisoblash, razvedka texnikasini qo'lga olish, saqlash, qayta ishlash va tahlil qilish qiyin vazifa bo'lishi mumkin. Istalgan natijalarga erishish uchun aqlli muhit ilovalari yuqori tezlikdagi ma'lumotlar oqimi orqali real vaqtda yoki hatto real vaqtga yaqin ishlov berishni talab qiladi, bu esa o'z navbatida tez, samarali va keng miqyosda ishlashni talab qiladi.

Aqlli muhitlar sohasidagi katta ma'lumotlar va IoT-ga asoslangan ilovalar hozirda etarlicha o'rganilmagan. tadqiqot sohasi bo'lib, u bir nechta qiziqarli muammolar va istiqbolli imkoniyatlarni taqdim etadi. IoT bir-biriga bog'langan sensorlar, aqlli qurilmalar va turli xil ma'lumotlar manbalari bilan hamma joyda tarmoq ishlarini taklif qiladi, shu bilan birga IoT texnologiyalari mavjud ilovalarga qo'shilish potentsialiga, shuningdek, kelajakdagi ilovalarni ishlab chiqish uchun yangi tushunchalarga ega. Web 2.0 orqali aloqaning kengayishi turli vositalar va ilovalarning integratsiyalashuvi hisobiga yanada kuchaydi. Endilikda turli xil ma'lumotlar yig'ish manbalarini (masalan, IoT-ga asoslangan sensorlar, sun'iy yo'ldoshlar va ijtimoiy media) va kuchli katta ma'lumotlarni tahlil qilish vositalarini (masalan, Hadoop, Spark va Kafka) vizualizatsiya ilovalari (masalan, Kibana) bilan birlashtirish mumkin. Bunday imkoniyatlar aqlli muhit ilovalari evolyutsiyasi uchun istiqbolli ta'sir ko'rsatadi.

Katta ma'lumotlar va IoT bo'yicha joriy tadqiqotlar bo'yicha so'rovimizdan so'ng biz katta ma'lumotlar texnologiyasidan aqlli muhit va unga tegishli dastur sohalarida uzatish, qayta ishlash, saqlash va tahlil qilish uchun foydalanish mumkinligini aniqladik. Ushbu sohada ishlatiladigan asosiy asboblar 1–rasmda ko'rsatilgan.



1-rasm. IoT va katta ma’lumotlarda qo’llaniladigan asosiy vositalar.

Dielektriklar deb, valent sohasi to‘ldirilgan va bu sohadan keyingi, o‘tkazuvchanlik sohagacha energetik masofa nisbatan katta bo‘lgan moddalarga aytiladi.

Metallar uchun boshqa tuzilish xarakterlidir, ularda bevosita valent sohasi qisman to‘ldirilgan bo‘ladi, yoki u keyingi soha-o‘tkazuvchan sohasi bilan kirishishgan bo‘ladi.

Agar moddaning valent sohasi to‘laligicha egallanmagan bo‘lsayu, ammo o‘tkazuvchanlik sohasigacha bo‘lgan energetik masofa nisbatan kichik (2 eV dan kamroq) bo‘lsa, bunday moddalar YAO‘ deyiladi. YAO‘ xususiyatlari xususan elektr o‘tkazuvchanligi tashqi muhitga, ayni=sa haroratga bog‘lik bo‘ladi.Harorat (T)ning ortishi elektronlar miqdorining valent va o‘tkazuvchanlik soha orasida joylashgan man qilingan sohadan (Eg) o‘tib o‘tkazuvchanlik sohasiga o‘tishda tok tashuvchilarning eksponensial ravishda ko‘payishiga va elektr o‘tkazuvchanlikning (σ)

$$\sigma = A\exp(-Eg/2kT) \quad (1)$$

tenglamaga asosan o‘zgarishiga olib keladi. Bu erda k– Bolsman doimiyligi, A – moddani xarakterlovchi o‘zgarmas kattalik.

Metallarning elektr o‘tkazuvchanligi erkin elektronlar konsentratsiyasi o‘zgarmas bo‘lganligi tufayli elektronlar harakatchanligining haroratga bog‘likligi bilan aniqlanadi va haroratning ortishi bilan asta-sekin kamayadi..

Yuqoridagi tenglamani logariflab quyidagi holda ifoda etamiz.

$\ell n\sigma=\ell nA- E/2kT$ (2)

Bu tenglamani yarim logarifmik koordinatalarda grafik ravishda ko‘rsatish mumkin va hosil bo‘lgan to‘g‘ri chiziq va uning φ burchakli tangensi YAO‘ materiallarning asosiy parametri bo‘lgan, man qilingan soha kengligi bo‘lgan $Eg=2kT\varphi$ ni aniqlaydi. Ta’kidlash lozimki, qiya to‘g‘ri chiziq, ya’ni elektr o‘tkazuvchanlikning logarifmi 1/T dan o‘zgarishi faqat toza kirishmalardan xoli, xususiy o‘tkazuvchanlikka ega bo‘lgan materiallar uchungina shunday ko‘rinishga ega.

Kirishmali yarim o‘tkazgichlarda lnG ning 1/T dan bo/lanishi murakkab bo‘lib, u ikkita qiya to‘g‘ri chiziqdan iborat bo‘lishi mumkin va bir-biri bilan gorizontal qism orqali tutashgan bo‘ladi. Past haroaratli sharoitda o‘lchash natijasida olingan $\ell n\sigma=\ell nA- E/2kT$ tenglamadan hosil qilingan qiya to‘g‘ri chiziq tangensi yordamida kirishmalarning man qilingan sohada joylashgan energetik sathlari holatini aniqlash mumkin. Yuqori haroratli sharoitda olingan hollarda esa YAO‘ materialning man qilingan sohasi kattaligini, ya’ni Eg ni aniqlash mumkin.

QE tayerlashda quyosh nurlanishining YAO‘ material bilan o‘zaro ta’siri, fotonlar energiyasi materialdagi elektronlarda yutilishi va chiqishi jarayonlari muhim ahamiyatga egadir.

Kvant mexanikasida elementar zarrachalar, shu jumladan elektronlar ham to‘lqin xossalariga ham ega deb qaraladi. SHuning uchun elementar zarrachalar harakatini o‘rganishda energiya (E) va impuls (R) bilan bir qatorda, ularning to‘lqin uzunliklari λ va takrorlanuvchanligi ν va to‘lqin vektori $K=P/h$, (h- Plank doimiyligi) ham ishlatiladi. Bu erda $E=h\nu$ va $P=h/\lambda$ ga teng.

Kremniy materialida esa yutilish jarayoni 1,1 eV dan boshlab to‘g‘ri bo‘lmagan energetik o‘tishlar orqali bo‘ladi va buning uchun xam yorug’lik kvanti,

hamda panjara tebranishlari kvanti-fononlar ishtiroki talab qilinadi.. SHuning uchun, yutilish kursatkichi α asta-sekin ortib boradi. Faqat fotonlar energiyasi 2,5 eV ga etgandan keyingina soha-sohali o‘tishlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘tishlarga aylanadi va yutilish keskin orta boshlaydi.

Yutilish spektrlari kristall tuzilishi xususida kerakli va har tomonlama foydali informatsiya beradi, jumladan, legirlanish darajasi, kirishmalarning aktivlanish energiyasini va ularning man qilingan sohada joylashgan energetik sathlarini aniqlab beradi. Masalan, yutilish spektrlari asosida kremniyda kislorodning bor yuqligini aniqlash mumkin (9 mkm). YAO‘ materiallarda akslanish koeffitsienti asosiy yutilish chegarasida uy sharoitida ionizatsiya bo‘ladigan kiritilgan kirishmalar darajasiga bog‘lik emas. Ammo spektrning uzun to‘lqinli sohasida akslanish koeffitsienti R, bunday kirishmalar ortishi bilan keskin o‘sishi kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Березин О.К., Костиков В.Г., Шахнов В.А. Источники электропитания радиоэлектронной аппаратуры. -М.: «Три Л», 2010.-400 с.
2. Гейтенко Е.Н. Источники вторичного электропитания. Схемотехника и расчет. Учебное пособие. -М.:СОЛОН-ПРЕСС, 2018.-448 с.
3. Hodasevich A.G., Hodasevich T.I. Chargers. NT Press/Moscow, 2015.-192p.
4. Chemical sources of a current: Reference book./ Edited by N.V. Korovin and A. M. Skudina. M.: Publishing House of Moscow Power Engineering Institute, 2020. -739 C.
5. Taganova A.A., Pak I.A. Sealed Chemical current sources for portable devices: A Handbook. SPetersburg.:Himizdat, 2021.123 p.

SHAMOL ENERGETIK QURILMALARINING QUVVATINI HISOBLASH

Abdullayev Elnur Axmatovich, Yazdonov Islom Vahob o‘g‘li, Xamzayeva Iroda Ziyadulla qizi
Jizzax politexnika instituti

Bugungi kunda dunyoning ko‘plab davlatlarida shamol energiyasidan elektr energiyasi olish jadal suratlarda rivojlanib bormoqda. Shamol – bu quyosh nurining intensivligi hisobiga, bosimning o‘zgarib turishi natijasida havo massasining harakatidir. Havo oqimi hosil qiladigan mexanik energiyani elektr energiyaga

aylantirish, shamol elektrostansiyalari yordamida amalga oshiriladi. Bir necha shamol qurilmalarining yig‘indisi shamol elektrostansiyasini tashkil. Havo massasining yer atmosferasi atrofida aylanishi ekspertlar tomonidan turlicha baholangan. Shamollarning yillik nazariy zahirasi er yuzidagi barcha energiya zahiralardan 100 marta ortiq bo‘lib, $3300*10^{12}$ kVt/soatni tashkil qiladi. Ammo bu energiyaning faqatgina 10–12 % foydalanish mumkin. Masalan, 1987 yilda yer yuzidagi barcha shamol qurilmalari tomonidan $10*10^{12}$ kVt/soat energiya ishlab chiqilgan, ya’ni yillik zahiraning atiga 0,3 % dan foydalanilgan. Iqtisodiy jihatdan joydagi shamolning tezligi 5 m/s dan kam bo‘lmasa shamol generatorlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shamol elektrogeneratorlari an’anaviy generatorlardan 2 – 4 barobar qimmatdir. Ammo shamol energiyasi doimiy bo‘lgan ba’zi bir hududlarda u muhim energiya manbalaridan hisoblanadi.

Shamol energetik qurilmasining quvvatini hisoblash uchun dastavval shamol hosil qilayotgan havo oqimning kinetik energiyasini hisoblaymiz. Shamol energetik qurilmasi parraklari yuzasidan o‘tuvchi shamol oqimining kinetik energiyasi quyidagicha aniqlanadi.

$$E_k = \frac{m\vartheta^2}{2} \qquad (1)$$

bu erda m – havo oqimining massasi, v – havo oqimining tezligi. Havo oqimining quvvati vaqt birligi ichida parraklar yuzasidan o‘tuvchi havo oqimi energiyasiga teng bo‘ladi.

$$N = \frac{A}{t} = \frac{E_k}{t} = \frac{\frac{m\vartheta^2}{2}}{t} = \frac{m\vartheta^2}{2t} \qquad (2)$$

Bu yerda vaqt birligi ichida parraklar yuzasidan o‘tuvchi havo oqimining massasi quyidagicha aniqlanadi.

$$\frac{m}{t} = \frac{\rho V}{t} \qquad (3)$$

bu yerda ρ – havoning zichligi, V – havo oqimi hajmi, t – vaqt.

Havo oqimi hajmi $V = S \cdot l$, S – havo oqimining ko‘ndalang kesim yuzasi, l – oqim uzunligi. Vaqt birligi ichidagi havo oqimi hajmi quyidagicha aniqlanadi:

$$\frac{V}{t} = \frac{S \cdot l}{t} = S \cdot \vartheta \qquad (4).$$

bu yerda S – havo oqimining ko‘ndalang kesim yuzasi:

$$S = \pi \cdot r^2 = \pi\left(\frac{D}{2}\right)^2 = \frac{\pi \cdot D^2}{4} \qquad (5)$$

r – shamol energetik qurilmasi parraklari aylanishidan hosil bo‘luvchi aylana radiusi, D – aylana diametri.

Yuqoridagi formulalarga asosan quyidagicha ko‘rinishdagi formulani hosil qilamiz:

$$\frac{m}{t} = \frac{\rho \cdot V}{t} = \frac{\rho \cdot S \cdot l}{t} = \rho \cdot S \cdot \vartheta = \rho \frac{\pi \cdot D^2}{4} \vartheta \qquad (6)$$

Ushbu formulaga asoslanib quvvat quyidagicha aniqlanadi;

$$N = \frac{m\vartheta^2}{2t} = \frac{\vartheta^2}{2} \rho \frac{\pi \cdot D^2}{4} \vartheta = \frac{\pi \cdot D^2 \rho \cdot \vartheta^3}{8} = \frac{\pi \cdot \rho}{8} D^2 \cdot \vartheta^3 \qquad (7)$$

Ma’lumki, havoning zichligi $\rho = 1{,}236 \frac{kg}{m^3}$ ga teng. Ushbu tenglikdan foydalanib quyidagini hosil qilamiz $\frac{\pi \cdot \rho}{8} = \frac{3{,}14 \cdot 1{,}236}{8} = 0{,}4851$.

Quvvatni kilovattlarda hisoblasak ($1kVt = 1000Vt$), (7) ifodadagi formula quyidagicha ko‘rinish oladi:

$$N = \frac{D^2 \cdot \vartheta^3}{\frac{1000}{0{,}4851}} = \frac{D^2 \cdot \vartheta^3}{2060} \qquad \text{[kvt]} \qquad (8)$$

Havo oqimining quvvati to‘laligicha elektr quvvatiga aylanishning imkoniyati mavjud emas. Shuning uchun ham (8) ifodadagi formulada shamol energetik qurilmasining quvvatini hisoblayotganimizda shamol energetik qurilmasining foydali ish koeffitsientini kiritishimiz shart:

$$N = \frac{D^2 \cdot \vartheta^3}{2060} \eta \qquad \text{[kvt]} \qquad (9).$$

Nazariy jihatdan shamol energetik qurilmasining mumkin bo‘lgan maksimal foydali ish koeffitsienti η=0,593 ga teng. Bugungi kunda ishlab chiqarilayotgan shamol energetik qurilmalarining foydali ish koeffitsienti o‘rtacha 0,43–0,47 ga tengdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аллаев К.Р. Современная энергетика и перспективы ее развития. Под общей редакцией академика Салимова А.У. – Ташкент: Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi, 2021. – 589-590 с.
2. Аллаев К.Р. Энергетика мира и Узбекистана. - Т.:Молия, 2007 г.
3. Клычев Ш.И., Мухаммадиев М.М., Авезов Р.Р. и др. Нетрадиционные и возобновляемые источники энергии. Ташкент: Изд. «Фан ва технология» - 2010 г.
4. Юнусов Т.Ю. О роли возобновляемых источников энергии в стратегии совершенствования энергетики Узбекистана. Проблемы энергои ресурсосбережения. № 3-4, 2011.

ИНТЕГРАЦИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА (ИИ) В ТЕЛЕКОММУНИКАЦИОННЫЕ СЕТИ

Далибеков Л.Р
Ферганский филиал Ташкентского университета информационных технологий имени Мухаммада ал-Хоразми

Важно изучить ключевые концепции ИИ в телекоммуникационных сетях и то, как они привели к его широкому распространению. ИИ включает в себя использование передовых алгоритмов для анализа данных и принятия решений, имитирующих человеческий интеллект. В контексте телекоммуникационных сетей алгоритмы искусственного интеллекта можно использовать для анализа сетевых данных в режиме реального времени и оптимизации производительности сети на основе таких факторов, как сетевой трафик, качество сигнала и требования пользователей.

Преимущества ИИ в телекоммуникационных сетях многочисленны. Используя алгоритмы искусственного интеллекта для анализа сетевых данных, системы управления сетью могут принимать решения в режиме

реального времени для оптимизации производительности сети, что приводит к сокращению времени простоя и повышению надежности. Кроме того, ИИ можно использовать для автоматизации задач управления сетью, освобождая сетевых инженеров для решения более сложных задач. Кроме того, искусственный интеллект может обеспечить профилактическое обслуживание, позволяя сетевым инженерам выявлять и устранять потенциальные проблемы в сети до их возникновения.

Влияние ИИ на телекоммуникационные сети было огромным. Например, ИИ позволил создать передовые системы управления сетью, которые могут оптимизировать производительность сети на основе данных в реальном времени. Это привело к разработке новых услуг и приложений, таких как высокоскоростной доступ в Интернет и потоковое видео, для которых требуются надежные и высокопроизводительные сети. Кроме того, ИИ повысил безопасность сети, позволив обнаруживать и предотвращать кибератаки в режиме реального времени.

Кроме того, интеграция ИИ в телекоммуникационные сети привела к развитию интеллектуальных сетей, которые могут адаптироваться к изменяющимся сетевым условиям и требованиям пользователей. Эти интеллектуальные сети могут учиться на прошлом опыте и делать прогнозы относительно будущей производительности сети, что позволяет им принимать упреждающие решения для оптимизации производительности сети. Например, они могут регулировать пропускную способность и пропускную способность сети в режиме реального времени в зависимости от потребностей пользователей, уменьшая перегрузку сети и улучшая взаимодействие с пользователем.

Еще одна область, в которой ИИ оказал значительное влияние на телекоммуникационные сети, — это планирование и оптимизация сетей. Анализируя исторические сетевые данные, алгоритмы ИИ могут определять области сети, которые требуют оптимизации или расширения для повышения

производительности сети. Это может помочь сетевым инженерам более эффективно планировать модернизацию сети, снижая затраты и повышая общую производительность сети.

Одним из примеров использования ИИ в телекоммуникационных сетях в Узбекистане является развертывание чат-ботов на базе ИИ для поддержки клиентов. Компания «Узбектелеком» разработала виртуального помощника под названием «UzBot», который может отвечать на запросы клиентов и оказывать поддержку через приложения для обмена сообщениями, такие как Telegram и Facebook Messenger. UzBot использует алгоритмы обработки естественного языка и машинного обучения, чтобы понимать запросы пользователей и предлагать соответствующие решения, снижая нагрузку на персонал службы поддержки клиентов и обеспечивая более быстрое и более персонализированное обслуживание клиентов.

Другой пример — использование ИИ для оптимизации сети. В 2019 году «Узбектелеком» подписал партнерское соглашение с Huawei о развертывании решения для оптимизации сети на основе искусственного интеллекта. Решение использует алгоритмы искусственного интеллекта для анализа сетевых данных в режиме реального времени и оптимизации сетевых ресурсов, повышения производительности сети и сокращения времени простоя.

В целом, использование ИИ в телекоммуникационных сетях в Узбекистане все еще находится на начальной стадии, но демонстрирует многообещающие разработки в таких областях, как поддержка клиентов и оптимизация сети. Продолжая инвестировать в исследования и разработки, телекоммуникационная отрасль Узбекистана может использовать преимущества искусственного интеллекта для повышения производительности сети и повышения качества обслуживания клиентов.

Несмотря на многочисленные преимущества, ИИ в телекоммуникационных сетях также сталкивается с некоторыми проблемами.

Одной из основных проблем является потребность в специальных знаниях и навыках для проектирования и внедрения систем ИИ. Кроме того, системы ИИ могут требовать значительных вычислительных ресурсов, требуя высокопроизводительных вычислительных ресурсов для принятия решений в реальном времени.

В заключение следует отметить, что интеграция ИИ в телекоммуникационные сети позволила разработать передовые системы управления сетью, которые могут оптимизировать производительность сети, сократить время простоя и повысить удобство работы пользователей. Его способность анализировать сетевые данные в режиме реального времени и принимать решения в реальном времени привела к разработке новых услуг и приложений, улучшающих качество жизни многих людей. Необходимы постоянные исследования и инновации для преодоления проблем, с которыми сталкивается ИИ в телекоммуникационных сетях, и для дальнейшего расширения его приложений новыми и интересными способами.

Использованная литература:

1. "How AI is Transforming Telecommunications" (https://emerj.com/ai-sector-overviews/ai-in-telecommunications-current-applications-and-future-potential/) - статья об использовании ИИ в телекоммуникациях и его текущих приложениях и будущих возможностях.
2. "Intelligent networks and management" (https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S1389128613000439) - статья о развитии интеллектуальных сетей и их управлении.
3. "Uzbektelecom launches AI-based UzBot virtual assistant" (https://www.telecompaper.com/news/uzbektelecom-launches-ai-based-uzbot-virtual-assistant--1297279) - новость о развертывании виртуального помощника на базе ИИ компанией "Узбектелеком".
4. "Uzbektelecom and Huawei sign partnership agreement" (https://www.telecompaper.com/news/uzbektelecom-and-huawei-sign-partner ship-agreement--1288659) - новость о партнерском соглашении между компаниями "Узбектелеком" и Huawei по развертыванию решения для оптимизации сети на базе ИИ.

TOLALI OPTIK ALOQA TIZIMLARI VA ULARNING ISHLASH TAMOYILLARI

Rayimjonova Odinaxon Sodiqovna
“Telekommunikatsiya injiniringi ” kafedrasi dotsenti

Ergashev Sanjarbek Sobirjon o‘g‘li
“Telekommunikatsiya injiniringi ” kafedrasi assistenti

Abrorjon Ismoilov Hasanboy o‘g‘li
“Telekommunikatsiya injiniringi ” kafedrasi assistenti

Insoniyat taraqqiyotida aloqaning, xususan, optik aloqaning roli katta bo‘lgan, bunga sabab uning tarqalish tezligining juda kattaligi, to‘g‘ri chiziqli bo‘ylab tarqalishi va boshqa xususiyatlariga bog‘liqligidir. Hozirgi davrda tolali aloqa tizimlari bo‘ylab ma‘lumotlarni uzatishda axborotning zichlashtirilishi, uzatish chastotasining oshirilishi, aloqa kanallarini zichlashtirish kabi muammolar, qator talablar yuzaga kelmoqda. Shuning uchun ham dunyo mutaxassislari birinchi navbatda optik diapazonga qayta-qayta e’tibor bera boshladilar. Shuningdek, dunyodagi mis konlari borgan sari kamayib borayotganligi vaholanki, texnika soxasida juda kerak bo‘lgan bu metallning deyarli yarmi kabellar uchun ishlatiladi. Olimlarning taxmini bo‘yicha mis ishlab chiqarish XXI asrda keskin ravishda kamayadi. Demak, biror chora topilmasa, mis kabellarni ishlab chiqarish tizimi to‘xtab qolishi turgan gap. Shuning uchun ham mis simlardan voz kechib, axborotni shaffof shisha tolalar orqali nur yordamida uzatishga katta e‘tibor berilyapti. Demak, shisha tolalarni ishlatish ikki ijobiy yutuqqa — axborot uzatish tezligini keskin oshirib, qimmat hisoblangan misni katta miqdorda iqtisod qilishga imkon beradi.

Optik aloqa — optik diapazondagi (odatda, 10’3 —10’5 Hz) elektromagnit tebranish (lazer) lar yordamida bog‘lanadigan aloqa. Optik aloqa liniyalari tuzilishi jihatidan radioaloqa liniyalariga o‘xshaydi. Nurlanishni modulyasiyalash uchun ta’minlash manbaiga yoki generatorning optik rezonatoriga ta’sir qilib, generatsiya jarayoni boshqariladi yoki chiqish nurlanishini ma’lum qonun bo‘yicha o‘zgartiradigan qo‘shimcha tashqi qurilmadan foydalaniladi [4]. Chiqish optik uzeli

yordamida nurlanish kam sochiluvchi nurga aylanadi va kirish optik uzeliga boradi; bu uzel uni foto o‘zgartirgichning faol sirtiga fokuslaydi. Foto o‘zgartirgichdan chiqqan elektr signallar informatsiyalarni ishlash uzeliga keladi. Signallarni qabul qilishning 2 usuli — to‘g‘ri detektorlash va geterodin qabul usullari bor [6].

Ta’sir doirasiga ko‘ra, Optik aloqa quyidagi asosiy turlarga bo‘linadi: ta’sir doirasi kichik bo‘lgan ochiq yer usti tizimlari (yer sirti atmosfera qatlamlaridan o‘tuvchi nurlardan foydalanadi); berk yorug‘lik kanallaridan foydalanuvchi yer usti tizimlari (shaharlararo aloqa bog‘lash, ATS, EHM orasida aloqa bog‘lash uchun); yaqin kosmik aloqa liniyalari; uzoq kosmik aloqa liniyalari. Ochiq Optik aloqa liniyalari Yer bilan kosmos orasida aloqa bog‘lash vositasi sifatida juda muhim. Lazer nuri yordamida 10 s km masofaga sekundiga 10 bit/s tezlik bilan axborotlarni uzatish mumkin (bunday masofaga mikroto‘lqin texnikasi bilan sekundiga faqat 10 bit tezlik bilan uzatiladi). Yarim o‘tkazgichli diod nurlatgichlar, yorug‘lik tolali kabellar va yarimo‘tkazgichli qabul qilgichlardan foydalanib, bir-biridan 10 km gacha masofada minglarcha telefon kanallari bo‘lgan aloqa magistrallari qurish mumkin. Optik aloqa si-stemasi magistral va ichki aloqaning asosiy turlaridan biri hisoblanadi [10].

Optik tola bo‘ylab lazer nurining harakatlanishi yorug‘lik nurining bir muxitdan ikkinchi muxitga o‘tayotgan holatda to‘la ichki qaytish hodisasi yuz berishiga asoslangan. Bunda, to‘la o‘zagining sindirish ko‘rsatkichi n1, tola qobig‘ining sindirish ko‘rsatkichi n2 dan katta bo‘lishi kerak. Va biz tola o‘zagiga lazer nurini o‘zakka o‘tkazilgan perpendikulyarga nisbatan shunday α1 burchak ostida tushiraylikki, natijada lazer nurining sinish burchagi kamida α2 = 90º yoki, undan katta bo‘lsin [11]. Shunda lazer nuri o‘zak bo‘ylab tarqalishiga va o‘zakdan tashqariga chiqib ketmasligiga erishamiz. Biz lazer nuri tushish burchagi α1 ni kichraytirib borganimiz sayin sinish burchagi α2 kattalashib boradi. Mazkur qonuniyat Snellius qonuniga asosan amalga oshiriladi (1 - rasm) [13].



1 – rasm. Tolali optik aloqa liniyalarida to‘la ichki qaytish hodisasi

Optik tola o‘zagida aynan to‘la ichki qaytish hodisasi yuzaga kelishi uchun biz lazer nurini optik tolaga qanday burchak ostida tushirishimiz ham ahamiyatlidir. Bu burchak optik tolada to‘la ichki qaytish hodisasini yuzaga keltiruvchi apertura burchagi (θ) deyiladi. Biz apertura burchagi qiymatini lazer nuri, o‘zakka nisbatan perpendikulyar va parallel to‘g‘ri chiziqlar hosil qilgan to‘g‘ri burchakli uchburchakdan foydalangan holda aniqlashimiz mumkin bo‘ladi, o‘zak ichidagi to‘la ichki qaytish hodisasini hosil bo‘lishi uchun lazer nuri hamda o‘zakka o‘tkazilgan perpendikulyar orasidagi α_1 burchak, o‘zak sindirish ko‘rsatkichi n_1, tola qobig‘i sindirish ko‘rsatkichi n_2 ga bog‘liq ravishda apertura burchagi qiymatini aniqlashimiz mumkin (2 - rasm) [14].



2 – rasm. Tola o‘zagida to‘la ichki qaytish hodisasini hosil qiluvchi

θ apertura burchagi va uning qiymati.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, hozirgi kunda telekommunikatsiya xizmatlarini taqdim etishda yuzaga keluvchi ko‘plab muammolarni hal qilishda telekommunikatsiya tarmoqlarini shisha tolali optik tolalar yordamida qurish hozirgi davrdagi eng opimal yechimdir. Biz aloqa tarmoqlarini shisha tolali optik kabellardan qurish orqali ma‘lumotlarni uzatishda

yuqori xavfsizlikka, yuqori tezlikda yuqori hajmdagi ma‘lumotlarni uzata olish imkoniyatlariga erishishimiz mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baytov R. E., Freier R., Ivanov K.V., Mandalvilov A. A. Tasvirlarni raqamli o’zgartirish; “Goryachayia liniya” - Telekom - 2012 yil. 228 b.
2. Erokhin S. V. Raqamli kompyuter san'ati; Aletiya - Moskva, 2011
3. Khurshidjon Y. et al. Transition photoelectric processes in a superfluid gas-discharge cell with semiconductor electrodes //Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – Т. 10. – №. 5. – С. 100-109.
4. О.Райимжонова, U.U.Iskandarov. «Краткий обзор экспериментального исследования открытой оптической системы для контроля отклонений зданий из железобетонных изделий». Статья. Вестник НамДУ. Наманган 2020.
5. Комилов А. О., Эргашев С. С. СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ГЕОТЕРМАЛЬНОЙ ЭНЕРГЕТИКИ //Central Asian Academic Journal of Scientific Research. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 123-129.
6. Toshpulatov S. M. et al. Analysis of fiber-optic sensors for diagnostics and monitoring of electrical equipment //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 3. – С. 858-863.
7. Райимжонова О. С., Тажибаев И. Б., Тошпулатов Ш. М. ТЕЛЕВИЗИОН ТАСВИР СИГНАЛЛАРИ СПЕКТРИНИ ЗИЧЛАШ (СИҚИШ) УСУЛЛАРИ ТАҲЛИЛИ //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 235-244.
8. Тургунов Б. А., Эргашев Ш., Орифжонова Д. В. Основные проблемы //Коммуникативные стратегии информационного общества. – 2019. – С. 179-181.
9. Rayimjonova O. S. et al. LR Dalibekov Photo Converter for Research of Characteristics Laser IR Radiation //International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology. – 2020. – Т. 7. – №. 2. – С. 12788-12791.
10. Turgunov, B., Juraev, N., Toshpulatov, S., Abdullajon, K., & Iskandarov, U. (2021, November). Researching Of The Degradation Process Of Laser Diodes Used In Optical Transport Networks. In 2021 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT) (pp. 1-4). IEEE.
11. Отажонов С. М., Жураев Н., Алижанов Д. Д. Фотодетектор для регистрации рентгеновского и ультрафиолетового излучения //Интерэкспо Гео-Сибирь. – 2011. – Т. 5. – №. 1. – С. 107-111.
12. Абдурахмонов С. М., Жураев Н. О. Прием-передачи информации

по интерфейсу RS-485 по беспроводном каналам в системах АСУ ТП //Научно-технический журнал ФерПИ. – 2016. – Т. 20. – №. 3. – С. 154-157.
13. Komilov A. O. ALTERNATIVE SOURCES OF ELECTRICITY PREMIERE IN THE SYSTEMS OF TELECOMMUNICATIONS //Перспективные информационные технологии (ПИТ 2018). – 2018. – С. 372-375.
14. Тургунов Б. А., Халилов М. М. СОВРЕМЕННЫЕ СПОСОБЫ ЗАЩИТЫ ИНФОРМАЦИОННОГО СИГНАЛА ОТ НЕСАНКЦИОНИРОВАННОГО ДОСТУПА В ОПТИЧЕСКИХ СЕТЯХ //САПР и моделирование в современной электронике. – 2018. – С. 195-197.

TOLALI OPTIK ALOQA TIZIMLARIDA QO‘LLANILUVCHI OPTIK TOLALAR VA ULARNING TUZILISHI

A.H.Ismoilov
Telekommunikatsiya injiniringi (Teleradioeshittirish) mutahassisligi magistranti

N.N. Mutalov
Telekommunikatsiya injiniringi (Teleradioeshittirish) mutahassisligi magistranti

«Axborot asri» deb nom olgan davrimizning o‘ziga xos xususiyati shundaki, jamiyat hayotining turli jabhalariga, jumladan, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalarga, fan, ta’lim, texnika va texnologiyalaming eng yangi yutuqlariga oid axborotlar oqimining tobora jadal sur’atlar bilan ortib borishi kuzatilmoqda. Chunonchi, tahlillaming ko‘rsatishicha, jahon bo‘yicha Internet resurslaridan foydalanishga bo‘lgan ehtiyoj — har bir foydalanuvchiga to‘g‘ri keladigan axborotlar oqimining o'rtacha hajmi yiliga 8 marta ortmoqda. Bunday sharoitda u yoki bu mamlakatning rivoji undagi axborotlar zaxirasining salmog‘i va bu zaxiradan foydalanilish samaradorligi bilan belgilanadi. Bir so‘z bilan aytganda, bugungi kunda axborot almashinuvi jarayoni nafaqat muloqot vositasiga, balki, jamiyat taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchlaridan biriga aylandi.

Tolali optik aloqa tizimida optik tebranishlarning tarqalishini chegaralovchi va yorug‘lik energiyasi oqimini berilgan yo'nalishda yo'naltiruvchi, uzatish va qabul qilish traktlarini bog'lab turuvchi m uhit optik yorug'lik uzatkichlar deyiladi. Optik yorug‘lik uzatkichlarning tavsiflari qisman aloqa tizimining sifatini aniqlaydi. Shuning uchun TOATni loyihalashtirishda nurlanish tarqaladigan uzatuvchi muhit

— optik yorug‘lik uzatkichlarning tavsiflarini hisobga ohsh kerak. TOATda maxsus optik yorug‘lik uzatkichlar — optik tolalar (OT) qo'llaniladi. Kichik so‘nish koeffitsiyentiga ega bo‘lgan optik yorug‘lik uzatkichlar asosida optik signallarni uzoq masofalarga uzatishni ta’minlovchi optik kabellar yaratilgan. Yorug‘lik uzatuvchi optik tolalar o‘zak va qobiqdan iborat bo‘ladi. Ular qiymat bo‘yicha bir-biriga yaqin turli sindirish ko‘rsatkichlariga ega. 0 ‘zak uzatuvchi muhit, qobiq esa o‘zi va o‘zak orasida chegara hosil qiluvchi sifatida ishlatiladi. Bu chegara yorug‘likni yo‘naltiruvchi fizik kanalni shakllantirib, u orqali uzatilgan signalning tashuvchisi yorug‘lik nuri tarqaladi. Yorug‘lik nurining faqatgina o‘zak bo‘ylab tarqahshini ta’minlash uchun (1-rasm) quyidagi shart bajarilishi kerak:

$$n,>n2>n3>n0$$

bunda: n_1 — o‘zakning sindirish ko‘rsatkichi; n_2, n_3 — qobiqlarning sindirish ko‘rsatkichlari; n_0 — tashqi muhitning sindirish ko‘rsatkichi



1-rasm. Optik tola va uning tuzilishi

Turli materiallarning sindirish ko‘rsatkichlari

Materiallar nomi	Sindirish ko‘rsatkichlari,	Yorug‘likning turli materiallardagi tezligi, km/sek
Vakuum	1,0	300 000
Havo	1,0003(1)	300 000
Suv	1,33	225 000
Kvars	1,46	205 000
Shisha	1,5	200 000
Olmos	2,5	120 000

To‘lqin uzunligiga nisbatan o‘zak diametriga bog‘liq ravishda optik tolalar bir modali va ko‘p modaliga bo‘linadi. Bir modali optik tolalarda ko‘pincha o‘zak diametri 7 —10 mkm (2.3-a rasm), ko‘p modali optik tolalarda esa 50 — 62,5 mkm (2.3-b rasm) bo‘ladi. Ikkala turda qobiq diametri 125 mkm ni tashkil etadi.

Amaliyotda ko‘p modali va bir modali optik tola diametrlarining boshqa qiymatlari ham mavjud. Bir modali optik toladan faqat bir moda 46 www.ziyouz.com kutubxonasi (yorug‘lik tashuvchi) uzatiladi. Ko‘p modali optik toladan esa apertura burchagi doirasida tolaga turli burchaklar ostida kiritiladigan bir necha yuzlab ruxsat etilgan modalarni bir vaqtda uzatish mumkin. Barcha ruxsat etilgan modalar turli tarqalish yo‘nalishi va vaqtiga ega.

Ko‘p modali optik tolalar sindirish ko‘rsatkichi ko‘rinishi bo‘yicha pog‘onali (2.4-a rasm) va gradiyent (2.4-b rasm) [14] tolalarga bo'linadi. Pog‘onali sindirish ko‘rsatkichli ko‘p modali optik tolalar ikki muhit chegarasida sindirish ko‘rsatkichlarining keskin (pog‘ona ko‘rinishida) o‘zgarishi (n^ dan n2 ga) bilan xarakterlanadi. Pog‘onali sindirish ko‘rsatkichli optik tolalar o‘tkazish polosasini chegaralaydi, lekin gradiyent sindirish ko‘rsatkichli optik tolalarga nisbatan arzon hisoblanadi. Gradiyent sindirish ko‘rsatkichli ko‘p modali optik tolalar pog‘onali sindirish ko‘rsatkichli tolalarga qaraganda ravon sindirish ko‘rsatkichi va modalararo dispersiyaning kamayishi bo'yicha yuqori texnik ko‘rsatkichlarga ega. Chunki gradiyent sindirish ko‘rsatkichli optik tolada modalarning tarqalish tezligi (dispersiyasi) bir-biridan juda ham katta farq qilmaydi. Dispersiya impulslarning kengayib ketishi va uzatilayotgan signallarning buzilishiga olib keladi. Shuning uchun hozirda gradiyent sindirish ko‘rsatkichli ko‘p modali optik tolalar keng tarqalgan. Gradiyent sindirish ko‘rsatkichli ko‘p modali optik tolalarning eng asosiy kamchiligi ularning qimmatliligi va ishlab chiqarishning murakkabligidir.



2-rasm. a) bir modali va b) ko‘p modali optik tola tuzilishi

Ko‘p modali optik tolalarda modalararo dispersiya o ‘tkazish polosasi va aloqa masofasini chegaralaydi. Shuning uchun ko‘p modali optik tolalar, asosan,

lokal tarmoqlarda va nisbatan past tezlikli raqamli TOAT signallarini uzatishda ishlatiladi.

Bir modali optik tolalardan magistral aloqa tarm oqlarida foydalaniladi. Chunki bir modali optik tolalarda m odalararo dispersiya yuzaga kelmaydi, shuning uchun signallar ko‘p modali rejimga qaraganda kam buzilish bilan uzatiladi. Ya’ni, bir modali optik tolalardan foydalanish o ‘tkazish qobiliyatini oshiradi, lekin uzatuvchi qismda birm uncha qimmat bo‘lgan lazer diodlardan foydalanish talab etiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, hozirgi kunda telekommunikatsiya xizmatlarini taqdim etishda yuzaga keluvchi ko‘plab muammolarni hal qilishda telekommunikatsiya tarmoqlarini shisha tolali optik tolalar yordamida qurish hozirgi davrdagi eng opimal yechimdir. Biz aloqa tarmoqlarini shisha tolali optik kabellardan qurish orqali ma‘lumotlarni uzatishda yuqori xavfsizlikka, yuqori tezlikda yuqori hajmdagi ma‘lumotlarni uzata olish imkoniyatlariga erishishimiz mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Optik aloqa asoslari ”, N. Yunusov, R. Isayev, G.X. Mirazimova, Toshkent - 2014
2. Khurshidjon Y. et al. Transition photoelectric processes in a superfluid gas-discharge cell with semiconductor electrodes //Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – Т. 10. – №. 5. – С. 100-109.
3. О.Райимжонова, U.U.Iskandarov. «Краткий обзор экспериментального исследования открытой оптической системы для контроля отклонений зданий из железобетонных изделий». Статья. Вестник НамДУ. Наманган 2020.
4. Комилов А. О., Эргашев С. С. СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ГЕОТЕРМАЛЬНОЙ ЭНЕРГЕТИКИ //Central Asian Academic Journal of Scientific Research. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 123-129.
5. Toshpulatov S. M. et al. Analysis of fiber-optic sensors for diagnostics and monitoring of electrical equipment //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 3. – С. 858-863.
6. Райимжонова О. С., Тажибаев И. Б., Тошпулатов Ш. М. ТЕЛЕВИЗИОН ТАСВИР СИГНАЛЛАРИ СПЕКТРИНИ ЗИЧЛАШ (СИҚИШ) УСУЛЛАРИ ТАҲЛИЛИ //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 235-244.

7. Тургунов Б. А., Эргашев Ш., Орифжонова Д. В. Основные проблемы //Коммуникативные стратегии информационного общества. – 2019. – С. 179-181.
8. Rayimjonova O. S. et al. LR Dalibekov Photo Converter for Research of Characteristics Laser IR Radiation //International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology. – 2020. – Т. 7. – №. 2. – С. 12788-12791.
9. Turgunov, B., Juraev, N., Toshpulatov, S., Abdullajon, K., & Iskandarov, U. (2021, November). Researching Of The Degradation Process Of Laser Diodes Used In Optical Transport Networks. In 2021 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT) (pp. 1-4). IEEE.
10. Отажонов С. М., Жураев Н., Алижанов Д. Д. Фотодетектор для регистрации рентгеновского и ультрафиолетового излучения //Интерэкспо Гео-Сибирь. – 2011. – Т. 5. – №. 1. – С. 107-111.
11. Абдурахмонов С. М., Жураев Н. О. Прием-передачи информации по интерфейсу RS-485 по беспроводном каналам в системах АСУ ТП //Научно-технический журнал ФерПИ. – 2016. – Т. 20. – №. 3. – С. 154-157.
12. Komilov A. O. ALTERNATIVE SOURCES OF ELECTRICITY PREMIERE IN THE SYSTEMS OF TELECOMMUNICATIONS //Перспективные информационные технологии (ПИТ 2018). – 2018. – С. 372-375.
13. Тургунов Б. А., Халилов М. М. СОВРЕМЕННЫЕ СПОСОБЫ ЗАЩИТЫ ИНФОРМАЦИОННОГО СИГНАЛА ОТ НЕСАНКЦИОНИРОВАННОГО ДОСТУПА В ОПТИЧЕСКИХ СЕТЯХ //САПР и моделирование в современной электронике. – 2018. – С. 195-197.

XAVFSIZ SHAHAR KOMPLEKSI VA UNING ISHLASH PRINSIPI

Ergashev Sanjarbek Sobirjon o'g'li
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filiali Telekommunikatsiya injiniringi kafedrasi assistenti

Xavfsiz shahar tizimi — xavf-xatarlarni, favqulodda vaziyatlarni, hodisalarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni kompleks boshqarish tizimi bo'lib, davlat tomonidan aholi hayoti va faoliyatini barcha tashqi (tabiiy, texnogen, ijtimoiy-biologik, ekologik, jinoiy va boshqa) tahdidlardan muhofaza qilish bilan birga, uy-

joy kommunal xo’jaligi va boshqa ijtimoiy ob’ektlarni yagona axborot makoniga birlashtiradi.

Avvalo, “Xavfsiz shahar” bilan “Aqlli shahar” o’rtasidagi farqni aniqlashtirib olish kerak. Ko’pchilik bularni bitta tushuncha sifatida qabul qiladilar. Aslida bunday emas. “Aqlli shahar” da AKT imkoniyatlari, innovatsion g’oyalar asosan insonlar ish faoliyatini maksimal darajada yengillashtirishga yo’naltiriladi. Masalan, yuz tuzilishingiz yoki ovozingizdan tanib uy eshigingizning avtomatik ochilishi, kirib-chiqishda chiroqlarning o’z-o’zidan yonib-o’chishi va hokazo. Xavfsiz shaharda esa barcha imkoniyat va qulayliklar shu yerda yashovchilarning hayoti va sog’lig’i bilan bog’liq xavfsizligini ta’minlashga qaratiladi. Bir so’z bilan aytganda, “Xavfsiz shahar” odamlarning xotirjam yashashlarini ta’minlaydigan tizimdir.

1-rasm. Xavfsiz shahar kompleksi.

Bu tizim bizda yangilik bo’lgani uchun, albatta, xorij tajribasi o’rganildi. AQSh, Yevropa, Janubiy Koreya, Yaponiya va Rossiyada bu borada erishilgan yutuqlar tahlil qilindi va o’zimizga mos tizim ustida ishlandi.

Xavfsiz shahar yaratish bo’yicha dunyoda yagona va standart tizim yo’q, uning konsepsiyalari juda ko’p. Har bir davlat imkoniyati va shart-sharoitidan kelib chiqqan holda o’ziga birlamchi bo’lgan omillarni ko’zda tutib tizimni ishlab chiqadi.

Misol uchun, barcha davlatlarda bu loyiha ehtimoliy tahdidlarga javob qaytarish va ogohlantirish tizimlarini integratsiya qiladi. Yanada soddalashtirsak, tizim inson hayoti va faoliyati xavfsizligi uchun birlamchi bo’lgan tuzilmalar — sog’liqni saqlash (tez yordam), ichki ishlar, o’t o’chirish, favqulodda vaziyatlar xizmatlarini o’zaro integratsiyalaydi. Shu to’rt tuzilma hamma davlatda mavjud va

odamlar uchun juda muhim. Endi qaysidir davlat bu ro'yxatni kengaytirishi mumkin. Masalan, ular safiga ekologiya, qutqaruv, kommunal yoki sanitariya-epidemiologiya nazorati xizmatlarini qo'shish mumkin. Integratsiyalashgan organlar qanchalik ko'p bo'lsa, "Xavfsiz shahar" ahamiyati shuncha ortadi.

2-rasm. Integratsiyalashgan "Xavfsiz shahar" kompleksi.

Keling, tasavvur qilib ko'ramiz. Bir joyda kimdir to'plangan xazonga o't qo'yib yubordi, buni u o'sha joyni tozalash uchun shunchaki qilgan bo'lishi ham mumkin. Xo'sh, bunday vaziyatda birinchi bo'lib kimga murojaat qilamiz: ichki ishlargami yoki o't o'chirish xizmatiga?

Har ikki organ xodimi kelishi mumkin va albatta o'ziga yarasha surishtiruvlar bo'ladi. Xavfsiz shaharda bunday vaziyatda birgina raqamni teramiz. Ular qayerda, qaysi manzilda yong'in bo'lganini yozib oladi va kerakli xizmatlarga tezkor xabar yuborishadi.

Agar yong'in kuchli bo'lsa, uni bartaraf etish uchun albatta o't o'chirish xizmatiga, yong'indan jabrlanganlar bo'lsa, tez yordamga xabar beriladi. Tez yordam jabrlangan odam haqida albatta tezkor ma'lumotga ega bo'ladi: yoshi, jinsi, kuyish yoki yondosh kasalliklari, hatto kasallik tarixidan ko'chirma ham yuborilishi mumkin. Tez yordam mashinasi uchun ob'ekt joyiga qaysi yo'nalish bilan tezroq yetib kelish chizmasi ham taqdim qilinadi. Shifokorlar bemorni olib ketish asosida, agar unga operatsiya zarur bo'lsa, yaqin atrofda qanday klinika borligi, operatsiya xonasi bo'sh yoki bandligi, qanday jarroh zarurligi haqida bazaga ma'lumot taqdim

qila oladi. Buning uchun barcha organlar xizmat mashinalari o'zaro ma'lumot almashish uchun GPS navigatorlar bilan ta'minlanadi.

3-rasm. GPS navigator.

Endi yong'in sodir bo'lgan joyga qaytsak, agar yong'in qasddan qilinganiga shubha uyg'onsa, bu yerga ichki ishlar organini ham jalb qilish mumkin. Yong'in oqibatida atrof-muhitga zararli tutun tarqalsa, favqulodda vaziyatlar xizmati, tabiatni muhofaza qiluvchi tashkilotlarga ham xabar beriladi va albatta bularning barchasi birgina telefon raqamini terish orqali amalga oshiriladi. AQSh da bu ish bilan "911" raqamli xizmat shug'ullanadi.

Xavfsiz shahar kompleksining asosiy vazifasi: aholini va hududlarni tabiiy va texnogen tabiiy ofatlardan himoya qilish, jamoat xavfsizligi, huquq-tartibot, yong'in, yo'l va ekologik xavfsizlik bilan ta'minlash, shuningdek, uy-joy kommunal xo'jaligi va shahar miqyosidagi boshqa ob'ektlarni boshqarish sohasidagi muammolarni hal qilish, shu jumladan, avtomatlashtirilgan tizimlar bilan o'zaro hamkorlik qilishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Основы построения безпроводных локальных сетей стандарта 802.11 – П.Рошан, Д.Лиэри – 2004;
2. Wireless technology in industry – P.A.Wiberg, U.Bilstrup – 2015;
3. О телекоммуникационный инфраструктуре комплекса "Безопасный город" - М.А.Шнепс-Шнеппе, С.П.Селезнев, Д.Е.Намиот, В.П.Купряновский – 2016;

YUQORI CHASTOTALI MAYDON TA'SIRIDAGI YARIMO'TKAZGICHLARNING FERMI KVAZI SATHLARINING STATISTIK TAQSIMOTLARI.

G. Gulyamov[1], B.B. Shahobiddinov[1], B.B. Qosimjonov[1] (talaba).
[1]*Namangan muhandislik-qurilish instituti, 160103, Namangan, O'zbekistan*

Konsentratsiyaning umumiy ifodasidan Fermi-Dirakt taqsimoti bo'yicha qizigan elektron va kovak uchun Fermi kvazisathini sonli yechimini topish uchun (1) va (2) ifodalarni olamiz [1].

$$n = \int g(E) f(E) dE ; \qquad n_d = \frac{N_d}{\frac{1}{2} e^{\frac{\varepsilon_d - F}{T}} + 1}$$

$$N_d \left(1 - \frac{1}{\frac{1}{2} e^{\left(\frac{E_d - F_e}{kT} \right)} + 1} \right) = N_c \int_{E_c}^{\infty} \frac{\sqrt{E - E_c}}{e^{\left(\frac{E - F_e}{kT_e} \right)} + 1} \tag{1}$$

$$N_a \left(1 - \frac{1}{2e^{\left(\frac{E_a - F_h}{kT} \right)} + 1} \right) = N_v \int_{-\infty}^{E_v} \frac{\sqrt{E_v - E}}{e^{\left(\frac{-E + F_h}{kT_h} \right)} + 1} \tag{2}$$

Fermi-Dirakt va Maksvell-Bolsman taqsimotlarini solishtirish maqsadida konsentratsiyaning umumiy ifodasini aynimagan yarimo'tkazgich uchun Maksvell-Bolsman statistikasiga ko'ra donor aralashma uchun elektronlar uchun Fermi sathini ifodasini olamiz: [2]

$$F_e = E_c - kT \ln \left(\frac{N_c}{n_n} \right) \tag{3}$$

Xuddi shunday akseptor sohadagi kovaklar uchun Fermi sathi ifodasinit olamiz:

$$F_h = E_v + kT \ln \left(\frac{N_v}{p_p} \right) \tag{4}$$

1 – rasmda $n_n = p_p = 2 \cdot 10^{17}$ sm^{-3} konsentratsiyali kremniy asosli yarimo'tkazgichlardagi n va r sohalardagi Fermi kvazisathining O'YUCH ta'sirida

o‘zgarishini (1) va (2) ifodalar yordamida Fermi-Dirakt taqsimotining raqmli echimi hamda (3) va (4) ifodalar yordamida Maksvell-Bolsman taqsimoti asosida olingan grafiklari taqoslangan. Fermi-Dirakt va Maksvell-Bolsman taqsimotlarininig aynimagan yaarimo‘tkazgichlarda O‘YUCH maydon ta’sirida Fermi kvazisathlari katta farq qilmasligini ko‘rishimiz mumkin.



1 – rasm.

2-rasmda kristall panjara haroratining ortishi bilan ta’qiqlangan zona kengligining kamayishi ham hisobga olingan.Haroratning o‘zgarishi bilan elektronlar ximpotensialining o‘zgarishi elektronlar energetik spektrining o‘zgarishiga nisbatan keskin burilishi ko‘rsatilgan.Fermi kvazisathining o‘zgarishi yarimo‘tkazgich asboblarning xarakteristikalariga kuchli ta’sir o‘tkazadi.

3-rasm. $N_c=N_v$ ligida turli konsentratsiyali kremniy asosli yarimo‘tkazgichlardagi donor va akseptor sohalardagi turli Fermi kvazisathining O‘YUCH maydonga bog‘liqligini Fermi-Dirakt tatssimoti orqali raqamli echimlari yordamida olingan grafiklar [3-5].

Yuqorida fermi kvazi satxlarini o‘zgarishlaridan olgan qiymatlarimizni tahlil qilsak. Unga ko‘ra $n_n=2\cdot10^{15}sm^{-3}$ va $p_p=2\cdot10^{15}\ sm^{-3}$ konsentratsiyadagi donor va akseptor sohalarning Fermi sathlarini O‘YUCH ta’sirida o‘zgarishini ko‘rib chiqishimiz mumkin.Unga ko‘ra $T=T_e=T_h=300\ K$ holatda donor va akseptor sohalarning boshlang‘ich Fermi sathi $F_{e0}=-0.25\ ev$ va $F_{h0}=-0,89\ ev$ ga teng [6-8]. Boshlang‘ich potensial to‘siqning balandligi φ_0 n va p sohalardagi boshlang‘ich Fermi sathlarining farqiga teng, ya’ni $\varphi_0 = F_{e_0} - F_{h_0}$ ga teng [9].



2 – rasm.



3-rasm.

$N_c=N_v$ ligida turli konsentratsiyali kremniy asosli yarimo‘tkazgichlardagi donor va akseptor sohalardagi turli Fermi sathining xaroratga bog‘liqligi [1].

Bunga ko‘ra $n_n=2\cdot10^{15}sm^{-3}$ va $p_p=2\cdot10^{15}sm^{-3}$ konsentratsiyada, $T=T_e=T_h=300$ K kremniy asosli p-n o‘tishimiz uchun boshlang‘ich potensial to‘siq balandligi $\varphi_0 = 0{,}64$ ga teng ekan.

Adabiyotlar

1. S. Zi “Physics of Semiconductor Devices” volume - 1. Page (126 - 144).
2. Gulyamov, G., Gulyamov, A. G., Davlatov, A. B., & Shahobiddinov, B. B. (2020). Electron energy in rectangular and cylindrical quantum wires.
3. BB, Shakhobiddinov, Majidova GN, and Mukhiddinova FR. "Effect of ultrahigh frequency fields on the photoelectric characteristics of pn conducting semiconductor diodes." Euroasian Journal of Semiconductors Science and Engineering 3.2 (2021): 29-34.
4. Gulyamov, Gafur, Abdurasul Gafurovich Gulyamov, and Gulnoza Nurmukhamedovna Majidova. "Relation of quasi–level fermi of hot electrons and holes with the current–voltage characteristics of the pn junction." Scientific Bulletin of Namangan State University 2.4 (2020): 8-15.
5. Gulyamov, Gafur, et al. "Changes in fermi quasi levels in silicon pn transitions under exposure to light and deformation and their influence on volt-ampere characteristics of diodes." Scientific Bulletin of Namangan State University 2.8 (2020): 10-19.
6. Gulyamov, Gafur, and Bahodir Shahobiddinov. "Effect of light on volt-ampere characteristics of pn junction." Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3.10 (2022): 314-318.
7. Gulyamov, Gafur, et al. "Microwave Effect on the Characteristics of PN Junction Diodes." Journal of Optoelectronics Laser 41.9 (2022): 409-

418.
8. Gulyamov, Gafur, et al. "The dependence of the electrical conductivity of the longitudinal oscillations of the band gap in narrow-gap semiconductors." Scientific Bulletin of Namangan State University 1.1 (2019): 3-12.
9. Gulyamov, Gafur, et al. "Change in the quasi-Fermi level and current-Voltage characteristics of diodes with a pn junction under the action of light and deformation." AIP Conference Proceedings. Vol. 2700. No. 1. AIP Publishing LLC, 2023.

ПРИМЕНЕНИЕ ВОЗМОЖНОСТИ VPN-ТЕХНОЛОГИИ ДЛЯ КОРПОРАТИВНЫХ СЕТЕЙ

Сопубеков Нематилла Абдилахатович
к.т.н., доцент

Калдыбаев Нурланбек Арзымаматович
к.т.н., доцент

Мусаева Нурзат Абдымомуновна
магистрант

Ошский технологический университет, Кыргызская Республика

В данное время интернет-технологии дают возможность для обширного сохранения и предоставления компьютерных данных в нужном виде. Сейчас возможности интернета является больше доступным, чем когда-либо раньше, и подрядчики интернет-служб продолжают развитие больше качественных и верных служб с наименьшими затратами, чем специальных выделенных линий. Для того чтобы применить такие возможности, пользователи заменили существующие линии связи с новыми специальными технологиями, применяемые интернет-соединения, учитывая эффективностью и безопасностью данной технологии. Современые интернет технологии позволяет удаленным пользователям учится, заниматся и трудиться совместно с поддержкой используя такие специальных технологий. Добавляя к сети службы VPN, компания могут расширить возможности своей внутренней сети, разрешая работникам трудиться в удаленных рабочих местах офиса либо в своих квартирах [1].

Цель VPN-технологии - обеспечение безопасных и верных соединений между локальными сетями через существующих общедоступных сетей, такие как, интернет соединения.

Четко разработанная VPN-технология предоставляет следующие новые возможности [2]:

- Надежные соединения в различных расположенных точках без применения выделенных линий.
- При обмена данными обеспечивается повышенная безопасность соединения.
- Надежная и гибкая соединение для удаленных предприятий и работников при применении сети через существующих интернет соединений.
- Увеличенная продуктивность для различных распределенных источников.

При этом VPN-технология обеспечивает [3]:

- Безопасность. VPN должен надежно сохранять информации во время транспортировки в общедоступной сети. Если преступники или хакеры попытаются завладеть информацией, они не сумеют их прочитать либо применять.
- Надежность. Персоналы компании и удаленные работники офиса всегда имеють возможность подключаться к VPN сети без каких-нибудь задач и затруднений, а VPN в это время обеспечиваеть идентичное качество соединения для всех сотрудников, даже когда система VPN обрабатывает наивысшее число одновременных обмен данными и соединений.
- Масштабируемость. VPN-системы обязаны иметь вероятность дальнейшей изменения и модернизации.

Виртуальная частная сеть - это неопасный канал чвязи между двумя либо больше компьютерной техники в интернет сети, разрешающий им получать обмен друг к другу, как в внутренней вычислительной сети. В первые годы появления VPN-технологии в основном применялись предприятиями для получения хорошей связи удаленных офисов либо подключения роуминг-работников к вычислительной сети, но сегодня они также являются значимой и надежной сервисом для пользователей, охраняя их от взломшиков при их подключении к общедоступным беспроводным сетям [4].

Для дальнейшего развития и расширения службу обслуживания сервисов, нужно рассматривать добавочные функции безопасности VPN-сервисов. К ним относятся следующие функциональные задачи:

- Надежная аутентификация и алгоритмы шифрования и их поддержка
- Антивирусная защита, обеспечение антивирусного программного обеспечения и средств выявления и предотвращения вторжений.
- Обеспечение надежной защиты для портов администрирования и сервиса.
- Поддержка регистрации и аудита и цифрового сертификата.
- Применение VPN-технлогии гораздо увеличивает безопасность линии связи, каналов связи в распределительных узлов.

Список литературы

1. Шаньгин, В.Ф. Информационная безопасность компьютерных систем и сетей / [Текст:] В.Ф. Шаньгин - учеб.пособие // М:ИД ФОРУМ: Инфра-М, 2017.- 416 с.
2. Чефранова, А.О. Технология построения VPN / [Текст:] А.О. Чефранова, Учебное пособие // - Москва: Прометей, 2019. - 250 с.
3. Ботуз, С. П. Интеллектуальные интерактивные системы и технологии управления удаленным доступом / [Текст:] С.П. Ботуз, Учебное пособие // - М.: Солон-Пресс, 2014. - 340 с.
4. Сопубеков, Н.А. Выбор метода планирования сети доступа NGN. / [Текст] Н.А. Сопубеков, Н.Б. Назарбеков, А.М. Карабаева // Известия Ошского технологического университета. –Ош, 2018. №3. –С. 90-96.

